


ko 8237
342

Adam JEKSON

Voshlar kutubxonasi



**BOY BO'LISHNING
O'NTA SIRI**

Created with

nitroPDF^{professional}

download the free trial online at nitropdf.com/professional

KIRISH

Biz oltmish besh yoshga yetganimizda to'qson foizdan ko'pimiz yo hech vaqoga yaramaydigan yoxud barbod bo'lib tugagandek ko'rihamiz. Sakkiz foiz erkaklar va ikki foiz ayollarnigina moliyaviy jihatdan mustaqil deb atash mumkin bo'lgani holda faqat bir foizgina aholini boy desa bo'ladi. Buning sababi nimada? O'sha bir foiz kishilarga boshqalar bilmaydigan yana nima narsalar ma'lum? -Ular boshqalardan ko'ra aqlliroqmi? Ma'lumoti tuzukroqmi? Ko'proq mehnat qiladilarmi? Yoki ular taqdirning erkatoylari bo'lgan oddiy baxtiyor insonlarmi?

Bu savollar uzoq yillardan beri menga tinchlik bermasdi. Agar boylik hamma intiladigan shunday bir noyob narsa bo'lsa, nima uchun unga erishish yuzdan bir kishigagina nasib etadi? Nima uchun kishilar garchi o'z orzularini amalga oshirishga ojiz bo'lsalarda, buning uchun shunchalik ko'p kuch va hissiyotlarini sarflaydilar? Kunlardan bir kun men ajoyib qariyani uchratdim. U menga Haqiqiy Boylikning barcha sir-sinoatini ochib berdi. Uning o'nta tamoyilini qo'llagan har qanday inson boylikkagina emas, balki to'la mo'l-ko'chilik, farovonlikka erishadi.

Haqiqiy Boylik — bu faqat sizning bankdagi hisobingiz miqdori yoki molu mulkingiz qimmatigina emas, bu o'z umringizni tilaganingizcha kechirishingizga yetarli darajada mablag' bilan ta'minlanganingiz demakdir. Biz barchamiz boy bo'lish uchun yetarli quvvatga ega ekanligimizni anglagandek bo'ldim. Shart-sharoitlarimizning qay darajadaligi —yosh yoki keksaligimiz, qora yoki oq tanli ekanimiz, nikohlangan yoki so'qqaboshligimizning bu yerda ahamiyati yo'q. Bizning hayotimizni tashqi muhit boshqarmaydi, ya'ni u ob-havo yoki hukumat siyosati bo'lmasin, buni o'zimiz belgilaymiz! Aynan o'z hayotimizni boshqara boshlagan, unga nisbatan o'z mas'uliyatimizni qo'lga olgan chog'dagina bu umrni o'zgartirish va o'z orzularimizni amalga oshirish uchun o'zimizda quvvat sezamiz.

Ko'pchilik zarbulmasal qahramonlari, personajlari kabi bu kitobda siz uchratgan kishilar, garchi ularning ism-shariflarini o'zgartirgan bo'lsam-da, hayotda mavjud insonlardir. Ularning boshidan kechirgan voqealar sizga ibrat bo'lishi va o'sha qahramonlar singari o'z hayotingizda Haqiqiy Boylikka erishish uchun sizda istak paydo bo'lishida ko'maklashuviga katta umid bildiraman.

Adam JEKSON,
Xartfordshir, noyabr, 1995- yil.

BOG'DAGI SAYR

Fevral oyining birinchi dushanbasi kuni ertalabki soat oltalarda odatda qanday sovuq va zulmat hukmronlik qilsa, yigit ko'chaga chiqqanida uni xuddi shunday qorong'ulik va sovuq kutib olgan Ko'chadagi chiroqlar hali o'chmagan, ammo ulov va mashinalar oqimi ancha ko'payib qolgandi. Yaqin-yaqinlarda yigitchani sakkizdan erta turg'azib bo'lmasdi, lekin so'nggi bir necha oylar davomida uni doimiy xavotir hissi chulg'agan va uyqusidan halovat qochgan edi.

U bog' tomonga boruvchi yo'ldan ilgari lab borardi. Yigitcha tong saharcha turib toza havo olish uchun bog' bo'ylab yurish odatini otasidan o'rgangandi. Otasi: «Bog' oralab sayr qilayotganda quyosh chiqishini tomosha qilsang, ilhom paydo bo'layotganini, yangi fikrlar tug'ilyotganini va senda tinchlik bermayotgan ko'pgina muammolar yechimi topilayotganini o'zing ham sezmay qolasan», — deb takrorlashni yaxshi ko'rardi.

«Go'yo buni senga farishtalar pichirlyotgandek tuyuladi», — derdi otasi. Lekin u sayr qila boshlagan ikki hafta mobaynida hech qanday farishtalar shivirlashini eshitmadi, ilhom ham kelmadi, yangi fikrlar ham uyg'onmadi, muammolar yechimini ham topolmadi.

Katta, hashamatli imoratlar yonidan o'tar ekan, yigitcha mana shunday ajoyib uyda yashashga imkon topish darajasida boy bo'lishning yaxshilik tomonlarini ko'z oldiga keltirib, o'ylab borardi. Shu kabi hashamatli imorat sotib olish imkonini bo'lganida qanday zo'r ish bo'lardi-ya!

Yigit o'zini bir lahzagina o'sha imoratlarning birida yashayotganday his qilib ko'rdi. U o'zining o'sha yorug' va keng mehmonxonalarda hordiq chiqarayotganini, bu uylarda qarindoshlari va do'stlari uchun yetarli miqdorda xonalar mavjudligi bois, ularni taklif etayotganini yoki iliq quyoshli kunda go'zal bog' ichida o'tirib orom olayotganini aniq tasavvur qildi.

Lekin bog' adog'idagi eng so'nggi imorat yonidan o'tgan zahoti tasavvuridagi tushi tugab, yigitcha yana o'ngiga qaytdi. O'ngidagi hayot esa shundayki, u hech qachon nainki shunday dang'illama hovli-joyini, hatto kichikroq ayvonchali kottejni ham sotib olish uchun yetarlicha badavlat bo'lolmaydi, lotoreyadan yutib olish bundan mustasno. Agar moliyaviy tomon haqida gapirilsa, hayot doimo yashash uchun kurashdan iborat bo'lgan, bo'lmoqda va bundan keyin ham shunday bo'ladi.

Bog' oralab borayotgan yigitcha yugurish yo'lakchasi tomon o'tib, qadamini tezlatdi. U yurib borar ekan, taqdirning o'zida kulib boqmayotganligi haqidagi fikrdan xalos bo'lolmadi. Nima uchun u badavlat xonadonda tug'ilmadi? Nima sababdan boshqalarga o'zidan o'zi keladigan omad unga yor bo'lmayapti va imkoniyatlarini ochmayapti?

Lekin haqiqat shundan iborat ediki, yigitchaning muammolari ko'pchilik insonlar muammolaridan aslo farq qilmasdi. Har oyning oxirida bankdagi hisobida qolgan puli zudlik bilan to'lashi lozim bo'lgan to'lov hisoblariga zo'r-bazo'r yetar

Yo'lg'iz Yaratganning o'zida ma'lum qaysidir yo'llar bilan

ulgulardi. Iqtisodiy tanglik hukm surgan so'nggi ikki-uch oy mobaynida borgan sari ko'proq kuch sarflashga to'g'ri keldi. Unga ish kuni uzaygandek, maoshi esa pasaygandek tuyulaverdi va orzu qilish yoqimli bo'lgan narsalari amalga oshirish u yoqda tursin, balki ertaga nima bo'lishi haqida o'ylash ham qiyin bo'lib qoldi.

Qachonlardir u taniqli yozuvchi bo'lishni, oilasini ta'minlashni va o'z xususiy uyiga ega bo'lishni orzu qilardi, lekin hozirgi sharoitda u o'z orzulari qay tarzda amalga oshishi mumkinligini hatto tasavvur etishga ham qiynalardi. Hatto u qalbining tub-tubida, qachon bo'lsa-da, kelajakda bu orzularning amalga oshishi mumkinligiga ham ishona olmasdi. U o'zini qo'lga olib, mashg'ulotini o'zgartirish va o'ziga munosibroq ish topishi kerak edi. Lekin har oyda zimmasida og'ir yuk bo'lib turgan to'lovlari tufayli bu joniga tekkan ishini tashlashga yuragi dov bermasdi.

U bamisli tuzoqqa tushganday edi, tuzoqdagi faoliyatiga yetarlicha haq to'lanmaslik unda hech qanday qiziqish yoki berilib ishlashga ishtiyoq uyg'otmasdi. Ishxonasidagi ko'pgina hamkasblari ham uning nazarida bajarayotgan ishlariga mutlaqo qiziqmay, zerikayotganday edi. Ish ular uchun ham xuddi o'zida bo'lganday shunchaki o'lmay qolish vositasidan iborat edi.

Yillar o'tib, yigit o'zining yoshlidagi orzu va umidlaridan voz kechdi. Endi uning umidi baholiqudrat yashash bo'lib qoldi. U bog' oralab borar ekan, farishtalardan biri — agar o'sha farishtalar haqiqatda mayjud bo'lsa—uning taqdirini qachonlardir o'zgartirishga turtki bo'ladigan ozginagina ishtiyoq uyg'otuvchi biron-bir fikrni qulog'iga shipshilishiga umid bog'lab, iltijo qilurdi.

Yigit o'z o'ylari girdobiga shu qadar chuqur cho'mgandiki, quyosh charaqlab chiqib, bog'ning sharqiy tomonidagi daraxtlar ustini yoritganini ko'rmas, boshi uzra qushlarning sayrashlarini eshitmas va yonida qandaydir odam ketib borayotganini ham mutlaqo sezmasdi.

UCHRASHUV

Bexos eshitilgan ovoz yigilning xayoharini qochirib, cho'chitib yubordi.

— Xayrli tong.

U o'girilib, yonida kekxa yoshdagi xitoylikni ko'rdi.

— Salom, — dedi yigit unga tez qayrilib qarab. Xitoylik baland bo'yli emas, uning boshi yigitning yelkasiga zo'rg'a yetardi. Egniga issiqqina qora sport kiyim kiygaridi.

— Siz bilan birga yursam, e'tiroz bildirmaysizmi, — so'radi bu qariya.

— Marhamat. Agar meni quvib yeta olsangiz,— javob berdi yigitcha. Kekxa kishi jilmaydi.

— Men imkon boricha harakat qilaman, — dedi u qadamini tezlatar ekan. — Siz yuragida og'ir bir dardi bor odamdek ko'rinyapsiz.

— Mutlaqo undaymas, — dedi yigitcha hamrohiga qaramay.

— Bilasizmi,— deb soʻzida davom etdi qariya, — mening mamlakatimda har bir muammo oʻzi bilan yaxshilik keltirishi, har qanday omadsizlik orqasida oʻshanday miqdorda va hatto undanda kattaroq omad kelishiga ishonadilar.

— Him? — deya ovoz chiqardi yigit ishon-qiramay.

— Bu hamma narsaga talluqli... hatto pul muammolariga ham, — dedi qariya.

Soʻnggi jumlani eshitib, yigitcha chuqur tin oldi va hamrohi tomon oʻgirildi.

— Pul muammolari qanday omad keltirishi mumkin? — deb soʻradi u.

— Pul muammolari Asl Boylik — sen hatto orzu qilolmaydigan boylik sari yoʻl ochadilar, — javob berdi chol.

— Ammo buning qay tarzda imkoni bor? — soʻradi yigit.

— Axir jahondagi eng boy va obroʻli kishilarning koʻpchiligi qachonlardir sariq chaqasiz yoki toʻla bankrot boʻlganlaridan xabaring yoʻqmi?

— Yoʻq, — dedi yigit boshini chayqab.

— Avraam Linkoln 35 yoshida bankrot deb eʼlon qilinganligiga qaramay, tarixga Amerika Qoʻshma Shtatlarining eng boy va eng obroʻli odamlaridan biri sifatida kirgan.

Mandino daydi va piyonista boʻlgan esa-da, barcha davrlarning eng mashhur yozuvchilaridan biri boʻlishga erishdi, Uolt Disney esa oʻz kino imperiyasini yaratishga muvaffaq boʻlishdan oldin bir necha bor toʻla bankrotlikni boshidan kechirgan edi.

Yigit juda hayron qoldi. U doimo hayotda omadsiz va soʻnggi magʻlubiyatga uchragan kishilargina kissasida sariq chaqasiz qoladi va bankrotlikni boshidan kechiradi, deb oʻylardi.

— Nahotki shunday boʻlishi mumkin? — soʻradi u. — Kissasida sariq chaqa qolmagan kishi qanday qilib foydaga erishishi mumkin?

— Juda oddiy, — jilmaydi qariya. — Oʻz hayotidan mamnun kishilar boylik qidirmaydilar. Oʻz hayotini oʻzgartirishni boshlash uchun ragʻbat... yoki mardlik zarur. Juda kam sonli kishilar ragʻbatga erishadilar, lekin oʻz hayotini oʻzgartirishga majburlik tufayli kirishgan kishilar ancha koʻproq.

Bilasanmi, sen umidsizlikka tushgan chogʻingdagina oʻz-oʻzingga savollar bera boshlaysan va bu savollar mazmuni sening taqdiringni aniqlab beradi.

Yigitning yuziga qizillik yugura boshladi, lekin uning hali ham ishonqiramagani alfozidan koʻrinib tulardi.

— Ayt-chi, — davom etdi qariya, — men xayollaringni qochirib yuborishimdan oldin nima haqda oʻylayotgan eding?

— Aniq aytolmayman. Nazarimda, nima uchun baʼzi narsalar aynan mening boshimdan kechyapti, degan tashvishga choʻmilib qolgan edim, shekilli.

— Xoʻsh, sen bunday savol nimaga olib kelishi mumkin deb oʻylaysan?

— Bilolmadim, — deb eʼtirof qildi yigitcha.

— Ana shunday! — dedi chol. — U «Bilmayman»ga olib keladi. Yoki yanada yomonrogʻi, notoʻgʻri javoblarga yoʻllaydi. Bu yerda «Nima uchun?» degan savol doim tayyor turadi. Sening miyang unga beradigan har qanday savolir

band; «Nima uchun?» degan savoli hech qanday umid tug'dirmaydi, uning yechim va istiqboli ham yo'q. «Men nechuk bu holga tushdim?», «Men nega g'amga botyapman?», «Nima uchun omadim kelmayapti?» kabi savollar hech qayoqqa olib bormaydi. Buyuk kishilar boshqacha savollar beradilar. Ular: «Qanday?», «Nima qilib?», «O'z hayotimni qanday yaxshilashim mumkin? » yoki hatto «Boy bo'lish uchun nima qilishim kerak?» degandek yaxshiroq savol beradilar.

— Bilmadim, — dedi yigit. — Men savollarga emas, javoblarga muhtojman.

— Lekin agar sen to'g'ri javob topishni istasang, — dedi qariya, — avvalo to'g'ri savol berishing lozim. Injilda: «So'rang va sizga beradilar; izlang va topasiz», deyilgan.

— Bu yoqimli eshitiladi, lekin hayot unchalik oddiy emas.

— Sen qayerdan bilasan? Sen hech bo'lmasa, biror marta ham urinib ko'rganmisan? — deb so'radi qariya. — Balki hayot sen o'ylaganingdan ko'ra anchagina oddiyoqdir.

— U menga unchalik oddiy ko'ringan emas, — dedi yigitcha. Nimagaki qo'l urmayin, hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmaganman. Hamma narsani sinab ko'rdim, lekin nazarimda hech nima to'g'ri kelmaganday.

— Muammolarni yechishning asosiy qoidasini unutma, - dedi qariya.

— U qanday qoida?

— Senga barcha imkoniyatlarni qo'llab bo'lgandek ko'rinsa-da, aslida bu shunday emasligini unutma!

— Bu gap yaxshi-ya, lekin yana nima qilishim mumkinligini bilolmayman, — javob berdi yigit. — Men hech qachon boy bo'lmaganman va ochig'i, bundan keyin ham boy bo'lmasam kerak. Balki menda buning uchun zarur asos bo'lmasa kerak.

— Xo'sh, buning uchun senda bo'lmagan yana qanday narsa kerak ekan? — so'radi chol.

— Bilmadim. Avvalambor, pul qilish uchun pul topish zarur bo'lsa kerak.

— Bunday o'ylashga seni nima majbur etyapti? Bilasanmi, Aristotel Onasis o'zining faoliyatini 200 dollardan kamroq mablag' bilan boshlagan. O'shanda unda dorulfunun darajasi ham, boy qarindoshlari ham bo'lmagan, shunga qaramasdan, u yorug' olamda qachonlardir yashagan eng boy odamlardan biri bo'lib qoldi. Yigitcha yelkasini qisdi.

— Balki uning shunchaki omadi kelgandir, — dedi u.

— Ko'pchilik boy insonlar eng kam miqdordagi sarmoya bilan yoki umuman pulsiz ish boshlaganlar. Anita Roddik avtomobillariga pardozi berishni o'ylab topib, o'z pardozi kompaniyasini yaratdi. Bill Geyt, dunyodagi eng boy kishilardan biri, o'z mulkini kompyuter sanoatiga yangiliklar kiritish bilan ko'paytirdi. Entoni Robbins, mashhur yozuvchi va shaxsiy rivojlanish yetakchilaridan biri, kunlardan bir kun hech vaqosiz qoldi va kichkinagina kulbada yashadi, shunday bo'lsa-da, u bir yil mobaynida hayotini shunday burib yuborishga muvaffaq bo'ldiki, natijada millioner bo'lib ketdi va satxi 10 000 kv fut maydoniga ega, okeanga qaragan qasr sotib olishga erishdi.

Ularning muvaffaqiyatini sen haqiqatda omad samarasi deb o'

— Nima ham derdim, balki har doim ham shunday bo'laermagandir, — javob berdi yigit. — Lekin ba'zan baxtli voqealar ham bo'ladi-ku, to'g'rimasmi?

— Boylik to'play bilgan barcha insonlarda bitta muhim jihatni, ya'ni shaxsiy mas'uliyatni topasan. Ularning barchasi o'z harakatlari va qarorlari uchun javobgarlik seza-dilar. Ular o'z muammolari uchun iqtisodiyot yoki hukumatni, ob-havo yoki baxtsiz bolalikni ayblamaydilar. Boy insonlar baxtli voqealar yoki tasodifiy sharoitlarni kutib o'tirmaydilar, bularni ular o'zlari yaratadilar. Ular o'zlarini oqlash uchun bahona qidirmay, yechim topishga intiladilar. Ular muvaffaqiyatga erishishni o'zlariga burch deb hisoblaydilar.

— Ehtimol haqdirsiz, — dedi yigit. — Bilganim shuki, men hamisha moliyaviy tang ahvolni boshimdan kechirganman. Balki bu mening taqdirim bo'lsa kerak.

— Sen bu taqdirni o'zing yaratgansan, — dedi chol. — O'tmishda hech qachon boy bo'lmaganing bundan keyin ham boyimaysan degan ma'noni bildirmaydi. O'z hayotingdan muhim xulosa chiqarishing, ya'ni sening kelajaging o'tmishing kabi bo'lishi shart emasligini anglashing kerak. Agar sen doimiy qilib yurgan ishingni bajaraversanggina o'sha avvallari erishganingga yetaverasan.

Chol bilan yigit ko'l yoqasidan bog'ning shimoliy tomoniga qarab yurib borardilar. Ularning yonidan ikki kishi -yugurib o'tib ketdi. Havo sovuq edi, yuguruvchilar nafasidan issiq bug' taralardi. Yigit chol aytgan so'zlarning mag'zini chaqishga urinardi. Shubhasiz, xitoylik qariyaning gaplarida qandaydir ma'no bor edi. Shunday esa-da, bu hali uning uchun yetarli darajada ishontirarli emasdi.

— Pul qilish uchun senda pul bo'lishi mutlaqo shart emas, — tushuntirdi chol. — Senga boy qarindoshlar ham, dorilfunun darajasi ham yoki baxtli tasodif ham zarur emas. Boylikka erishishing uchun nimaiki kerak bo'lsa, senda ularning barchasi mavjud.

— Bu shunchalik oson, deb o'ylaysizmi, — so'radi yigit.

— Albatta. Buning uchun hech qanday omad shart emas. Sen ham o'z taqdiringni yaratish uchun har qanday boshqa odam kabi quvvatga egasan.

— Axir siz har qanday kishi boy bo'lishi mumkin, deb o'ylamaysiz-ku, — so'radi yigit.

— Albatta, o'ylayman. Shuni bilib qo'yginki, bu dunyoda ko'pchilik insonlar boydirlar, ular hatto o'zlari bu haqda bilmaydilar!

— Bu bilan nima demoqchisiz? Real boylik egasi bo'lgan odamlar bu haqda bilmasliklari mumkin emas, — dedi yigit.

— Shunday deb o'ylaysanmi? — dedi chol. — Ular haqiqatan ham bilmaydilar. Sening o'zing bunga yorqin misolsan. Sen o'z hisob to'loviaringni to'lashga qiynalayolganing uchun kambag'alman, deb o'ylaysanmi?

— Ha, lekin siz qanday qilib?.. — gap boshladi yigit.

— Uyingda toza vodoprovod suvi doim bor — bu, bir necha yuz yilliklar ilgari juda noyob hodisa edi, hozir ham ayrim joylarda kamyob hodisa bo'lib qolmoqda. Sening axborot olish imkonining bor, axborotning eng qimmatli manba

kutubxonalarga bora olasan, seni qiziqtirgan, istagan masala bo'yicha ma'lumot topasan, vaholanki, ko'pchilik odamlar bunga hozir ham erisholmaydilar. Sening qorning to'q, usting but, boshing uzra toming bor. Istagan odaming bilan hatto dunyoning narigi chekkasida bo'lsa ham bog'lanish imkonini beruvchi telefoning bor. Har kuni to'ppa-to'g'ri uyingga yangiliklar va ko'ngilocharliklar keltiruvchi televizoring bor. Bundan ellik yil muqaddam hech kim hatto nomini eshitmagan oziq mahsulotlarini sotib olishing mumkin.

O'tgan asrda insonga ma'lum bo'lmagan mashinalar, poyezd va samolyotlar — transportning barcha turlari seni hozir qurshab turibdi. Shu bois, ko'rib turganingdek, insoniyatning butun tarixi davomida yer sharini egallagan millionlarcha insonlar bilan taqqoslaganda o'sha odamlar qachondir orzu etgandan ham ko'ra sen badavlatroq va juda boysan.

— Pul — bu hali boylik emas, — davom etdi chol, — pulning borligi boylik miqdorini o'lchash uchun har doim ham xizmat qilmaydi. Umuman aytganda, pul hech qanday qimmatni tashkil etmaydi: allaqachon dunyodan o'tib ketgan insonlar tasviri tushirilgan qog'ozlar to'plami yoki tangalardan qanday foyda bor? Pulning yagona qadri shundaki, unga xarid qilish mumkin. Halokatga uchragan kemada yoki kimsasiz orolda qolgan inson uchun million funt sterling pulning oxir-oqibatda qanday foydasi bor? Har oylik maoshi olti xonali sonidan iborat bo'lgan, ishi yurishgan, lekin haddan ziyod yuklamalar tufayli bolalari bilan muloqotga vaqt topishga imkon topmaydigan biznesmennlning boyligini qanday baholash mumkin? Va kim boyroq — saraton xastaligidan o'layotgan millionermi yoki bankda bir chaqasi yo'q, ammo salomatligi a'lo bo'lgan kishimi?

Haqiqiy boylik hajmi to'g'risida sen kechirayotgan umr sifati bilangina hukm chiqarish mumkin. O'z shaxsiy umrini o'zi xohlaganicha yashashga qodir insongina haqiqatdan boydir, — dedi qariya.

Ular kichikroq chakalakzorga kirib qolishdi. Daraxt shoxlarida kurtaklar paydo bo'lgan, ularning rangiga qarab gullash davri yaqinlashganini bilish qiyin emas edi. Qisqa sukutdan so'ng yigitcha so'z boshladi.

— Lekin pul hayotning sifatini yaxshilashi mumkin-da, — dedi u.

— Agar uni aql bilan ishlatilsa — to'g'ri, mumkin, — tasdiqladi chol. — Lekin ko'pchilik pul barcha muammolarni hal etadi, deb o'ylaydi.

— Ha, men o'z muammolarimni yechgunimga qadar hali ko'p suvlar oqib ketadi, — jilmaydi yigit.

— Shunday deb o'ylashing mumkin, lekin, seni ishontirib aytamanki, bunday emas, — javob berdi qariya ma'noli boqib.

Bu tanbeh yigitni sergaklantirdi. Bu chol uning muammolari haqida nima bilardi, o'zi? Lekin u bu fikrini bayon etishga ulgurmasidan chol davom etdi:

— Sen million funt yutib olganingda nima qilar eding?

— Qarzlarimni to'lardim.

— Keyin-chi?

—Aytish qiyin. Avval o'z yaqinlarim va do'stlarimni taklif qilib, bazmi jamshid uyushtirardim. Keyin cho'milish havzasi va tennis korti bor yangi uy-joy, mashina, yangi televizor, yangi mebel sotib olardim. Keyin yaqin kishilarimni ta'tilga olib borardim va pullarimning bir qismini muhtoj bo'lgan do'stlarimga tarqatardim.

— Xo'sh, undan keyin-chi? — takror so'radi chol.

— Bilmadim, — tan oldi yigit. — Men bu haqda avval o'ylamagan edim.

— Sen hozir juda ko'pchilik — kunlardan bir kun boyib ketishni orzu qilgan odamlar aytadigan gapni aytding. Ammo sening javobingda Asl boylikka hech qachon erisha olmaydigan sabab yashiringan.

— Nimani nazarda tutmoqdasiz? — cholning gapini bo'ldi yigit. — Shunday odamlar borki, lotoreyadan yutib, bir kechada millioner bo'ladilar.

— Darhaqiqat, shunday, lekin ularning boyligi ko'pincha vaqtinchalik bo'lib chiqadi. Ulardan ko'plari o'z lotoreya chiptasini sotib olayotgan kundagi kabi cho'ntagida sariq chaqasiz holda umrlarini yakunlaydilar!

Yigit ishonqiramay boshini chayqadi.

— Bu to'g'ri, — ta'kidladi chol. — Bilasanmi, ular nima uchun yana kambag'allashib qoladilar? Chunki ular boylikni yaratishni ham, uni boshqarishni ham o'rganolmadilar. Oqibatda ularga nimanidir to'plash kam nasib etadi, boyliklarini qanday tasodifiy ravishda topgan bo'lsalar, shunday yo'qotadilar ham. Ular ajoyib o'simlikka ega bo'lgan kishiga o'xshaydilar: u esa o'simlik parvarishi haqida hech qanday tasavvurga ega emas — na unga zarur tuproqni, na iqlim sharoitini, na suv miqdori va hasharotlardan uni himoya etishi lozim bo'lgan choralardan bexabardir. U qandaydir bir muddat davomida o'simlik mevalaridan foydalanishi mumkin, ammo o'simlik tez orada so'liy boshlaydi va quriydi.

Lekin bu o'simlik tabiatini yaxshi o'rgangan odam unga nima kerakligini biladi. U bunday o'simliklarni urug'idan o'stirib parvarishlashni biladi. Bu o'simlikning qanday ko'rinishda bo'lishidan xabardor, shu bois qancha kerak bo'lsa, shuncha miqdorda o'sтира oladi.

Boylik ham ana shu o'simlikka o'xshash ajoyib narsa. Hammamiz uni yetarli miqdorda yaratish quvvatiga egamiz, ammo uni yaratish va u bilan muomala sirlarini o'rganib olishimiz darkor.

Har qanday pul, agar u bilan qanday muomala qilishni bilmasak, hech vaqo bermaydi. Sen sho'x o'gil haqidagi voqeani eslaysanmi?

Bu tanish voqea yigitning qulog'iga issiq kirsa-da, uning barcha tafsilotlarini xotirlay olmadi.

— Bir badavlat yer egasining ikki o'g'li bo'lib, kichigida otasining ishini o'rganishga hech qanday intilish bo'lmadi. U sayohat qilish maqsadida otasi dvlato'zida tegishli merosni talab qildi. Otasj o'g'uning bu qilig'idan ranjisa-da, uning meros ulushini ajratib, ketishiga ruxsat berdi. U puliga yaxshi narsalar sotib oldi va do'st-yorlari ichida kuyf safo qilib

xursandchilikda kunini o'tkazdi, ko'p o'tmay puli tugadi. Egnida kiyib ketgan kiyimidan boshqa cho'ntagida bir mirisi qolmagan holda, shumshayib otasining yoniga qaytib keldi.

Sho'x o'g'il o'z sayohatini katta boylik bilan boshlagan bo'lsa-da, undan qanday qilib daromad olishni o'rganmagani sababli hazinasini tezda yo'qotdi.

Hamrohlar bog'ning daraxtzor qismi poyoniga yetib, baland tepalik tomon zinagacha davoni etgan so'qmoq yo'lga qarab burildilar.

—Ko'rib turganingdek, boylik — bu inson egalik qilishi zarur bo'lgan shunchaki sarmoya emas, — dedi qariya. — Tez orada sarmoyaning barakasi uchishi mumkin. Boy bo'lish uchun sen avvalo, o'zing tilaganini hayot tarzini yetarli mablag'ga ega bo'lishing kerak.

— Bunga qanday erishish munikin? — so'radi yigit.

Qariya jilmaydi.

— Avvalo, sen bu olam va undagi barcha narsalar qonunlarga bo'ysunishini anglab olishing kerak, — deb tushuntira boshladi chol. — Ko'plari yaaxshi ma'lum bo'lgan tabiat qonunlariga. Masalan, fizikadan yerning tortish kuchi qonuni to'g'risida shuni bilamizki, olmani irg'itib yuborsak, u albatta yerga qaytib tushadi. Kislorodsiz sayyoramizda hayot bo'lmasligini ham bilamiz. Lekin yana ko'p qonunlar mavjudki, — ulardan ba'zilar Haqiqiy ikka erishishga taalluqli, — ular unchalik yaxshi ma'lum emas va ko'pchilik odamlar uchun sir bo'lib qoladi.

Ular tepalikka chiqayotib, yarim yo'lga yetayozganlarida yigit hansirab, nafasi tiqilib qoldi, yonma-yon ketayotgan qariya esa hech qiynalmay so'zida davom etib borardi. Ular tepalikka yetganlarida yigit cholga o'girilib qaradi.

— Xo'sh, — so'radi u nafasini roslab olib, — bu sir nimadan iborat ekan?

— Haqiqiy Boylik sirlari, barcha tabiat qonunlari kabi, har bir inson uchun taalluqlidir. Sen bajarishing kerak bo'lgan narsa — bu tegishli odamlarga berilishi zarur bo'lgan muhim savollarni berishning o'zginasidir. Mana buni ol, senga yordam beradi, — deya chol yigitga buklangan qog'oz varag'ini uzatdi.

Yigit shoshgancha uni ochdi-yu, lol qoldi. Qog'ozda hech qanday sir, hech qanday dono so'z va afsun bitilgan yozuv yo'q edi. Bu shunchaki o'nta ism va o'nta telefon raqami yozilgan ro'yxat edi. U qog'ozdan ko'z uzib qaraganida, chol uning yonidan g'oyib bo'lgandi.

Yigit chor atrofga qaradi, itini sayrga olib chiqqan ikki kishidan bo'lak hech kimni ko'rmadi.

— Kechirasiz, — dedi yigit ularga yaqinlashar ekan. — Hozirgina yonimda ketayotgan cholni ko'rmadingizmi?

Yoshi anchaga borib qolgan erkak bilan ayol javob berishdan avval bir-biriga qarab olishdi.

— Sizning yoningizda birov borligini men ko'rmadim, — dedi erkak. — Sen-chi, Etel? — hamrohiga yuzlanib murojaat qildi u.

Yonida ketayotgan ayol boshini chayqadi.

— Yo'q, — dedi u.

- Lekin siz uni — qora sport kiyimidagi kekxa xitoylik kishini albatta ko'rgan bo'lishingiz kerak, — deya yigit yana ta'kidladi.

— Kechirasiz, — takrorladi erkak. — Men yoningizda hech kimni ko'rmadim.

Yigit chol bilan yurgan yo'ldan ortiga asta qayta boshladi. Chol bir zumda qayoqqa g'oyib bo'lganini yigit ang'lay olmasdi. Va nima uchun itini sayrga olib chiqqan kishilar uni ko'rmadi ekan?

Balki buning hammasini o'ylab topgandir, balki bog'ni aylanib yurganida unga shunchalik ko'ringandir? Lekin kissasiga qo'lini kiritishi bilan bu xayol emasligini, chol haqiqatan u bilan birga bo'lganini tushundi. O'nta ism va o'nta telefon raqami yozilgan bir parcha qog'oz buning isbot-u dalili edi.

Birinchi sir

ANGLAB YETILMAGAN E'TIQOD KUCHI

Yigit uyiga kelib, chol yozib bergan barcha telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilib chiqdi. Birinchi qo'ng'iroq qilishdan avval, yigit butunlay notanish kimsadan sirli kekxa xitoylik bergan bu raqam va ism to'g'risida odamlar qanday munosabat bildirar ekanlar, deya taysallab turdi. Lekin uning xavotiri o'rinsiz bo'lib chiqdi, chunki ularning hammasiga kekxa xitoylik va Haqiqiy Boylikning sirlari ham ma'lum edi. Buning ustiga, uning qo'ng'irog'i o'sha kishilarning har birida mislsiz quvonch uyg'otganday tuyulardi. U yaqin haftalar ichida ularning har biri bilan navbatma-navbat uchrashishga kelishdi.

Ro'yxatda birinchi bo'lib Richard Epplbi ismli kishi tulardi. Ishi nihoyatda ko'p va vaqti tig'izligiga qaramasdan, janob Epplbi ertasi kuni soat 5 larda unga vaqt ajratishga mamnuniyat bilan rozi bo'ldi.

Janob Epplbi shaharning eng yaxshi joylaridan birida yashardi. Yigit mehmonxonaga kirishi bilan shaharning botayotgan quyosh nurlaridagi go'zal manzarasini ko'rib, lol qoldi. Xonaning janub tomonidagi devori to'rt tavaqali derazadan iborat bo'lib, undan g'oyat ajib ko'rinish ochilardi. Ufqda botayotgan quyosh qahrabo rangga kirgan nurlari shaharning ma'muriy binolar chiroqlari, ko'cha yoritgichlari va mashinalardan taralayotgan shu'la bilan uyg'unlashib, chor atrofni yoritib tulardi.

— Bag'oyat, go'zal ko'rinish, — hayratini yashirolmay dedi yigit. — Men shaharni shunday ta'sirli tarzda hech ko'rmagandim.

— Shunday emasmi? — jilmaydi mister Epplbi. — Ayni ana shu ko'rinish tufayli men bu uyni sotib olganman. Sutkaning istagan mahalida shu yerda o'tirib, soatlab shaharni tomosha qilish mumkin.

Yigit suhbatdoshiga diqqat bilan nigohini qaratdi. Unga ellik yosh berish mumkin edi. Bu bo'yi uncha baland bo'lmagan pahlavon sumbatli, sochlari sariq va tiniq moviy ko'zli kishi edi.

Uning kiyimlari asl bo'lsa-da, pala-partishroq ko'rinardi. Egnida och jigarrang paxtalik shimi va yoqasi ochiq oq ko'ylak kiygandi.

— Demak, sizni Haqiqiy Boylik sirlari qiziqtiradimi? — deb gap boshladi u, yigit o'tirganidan so'ng.

— Siz ular haqiqatda mayjud deb o'ylaysizmi? — so'radi yigit.

— Albatta, — javob berdi mister Epplbi.

— Xo'sh, bu sirlar nimalardan iborat ekan?

— Bu shunchaki eskirmaydigan o'nta tamoyil, agar ularga rioya qilinsa, har qanday kishiga oddiy boylik emas, tuganmas boylik yaratishga imkon beradi.

— Har qanday kishiga? Siz bunga aminmisiz? — qayta so'radi yigit.

— Mutlaqo aminman, — tasdiqladi janob Epplbi.

— Lekin agar har bir kishi boy bo'lish qobiliyatiga ega ekan, nima uchun shunday ko'p kishilar yashash uchun doimiy tarzda kurash olib boradilar?

— Inson shunday qobiliyatga ega ekanligi uncha muhim emas, — javob berdi janob Epplbi. - Muhimi, inson o'shanday qobiliyatga ega ekanligiga ishonishida. O'rtamiyona odam aqli va gavdasi buyuk ishlarni bajarishga layoqatli, asosiy muammo shundaki, biz layoqatga ishonmaymiz.

Bundan ko'p yillar muqaddam men bir tomosha ko'rgandim, gipnotizyor zaldan odamlarni tanlab, gipnoz qilardi. U kishini stolga yotishni so'rab, uni gipnoz holatiga kiritardi va uning gavdasi qattiq va po'latdek bukilmaydigan bo'lib qolganini uqtirardi. Shundan keyin ikkita stul qo'yib, stolda yotgan kishining boshini, ikkinchisiga oyog'ini qo'yardi-da stolni sulardi. Gipnoz holatiga kirgan kishi qattiq ishongani uchun shunday holatda yotaverar, gavdasi po'latdek qattiq edi.

Keyin sahnaga boshqa kishilar chiqdi, ularga stolda yotgan qalamni ko'tara olmaydilar, deb uqtirdi. Bu qalam, dedi gipnozchi, ikki tonnalik yuk mashinasidan ham og'ir. Uni joyidan qo'zg'atish amri mahol. «Qani, urinib ko'ring-chi, — taklif qilardi u, — lekin bu qalamni olish mumkin emas».

Odamlar birin-sirin qalamni olmoqqa urinardi. Ayniqsa, ulardan biri — katta, alp qomatli pahlavonga o'xshash kishi xotiramda qolgan. U qalamni olmoqchi bo'lganida yuzlari burishib, peshonasi ter bosib, bilagidagi mushaklari qattiq tortishib, hatto tomirlari bo'rtsa-da... qalamni joyidan qo'zg'ata olmadi! Qalamni yosh bola ham olishi mumkin bo'lsa ham, uni qo'zg'ata olmaganiga sabab shuki, u ana shu qalamni ko'tara olishiga ishonmadi. Gipnozchi uni shunga ishontirgan edi.

Ko'rib turganingizdek, muhimi hayotda nimagadir yetisha olishda emas, balki shunga yetishishga ishonishingdadir.

Bu Haqiqiy Boylikning birinchi siri... bizning anglab yetilmagan e'tiqodimiz kuchidir.

— Anglab yetilmagan e'tiqod kuchi? — takrorladi yigitcha. — Biz ishongan narsaning turmushimiz, yaxshilanishiga qanday ta'siri bo'lishi mumkinligini tushunolmaymiz.

— Agar sogʻlom, mutanosib gavdali odam ishonchi-yu ixlosi boʻlmagani sababli qalamni koʻtarolmagan boʻlsa, sizningcha, boy boʻlishni orzu qilgan kishi, agar buning amaliy jihatdan iloji yoʻqligiga amin boʻlsa, qanday imkoni qoladi?

Oʻn besh yil burun ishlarim yaxshi borardi. Men oʻzimni toʻla taʼminlangan hisoblardim, ishlarimga toʻgʻanoq boʻluvchi biron-bir muammo bezovta qilmasdi, lekin bir kuni hech kimga keraksiz boʻlib qoldim, barcha daromadlardan, yashash uchun zarur barcha mablagʻ turlaridan ayrildim. Men nima qilishni mutlaqo tasavvur ham qilolmasdim, kechasi uxlayolmay, daryo yoqasida sayr qilish uchun chiqdim. Oʻsha yerda butun hayotimni oʻzgartirgan kishiga duch keldim... keksa xitoylikni uchratdim!

— Xoʻsh, shunday qilib, nima roʻy berdi? — betoqatlik bilan soʻradi yigit oʻsha qariya haqida iloji boricha koʻproq bilishga intilib.

— U menga bir gap aytdi, uni bir umrga eslab qoldim. «Har qanday omadsizlik oʻzida shunday miqdorda yoki hatto undan-da kattaroq omadni vujudga keltiradi».

— Menga ham xuddi shuni aytgan edi, — tasdiqladi yigitcha.

— Oʻshanda men buni tushunmagan edim, — tan oldi janob Epplbi. — Ishdan va daromadning yagona manbaidan ayrilib, meni ogʻir sharoitga solib qoʻygan holat oxir-oqibatda qay tarzda menga qandaydir foyda keltirishi mumkin? Lekin ortimga nazar tashlab, boshimdan kechirgan voqealar ichida bu eng yaxshisiligini koʻrib turibman, chunki mening holatimdagi noilojlik oʻz holatimni oʻzgartirishga majbur qildi — usiz men hech qachon bunga jurʼat eta olmasdim.

Men doimo oʻz shaxsiy biznesim boʻlishini va oʻzimga oʻzim xoʻjayinlik qilishni istardim va keraksiz boʻlib qolganim oʻz rejalarimni amalga oshirish uchun menga imkon berdi. Haqiqiy Boylik sinoatlarini oʻrganib, men oʻz uyimda menejment boʻyicha maslahatlar bera boshladim va birinchi yilning oʻzidayoq avvalgi ishimda ishlab topishim mumkin boʻlgan mablagʻdan ikki barobar ortiq daromadga ega boʻldim.

— Hazillashyapsizmi? — dedi yigit. — Sizning muvaffaqiyatga erishishingiz Haqiqiy Boylik sirlarini bilishda, deb uqtirmoqchimisiz?

— Mutlaqo toʻgʻri, — tasdiqladi janob Epplbi. — Oʻtgan asrning amerikalik ruhshunos va faylasufi Uilyam Jeyms aylgandiki, uning avlodi kashf etgan ulugʻ kashfiyot shundan iboratki, odamzot oʻz aqlining holatini oʻzgartirib, oʻz hayotini oʻzgartiradi. Bu chin haqiqat. Oʻz hayotingizda nimani istasangiz — bu salomatlik yo baxt boʻladimi, muhabbat yoki boylikmi, — birinchi qiladigan ishingiz — bu nimaning imkoniyati bor va yoʻqligiga nisbatan oʻz munosabatingiz va ishonchingizni diqqat bilan koʻrib chiqishingiz kerak.

Yigitcha yon daftarchasi va ruchkasini oldi.

— Men bir necha yozuvlarni qayd etsam, qarshilik qilmaysizmi? — soʻradi u.

— Albatta, qarshiligim yoʻq. Bu yaxshi fikr, — jilmaydi janob Epplbi. — Agar birgina kasallik bilan ogʻrigan yuzlarcha kishilarga oddiy qanddan iborat hapdori berib, ularga shu dori xastalikni davolovchi ajoyib xususiyatga egaligini aytilsa, qira foiz hamonlar faqat oʻsha xapdori ularni davolasj mumkinligiga ixlos qilgani sababl

ma'lummi? Shu tariqa tuzalmaydigan xastalikka duchor bo'lganlari to'g'risida xabar topgan chog'ida ko'pchilik bemorlarning ahvoli to'satdan yomonlashadi. Ulilar xastalikdan tuzalmasligiga shunchaki ishona boshlaydilar.

Ayting-chi qanday fikirdasiz, agar siz mutlaqo jozibador emasligingizga ishonchingiz komil bo'lsa, sevgilingizni o'zingizga mahliyo eta olasizmi? Odamlar orasida va har qanday davrada o'zingizni noqulay sezasiz va iloji boricha hech kim payqamaydigan bo'lishga harakat qilib, biror-bir burchakka berkinib olasiz. Hatto bironta ayolga jozibali ko'rinsangiz-da, o'zingizni unga nisbatan yetarlicha nomunosib deb hisoblaysiz.

Ko'rib turganingizdek, hayotning barcha jabhalarida g'ayriixliyoriy e'tiqodimiz eng katta o'rin tutadi. Va ular boshqa hech joyda pul va boylik bilan bog'liq masalalardagi kabi muhim o'rin tutmaydi.

Siz ishlab topayolgan mablag' miqdori, sizning ishonch-e'tiqodingizga to'ppa-to'g'ri muvofiq keladi.

— Bir daqiqaga to'xtang, — dedi yigit, — men...

— Siz hozir olayotgan maoshingizdan ko'ngliningiz to'qmi? — so'radi janob Epplbi.

— To'g'risini aytsam, yo'q, — javob berdi yigit

— Bo'lmasa nima uchun lavozimingizni balandlatishlarini so'ramaysiz?

— Chunki uni olishga ko'zim yetmaydi.

— U holda, bu haqda so'ramasangiz, kattaroq lavozim olishingiz mahol-ku, — dedi jilmayib janob Epplbi.

— Bu to'g'riku-ya, — ma'qulladi yigit. — Lekin ular maoshimni oshirishga nima sababdan rozi bo'lishlari mumkin.

— Agar siz qimmatliroq xodim bo'lsangi sizga to'layotgan maoshdan ko'ra ko'proq maosh to'laydilar. Lekin siz hozirgi maoshingizdan ko'ra qimmatliroqligingizga o'zingiz ishonmasligingiz aniq. O'tgan haftada men ishga olmoqchi bo'lgan bir odam bilan suhbatlashdim. Men unga 40 ming fund to'lamoqchi edim. U yuksak darajaga ega mutaxassis bo'lib, unga taklif etilgan lavozim uchun mos edi. Lekin men undan qancha maosh olishni istashini so'raganimda, u 20 ming funl dedi.

Yigit daftarchasiga nimalarnidir yozib oldi, janob Epplbi esa davom etardi.

— Sizning sharoitingiz — ishoch-e'tiqodingiz oynasi. Agar siz qachondir boy bo'la olishingizga ishonmasangiz, demak shunday bo'lishi anig'u ravshan. Aslida boy va kambag'al kishilar orasidagi eng katta farq ularning bankdagi hisoblarida qancha mablag' borligi yoki ular mulkida emas.

— Bo'lmasa, nimada? — so'radi yigit.

— Ularning e'tiqodida! Hamma boylar o'zlari haqida va pullari to'g'risida o'zida xos e'tiqodga egalar.

— Aytmoqchisizki, boylar boylik yaratish layoqatlari borligiga qat'iy ishonadilar

— Ha, — javob berdi janob Epplbi. — Lekin ularning ishonchlari ancha chuqurroq. Hozir sizga buni tushuntirishga urinib ko'raman. Sizning ongli aqlingiz boylik yig'ishga intilayotgani ko'rinib turbdi, yo'qsa, bu yerga kelmasdingiz.

— To'g'ri, — jilmaydi yigitcha.

— U holda aytingchi, siz nima uchun boy bo'lishni xohlaysiz? Sizning fikringizcha, Haqiqiy Boylik hayotingizga nima qo'shadi? Yigit bir daqiqa o'ylanib qoldi.

— Boylikning mavjudligi erkinlik keltiradi — xohlagan tomonga borish, istagan ishni bajarish ko'nglimdagini sotib olish erkinligini. U menga kuch, ishonch va mustaqillik beradi. Men o'z shaxsiy biznesimni boshlashim mumkin bo'lardi.

— Yaxshi, — dedi janob Epplbi. — Demak, pu sizga ko'proq erkinlik, kuch, ishonch va mustaqillik keltirishiga ishonchingiz komil?

— Albatta, — javob berdi yigilcha.

— Lekin, ko'pchilik odamlar sizga xuddi shunday javob berishi mumkin edi. Pul hayotimizni o'zgartirishiga barchamizning ishonchimiz komil, — deya so'z qo'shdi u.

— Shoshmang, biz hali mashqimizni tugatmadik, — dedi janob Epplbi. — Endi siz o'sayotgan chog'da pul va boylik to'g'risida nimalar eshitganingiz haqida o'ylab ko'rishingizni istardim.

— Nimani nazarda tutayotganingizni anglamayapman, — dedi yigit.

— Ota-onangiz pul haqida qanday tarzda gapirishar edi?

— Endi tushundim. Otam doim pul daraxtda o'smaydi, deganini xotirlayman.

— Yaxshi. Yana nima?

— Oham pul hamma narsani hal qilmaydi, u baxt keltirmaydi, unga muhabbatni sotib olib bo'lmaydi deyishni yoqtirardi.

— Juda yaxshi. Yana nima? Dinning pulga munosabati haqida nima deya olasiz?

— Nimani nazarda tutyapsiz? Pul — har qanday zulmning ildizi ekaninimi? — so'radi yigit.

— Ha, xuddi shuni doimo eshitishga to'g'ri keladi, to'g'risi, o'ylaymanki, biz hali zulmning manbai pul emas, pulga o'chlik ekanini bilishga imkonimiz bo'ladi.

Yigit lol qoldi. U katta bo'layotganda pul haqida bilgan barcha ma'lumotlari salbiy ekan. Puli borlik — bu ham yetarli emas, pul hayotda unchalik muhim emas va unga muhabbatni sotib olib bo'lmasligiga ishonishga o'rgatishgan. Yana pul uning egasining ruhi jannatga tushishiga halaqit beruvchi zulm ekan.

— Endi ko'rib turibsizki, bu anglab yetilmagan e'tiqodingiz sizning ongli e'tiqodingizga qanchalik qarama-qarshi ekan. Bir tomondan siz pul erkinlik, o'zida ishonch, kuch va mustaqillik keltiradi, deb hisoblaysiz, ikkinchi tomondan — qalbingiz tubida siz boylik to'plab, bebaxt, bemuhabbat bo'lishingiz va gunohga botib, sizga jannat yo'llari berkilishiga aminsiz. Demak, sizning anglab yetilmagan e'tiqodingiz boy bo'lishingizga halaqit beradi.

— Men avvallari hech qachon bu haqda o'ylamaganman, —

Lekin shuningdek, boshqa e'tiqodlar ham bor, — davom etdi janob Epplbi. — Shunday kishilar borki, ular katta pul olishga loyqliklariga ishonmaydilar. Boshqalari boy bo'lish yomon yoki axloqsizlik deb hisoblaydilar.

Agar boshqalar bunday boy bo'lolmasalar, men qanday qilib boy bo'lishim mumkin? Muammo shundaki, agar bunday savollarga javob topib berolmasangiz, ularga qarshi turolmaysiz. Siz boshqalarga ibrat ko'rsatib, ularda yashirin imkoniyatlarini safarbar etishlari uchun ilhom uyg'otib yordamlashasiz.

— Bizning anglab yetilmagan ishonchu e'tiqodimiz — qudratli kuch, — ta'kidladi janob Epplbi. — Ular hayotimizdagi barcha narsalarga ta'sir ko'rsatadilar. Eng mashhur, siyqasi chiqqan fikrlardan birini yigirmanchi yuz yillikning buyuk tadbirkorlaridan biri bo'lgan Klement Stoun birinchilardan bo'lib ifodalagan edi, — dedi u va yigitchaga! «Aql yetgan va o'zi ishonadigan barcha narsaga yetishish mumkin» degan yozuv bitilgan nishonni uzatdi.

— Nima demoqchi bo'lganingizni angladim, — dedi yigit. — Lekin nazarimda anglab yetilmagan e'tiqodlarni o'zgartirish oson emas.

Janob Epplbi jilmaydi.

— Sizning so'zlaringiz o'z-o'zidan sizdagi quvvatni yo'qotadigan e'tiqodingizning salbiyligiga yorqin misoldir. O'z anglab yetilmagan e'tiqodlaringizni o'zgartirish mushkulligini aniq bilasizmi?)

— Him... yo'q, lekin...

— Klement Stounning «Aql yetgan va o'zi ishongan barcha narsaga yetishish mumkin» degan so'zlarini bir umr yodda tuting. Siz o'z e'tiqodingizni tanlash quvvatiga egasiz.

— Lekin qanday qilib? — so'radi yigit.

— O'ziga ta'sir ko'rsatib, ixlos qilish — o'z-o'ziga takror uqtirishga asoslangan oddiy texnika.

— O'zingizga uqtirish qanday qilib sizning anglab yetilmagan e'tiqodingizga ta'sir qiladi? — yana savol berdi yigit.

— Siz tez-tez takrorlaydigan har qanday tasdiq yoki uqtirish oxir-oqibatda sizning beixtiyor ongingizga kiradi, — tushuntirdi janob Epplbi. — Axir o'z e'tiqodlaringizning ko'pini aynan ana shu tarzda o'zingizga olgansiz.

Nimalardir haqida qayta-qayta gapirilaversa, oxir oqibatda bu sizning ongingizga o'rnashib, o'zingiz ham shunga ishonch hosil etishingizni eshitganmisiz?

Yigit yon daftarchasiga yana nimalarnidir yozib oldi.

Janob Epplbi davom etardi:

— O'z-o'ziga uqtirish ko'magida pul va boylikka tegishli ijobiy munosabat yoki e'tiqodni yaratishingiz kerak. Birinchidan, eski aks ta'sirli e'tiqodlarni to'la o'zgartirish. Pul — kamyob narsa va u sizda hech qachon ko'p miqdorda bo'lmaydi degan ma'nani anglatuvchi «Pul daraxtda o'smaydi» deb ta'kidlash o'rniga: «Ha, ʔ

mening aniq, puxta rejalashtirgan harakatlarim natijasida ortib boradi» degan ma'qulroq. «Pul — baxt-saodat keltirolmaydi» deyish o'rniga: «Balki pul baxt-saodat keltira olmas, ammo uning yo'qligi undanda ortiqroq darajada baxt-saodatni keltirmaydi!» deb ayting. Yoki, «Pul — zulm manbai» so'zlari o'rniga «Pulga o'chlik zulm manbai, lekin yaxshi qo'llarda pul buyuk yaxshilik va saxovat manbai» deb almashtiring.

Bunga «Boylik kuch, erkinlik va o'ziga ishonch keltiradi» yoki «Men bitmas-tuganmas boylik yaratishga qodirman» degan tarzda o'z ijobiy ta'kidlaringizni qo'shing. Shu tariqa o'zingizga taalluqli hamda pul va boylikka tegishli anglab yetilmagan e'tiqodlaringizni o'zgartira boshlaysiz.

Yigit o'z yon daftaridan nigohini uzib, suhbatdoshiga qaradi:

— Bu o'zida uqtirishni necha marta takrorlash zarur, deb hisoblaysiz? — so'radi u.

— Imkon qadar tez-tez takrorlagan ma'qul, — dedi janob Epplbi.

— Bir kunda kam deganda uch mahal: birinchi bor erta bilan uyg'onganingizda, yana bir bor kun davomida va yana uyqu oldidan ham takrorlash kerak.

Yigitcha nimaniki eshitsa, shuni yodidan ko'tarmasligi uchun hafsala bilan o'z yon daftarchasiga qayd etib borardi.

— Siz e'tiqodingizga ko'ra qilishingiz mumkin bo'lgan ish, — davom etdi janob Epplbi, — ko'pincha aynan siz bajarishingiz kerak bo'lgan ish bo'lib chiqadi. Keyin u o'z stolida ramkaga solib qo'yilgan quyidagi matnni ko'rsatdi:

Agar sizni urishlaridan qo'rqsangiz, o'zingizni kaltaklangan deb hisoblang.

Agar siz buni qilishga botinolmayman, deb o'ylasangiz, siz hech qachon botinolmaysiz.

Agar sizga g'alaba qilish yoqsa-da, yengib o'tolmayman, deb o'ylasangiz, hoynahoy siz yengilasiz.

Agar siz yutqazaman, deb hisoblasangiz, siz yutqazdingiz.

Chunki butun jahonda biz ko'ramizki, muvaffaqiyat inson irodasidan boshlanadi — hammasi aqlning holatiga bog'liq.

Agar sizni orqada qoldirib ketishayapti, deb hisoblasangiz, bilingki, bu xuddi shunday, Sizning fikrlaringiz siz ko'tarda olishingiz uchun baland uchishi zarur.

Kimki kuchli va kimki ildamroq bo'lsa hayotiy kurashlarda har doim ham g'alaba qozonmaydi.

Ertami kechmi g'alabaga erishadi!

— Bu satrlar ilhomlantiradi, — dedi yigitcha. -Ularni ko'chirib olishimga ruxsat berasizmi?

— Bajonidil, — jilmaydi janob Epplbi. — O'ylaymanki, Ralf Uoldo Emersonning bu so'zlari sizga yoqadi, — deya u yigitga qog'ozni uzatdi. — Bu mening ilk o'z-o'zimga uqtirishim va nimaga erishish mumkinligini mening yodimga solib turishi uchun uni doim yonimda tutaman.

Qog'ozning orqa tomonida shunday yozuv bor:

Kimki g'alabaga ishonsa, u g'alaba qozonadi!

Kechqurun yigitcha janob Eppibi bilan uchrashuv chog'ida qayd etgan yozuvlarini qayta o'qib ko'rdi:

Haqiqiy Boylikning birinchi siri — anglab yetilmagan e'tiqodlar kuchidir.

◆ Odamlar nimaga qodir bo'lsalar, shunga erishmaydilar. Ular o'zlarining fikricha, yetishishlari mumkin bo'lgan narsaga erishadilar.

◆ Bizning barcha hayotiy sharoitlarimiz — bizning anglab yetilmagan e'tiqodlarimiz aksidir.

◆ Odamlar, o'zlarining fikricha, qancha pul topishlari mumkin bo'lsa, odatda, shuncha miqdordagi pulni topadilar. Biz anglab yetilmagan e'tiqodlarimizni o'z-o'ziga ta'sir o'tkazish yordamida o'zgartira olamiz.

◆ Aqlimiz yetadigan va ishonchimiz komil bo'lgan hamma narsaga erishish qudratiga egamiz!

◆ O'z g'alabasiga ishbngan kishigina g'alaba qozonadi!

Ikkinchi sir

HAMMADAN USTUN KELGAN XOHISH KUCHI

Ertasiga yigit shahardan oltmish chaqirimcha shimolda joylashgan chog'roq qishloqqa ro'yxatda keltirilgan ikkinchi odam, Rupert Kammings bilan uchrashish uchun jo'nadi. Bir soat yo'l yurgandan so'ng, u katta imorat darvozasi oldiga keldi. Mayda shag'al sepilgan xiyobon, bo'ylab borar ekan, yigitcha bog'ni qurshagan ajoyibotlardan zavqlanishdan o'zini tiyo'lmasdi. Uy oldidagi 500 kvadrat metrdan kam bo'lmagan maydondagi o't shunday hafsula bilan tekis qaychilangan ediki, u golf o'yiniga moslangan o'tloqni eslatardi. O'tloq o'rtasida baland kedr daraxti o'sgan, uning atrofida och-sariq gullar yashnab tular, bog' esa ko'm-ko'k butalar bilan o'ralgan edi.

Xiyobon yo'lakchasi uch delfin ko'rinishida favvorali, nilufar gullari yashnagan hovuzning yonidagi imorat tomon olib borardi. Binoning o'zi chirmovuqlar bilan qoplanib, ularda ilk bahorning birinchi chechaklari, pushtirang g'unchalar paydo bo'la boshlagandi. Yigitcha xiyobon poyoniga yetayozganda, uy tomonga boradigan yo'lkachada paxtali ish kiyimidagi va boshiga katta soyabonli shlyapa kiygan odam arava itarib kelayotganini ko'rindi. Bu baland bo'yli, yuzining och zahil rangini kulrang kumushsimon paxmoq soqoli! to'sgan erkak edi. Yaqinroq kelib, ko'zoynagini yechgach, yigit uning ravshan moviy rang ko'zlarini ko'rdi.

— Sizga qanday foydam tegishi mumkin? — murojaat etdi u yigitga.

— Men janob Kammingsni ko'rmoqchiydim, — javob berdi u. — U meni kutayotgan bo'lsa kerak.

— Bu men. Ahvollaringiz qanday? — kishi yigitga qo'lini cho'zdi.

— Ee... rahmat...yaxshi, — deya duduqlandi yigitcha janob Kammingsning qo'lini siqib turib.

— Qanday ajoyib kun. Tashqarida o'tirsak bo'ladimi? — so'radi janob Kammings.

— Albatta, — javob berdi yigit.

Janob Kammings yigitni uy orqasidagi bog' tomon boshladi, ular boqqa kirganlarida, yigitning ko'zlariga shunday manzara tashlandiki, hayratdan hatto nafasi ichiga tushib ketdi. Agar uy oldidagi o'tloq go'zalgina bo'lsa, uning orqasidagi bog' g'oyat ajoyib, hayratomuz manzarani kashf etar edi. Ikki tomoni yam-yashil o'tlar bilan ko'kargan, shag'al sepilgan yo'lka o'tloqqa borib tutashardi. O'tloqning o'zi anvoyi chechaklar yashnagan gulzor bilan o'ralgandi.

Erkaklar bog' ichidagi ayvonchada joylashgan oq emal bilan qoplangan cho'yan stol atrofiga joylashdilar. Bir daqiqadan so'ng patnis ko'targan xizmatchi yaqinlashdi.

— Choy ichasizmi? — so'radi janob Kammings yigitdan.

— Mayli, rahmat, yomon bo'lmasdi, — javob berdi u.

Janob Kammings choy quyar ekan, yigit xitoylik qariya bilan uchrashuvi to'g'risida qisqacha qilib so'zlab berdi.

— Haqiqiy Boylik sirlarimi? — dedi janob Kammings. — Ha, albatta, men ularni bilaman. Nimagaki erishgan bo'lsam ana shu sirlar tufayli erishganman.

— Ulardan qay biri tufayli? — so'radi yigit.

— Ularning barchasi birdek muhim va mening shu darajaga yetishishimga hammasi yordam bergan, lekin hozir ortimga qarab ko'rsam, fikrimcha, eng zaruri — bu hammadan ustunroq kelgan xohish kuchidir.

— Xohish? — takrorladi yigit. — Lekin axir har bir kishi boy bo'lishni istamaydimi?

— Siz shunday deb hisoblaysiz, to'g'rimi? — javob berdi janob Kammings. — Aslida juda kam odamda boy bo'lish istagi bor, hammadan ustunroq bo'lish xohishi to'g'risida aytmasa ham bo'ladi.

— Tushunmayapman, — dedi yigit. — Nima uchun kimdir boy bo'lishni istamasligi mumkin?

— Keling, bir boshdan boshlaymiz, — dedi janob Kammings.

— Inson harakatlarini yuzaga keltirishga og'riqni sezish yoki biron narsadan qanoat hosil qilishlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizga halovat bag'ishlovchi nimadir haqida o'ylaganimizda biz unga ega bo'lishni istaymiz, nimadir bizga og'riq keltiradi, deb hisoblaganimizda, biz undan naribroq bo'lishga harakat qilamiz. Fikrimga qo'shilasizmi?

Yigit bosh silkidi.

— Men bunga to'la qo'shilaman, — dedi u. — Lekin boylikning mavjudligi huzur bag'ishlaydi, shunday emasmi?

— Ha, xuddi shunday. Yoki, balki shunday bo'lishi mumkin. Ammo ko'p kishilar pul va boylikning mavjudligi og'riq keltiradi, deb hisoblaydilar. Siz endi g'ayriixtiyoriy e'tiqodlar kuchi haqida xabardormisiz?

Yigit yana bosh silkidi, lekin bu safar hech nima deb javob bermadi.

— Demak, ayrim odamlar pulning mavjudligi o'zida xos og'riq keltiradi, deb hisoblashlaridan boxabarsiz. Shundaylar borki, ular oqibatda do'stlarining munosabatlari o'zgarishidan cho'chiydilar, boshqalarini boylik bilan birga keluvchi mas'uliyat xavotirga soladi. Ba'zan odamlarni soliqlar tahlikaga qo'yadi yoki boshqalar ularga qandaydir talablarni qo'ya boshlaydilar, deb qo'rqadilar.

Agar chuqurroq qaralsa, bunday qo'rquvda yashovchi kishilarda boylikka, — har qalay, Haqiqiy Boylikka ega bo'lish istagining o'zi yo'qdir. Shu bois ular boylikka ega bo'lmay, shunday yashayveradilar.

— Buning hammasi shunga olib keladiki, — o'z tushuntirishlarini davom ettirdi janob Kammings, — agar Haqiqiy Boylikka ega bo'lishni istasangiz, boyliksiz hayot haqidagi o'ylardan ko'ra, siz unga yetishish va uni qo'lga kiritish bilan bog'liq yoqimli xayollarni ko'proq kechirishingiz kerak. Siz uni istashingiz, istakdan ham kuchliroq — sizda uni qo'lga kiritish uchun hamma narsadan ustunroq xohish bo'lishi zarur. Bu xohish shu darajada kuchli bo'lishi darkorki, agar zarur bo'lsa, siz uning uchun har qanday narsadan voz kechishingiz (albatta, o'z salomatligingiz, shaxsiy o'zaro munosabatlaringiz va rostgo'yligingiz bundan mustasno), yo'lingizda g'ov bo'lgan har qanday to'siqlarni yengib o'tishga tayyor bo'lishingiz kerak.

Shu sababli chekishni tashlashga uringan biron bir kashanda, ichkilikdan voz kechmoqchi bo'lgan aroqxo'r, ozishni maqsad qilib qo'ygan parhez saqllovchi to shu niyatini amalga oshirishga kuchli istak topmagunlaricha va o'zgarishga tayyor bo'lmaganlaricha niyatlariga yetolmaydilar. Agar siz hayotda nimalargadir erishmoqchi bo'lsangiz, buni bajarish uchun hammadan ustun keluvchi kuchli istakka ega bo'lishingiz kerak.

O'n besh yil muqaddam, keksa xitoylikni uchratgan chog'imda men bankrotlikka yaqin ahvolda edim va hamma narsamdan ayrilgan edim.

Men shaharning asosiy shoxko'chalaridan biridagi benzin quyish shoxobchasining egasi edim. Ishlarim joyida edi. Shunchalik yaxshi ediki, hatto uning yoniga restoran qurdim. Hammasi ko'ngildagidek edi, yaxshi hayot tarzini kechirardim. Biroq sharqiy tomondan uch chaqirim narida quvvati kuchliroq yangi shoxko'cha qurildi. Bir kechadayoq mening shoxobcham yonidan o'tuvchi ulovlar soni keskin kamaydi. Daromad pasayib ketdi va olti oy o'tgach, vaziyat o'nglab bo'lmas darajaga yetdi. Qanchadir foyda keltirish u yoqda tursin xarajatlarni to'lash uchun yetarli miqdordagi pul topish yo'li yorug'jahonda topilmadi. Bu biznesga bor-yo'g'imni kiritgan edim, endi yoshim yetmishga yaqinlashganda boy odamdan qashshoqqa aylanib qoldim.

Yigit o'z yon daftarchasidan ko'zini uzdi.

— Siz yoshingiz oltmishdan oshganida hammasini boshidan boshlashga majbur bo'ldingizmi? — so'radi u o'z quloqlariga ishonmay.

— Ha, — tasdiqladi janob Kammings.

— Lekin bu yoshda ko'pchilik nafaqaga chiqadi, — xitob qildi yigit. — Oqibatda siz nima bilan mashg'ul bo'ldingiz?

— Boshida hech qanday g'oya, fikrlar paydol bo'lmadi. Yagona bilganim — bu nimadir qilishim kerak edi. Bir kuni restoranimda o'tirsam, u yerga uncha baland bo'lmagan keksa xitoylik kirdi. Ul qo'shni stolda mening qarshimga o'tirdi va: «Assalomu alaykum dedi. U juda do'stona kayfiyatda edi, va biz go'yo tez til topishdik. U mening firmamning taomim — shaxsiy kashfiyotim bo'lgan ziravorlar solib yog'da qovurilgan kartoshkani buyurdi va bu unga juda yoqishini aytdi. Bu taom restoranimga kimki kirsam, uni tatib ko'rgan zamon barchaga yoqardi. Taomni yeb bo'lib, chol, nima uchun odam kamligini so'radi va men unga yangi yo'l haqida so'zlab berdim.

U endi nima qilmoqchi bo'layotganimni so'ragandi, bilmasligimni aytdim. Bu yoqilg'i quyish shoxobchasi va restoran qurilishiga yigirma yillik umrimni bag'ishladim.

Yangi yo'l tushguniga qadar ishlarim ko'ngildaquidek edi, lekin yoningdan transport ortiq o'tmay qo'ysa, nima qila olasan?

Chol menga juda jiddiy qarab dedi:

«Mening mamlakatimda har qanday omadsizlik. ortida xuddi shu miqdorda yoki hatto undan-da ko'proq omad keltirishiga ishonadilar».

Hazillashayapsizmi, — javob berdim men. — Axir mening yigirma yillik umrimni band etgan barcha narsani yo'qolishni omad deb hisoblash mumkinmi?».

«Ha, sababi — sizni undanda kattaroqlari kutmoqda. Bir eshik yopilgan chog'ida siz boshqasini ochishga majbursiz. Agar sizda kuchli xohish bo'lsa va buning uchun nimaiki talab etilmasin, bajarishga tayyor bo'lsangiz, tilagan hamma narsaga erishishingiz mumkin...».

Men derazadan qaragancha nima qilishim kerakligi va vujudga kelgan vaziyaldan qay tarzda yaxshilik topishim mumkinligi haqida o'ylardim. Men ko'p emas, bir zumgagina orqamga o'girildimu, keyin qo'shni stolga yana boqdim, qariya joyida yo'q edi. Stol ustida tanovul etilgan taom uchun chek va o'nta ism-familiya hamda o'nta telefon raqamlari qayd etilgan, shuningdek, «Tushlik uchun rahmat. Sizning yog'da qovurilgan kartoshkangiz g'oyatda mazali!» deya ostida qo'shimcha bitilgan qog'oz varag'i yotardi.

Janob Kammings choydan bir ho'pladi va gapida davom etdi:

— Men o'sha zahoti ro'yxatda ko'rsatilgan kishilarga chol haqida shunchaki ko'proq ma'lumot olish maqsadida qo'ng'iroq qilib chiqdim, lekin buning o'rniga Haqiqiy Boylikning sirlari haqida bilib oldim. Boya aytganimdek, juda qiyin vaziyatga tushib qolgan edim va shu bois hamma narsaga tayyor edim.

— Sizga sirlarning yordami tegdimi? — so'radi yigit.

— Atrofingizga qarang, — jilmaydi janob Kammings. — Haqiqiy Boylik sirlarisiz men ochimdan o'lgan bo'lardim yoki davlat nafaqasiga kun kechirib yurardim.

— Jiddiy gapirayapsizmi? — so'radi yigit.

— Albatta, — javob berdi janob Kammings.

— Bu boylikka yetishishda hamma narsadan ustun turuvchi kuchli xohish qay tarzda yordam berdi? — so'radi yigit.

— U meni muvaffaqiyatni qo'lga kiritish uchu qat'iyatli bo'lishga undadi, — javob berdi janob Kammings — O'z hayotingizda hamma narsadan ustun turuvchi kuchli xohishingiz bo'lmaguncha arzigulik hech bir narsaga erisholmaysiz, chunki maqsadga yetishish uchun qattiq harakat, qat'iyat va o'z zimasiga olingan majburiyatlarga amal etishni talab etadi. Menda barcha qulayliklarga ega bo'lish istagi har doim bo'lgan., lekin biznesimni yo'qotganimdan so'ng faqatgina boy bo'lishemas, balki juda boy bo'lishdek hamma narsadan ustun kuchli xohish meni chulg'ab oldi. Chunki bunga erisha olishimni avvalo o'zim va boshqalarga isbot qilishim kerak edi.

Menga odamlar hammasini boshidan boshlash uchun anchakeksayib qolganim, bunday ishga urinish tentaklik ekanini va qo'limdagi borimdan tuzukroq tarzda foydalanishim zarurligini aytdilar.

Mana, men borimdan tuzukroq tarzda boylik yaratish uchun foydalanishga qaror qildim.

— Nimangiz bor edi o'zi? — so'radi yigit.

—Kartoshkani yog'ga solib, ziravorlar bilan qovurishning usuli bor edi! — dedi janob Kammings.

— Hazillashyapsizmi? — dedi yigit. — Kartoshkani yog'da qovurish usulidan nima olish mumkin?

— U ovqatlanish tarmoqlariga asqotishi mumkin deb o'yladim. Mening kartoshkamning ta'rifi zo'rligini bilardim, — restoranimda ovqatlangan hammaga bu taom yoqardi, - shu bois o'z uslubimni sotish uchun urinib, mamlakat bo'ylab keza boshladim. Men restoranlarga o'z uslubimni taklif etib, buning uchun faqat mening uslubim bo'yicha tayyorlangan qovrulgan kartoshkaning ko'proq sotilganidan tushgan mablag'dan kichikroq foizdan o'zga hech qanday haq talab etmadim. Restoran boshqaruvchilarining ko'pchiligi yuzimga qarab turib ustimdan kulardilar. «Sizning uslubingizn, boshimizga uramizmi? — derdi ular. — O'zimizniki bor-ku».

«Lekin mening uslubim o'zgacha», — derdim men. Ularning ko'pchiligi mening uslubimda tayyorlangan kartoshkani hatto tatib ko'rishni ham istashmasdi, lekin muvaffaqiyatga erishish uchun hammadan kuchli xohishim bo'lgani sababli qattiq turib talab qilardim. Men mingdan ortiq restoranlarni kezib chiqdim, axiyri men taklif etgan (uslubdagi taomni tatib ko'rishga kimlardir rozi bo'ldi. Uch yildan so'ng beshta bitimim bor edi. Keyingi to'rt yil davomida o'z biznesimga xo'jayin po'ldim, natijada multimillioner bo'lishga erishdim. Yoshim yetmishga yetsa-da, men shunga jon-dildan kirishib ishladim. Ko'rib turganingizdek, kekxa xitoylik haq ekan — benzin quyish shoxobchamni yo'qotish mening hayotimda eng yaxshi hodisa ekani ma'lum bo'ldi.

— Ha-ya, xuddi shunday bo'libdi-da! dedi kinoya bilan yigit.

— Siz Charlz Dikkensning «Rojdestvo hikoyallari»ni o'qiganmisiz?

— Ha, — javob berdi yigit.

— Skruj o'z yo'lini o'zgartirishiga nima majbufl qildi.

— Rojdestvoning Moziy, Hozirgi va Kelajak Sharpalari, — deb javob berdi yigit.

— To'g'ri, lekin buni qanday amalga oshirdilar

— E-e... agar u o'zgarmasa, kelgusida qanday holga tushajagini ko'rsatdilar.

—To'g'ri. Rojdestvoning Moziy Sharpasi uning o'tmishda pastkash va xasis bo'lgan chog'ida qanday qiynoqlarga giriftor bo'lganligini ko'rsatadi Rojdestvoning Hozirgi Sharpasi uning bugungi kunda qanday qiynoqlarga sabr yetayotganiga diqqatini qaratdi, Rojdestvoning Kelajak Sharpalari esa, agar u o'zgarmasa, o'sha qiynoqlar uni kelgusida ham kutayotganini ochib berdi. Natijada Skruj uyg'onib, hali tirik ekanligini bilganida hayot tarzini o'zgartirishga qaror qildi.

Biz ham o'z hayotimizni, — xoh u moliyaviy ahvolimiz bo'lsin, xoh u ishdagi darajamiz yoki hatto odamlar bilan o'zaro munosabatlarimizga taalluqli - bo'lsin,— o'sha uch Sharpa Skrujga qo'llagan tamoyillaridan foydalanishimiz mumkin. Biz o'zgarishlarni xohlashimiz zarur. Agar hech kimni o'zgartirolmasak, bizni qanday qiynoqlar kutayotgan barobarida, agar o'zgarishlarga qaror bersak qanday rohat-farog'at kutayotganini baholashim kerak.

Bu biz o'z hayotimizni o'zgartirish uchun zarur ishlarni bajarishda qat'iy yo'nalish olishning yagona yo'lidir.

Bunday istakni paydo qilishning yagona yo'li — bu Rojdestvo Sharpalarining Skruj uchun qo'llagani kabi, xuddi shunday usulidan foydalanishdir. Bu to'rt bosqichni o'z ichiga olgan oddiy jarayondir. Birinchi bosqich — siz o'zgartirmoqchi bo'lgan sharoitlar oqibatida o'tmishingizda qanday qiynoqlarni kechirib o'tganingizni xotirlashingiz. Shuningdek, agar bu o'zgarishlar zahirida ko'proq pul topish istagi turgan bo'lsa, sizga g'oyat kerakli narsani sotib olishga qurbingiz yetmay, imkon topolmagan barcha voqealarni yodga tushirishingiz dardkor.

Yigitning ko'z o'ngida birin-ketin voqealar: bolaligida eng so'nggi rusumda kiyinib o'zini ko'z-ko'z etayotgan do'stlari uning eski, ancha uringan kiyimlari tufayli qanday masxara qilganlari; kollejda o'qib yurgan chog'ida yonida ortiqcha puli bo'lmaganidan o'rtog'lari bilan vaqtichog'lik qilolmagani va mashinasi yo'qligi bois o'zida yoqqan sarg'ish sochli qizni hech qayerga taklif etolmagani jonlana boshladi. Hammadan ham onasiga qimmat turadigan stomatologik yordam zarur bo'lgan va uni to'lashga imkon topolmagan chog'da hech qanday yordam berolmagani unga qattiq alam qilardi. Pulning yo'qligi o'tmishda ko'p aziyatlar chekishiga sabab bo'lgan.

Yigitning xayollarini janob Kammingning ovozi bo'lib yubordi, u so'zida davom etardi:

— Ikkinchi qadam — siz o'zgartirmoqchi bo'lgan sharoitlar bugungi kunda qanday qiyinchiliklar tug'dirayotganini ko'rib chiqishdir. Mening o'zim ularni yetarli darajada boshimdan kechirdim — butun umrim davomida ishlab topganimni yo'qotdim.

Yigit hozirgi kunda pulsizligi uni qiynoqlarga solayotganini yaxshi bilardi. Shu sababli u anchagina uyqusiz tunlarni o'tkazdi. Lekin og'riq va iztirob ahvolini yaxshilashga yordam berish mumkinligini xayoliga ham keltirmagandi.

— Uchinchi qadam,— dedi janob Kammind tushuntirishida davom etib, — agar siz hech nimani o'zgartirolmasangiz, kelajakda boshingizdan kechirishingiz mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni ko'z oldingizga keltirish. Farzandingiz tug'ilgan kunida u orzu qilgan buyumni sovg'a qilishga qurbingiz yetmagani yoki uning kollej yo dorilfununda o'qishiga mablag' bilan ta'minlay olmaganingiz alamlarini tasavvur etish; yoxud oilangiz va do'stlaringizni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga imko topolmaydigan darajada qolishingiz yoki do'stlaringizni mehmonga chaqirishingiz mumkin bo'lga katta uyni hech qachon sotib ololmasligingiz haqidagi o'ylar.

Yigit b'zini xotini va farzandlari borday tasavvur qilib ko'rdi. Ularni ta'minlashga ojizlik shunchalik og'ir ko'rindiki, bu haqda hatto o'ylashni ham istamadi.

— Bunday o'ylar kishini tushkunlikka solganday tuyulmayaptimi? — so'radi u.— Nima uchun alamlaringizni qo'zg'atuvchi voqealarga diqqatni jamlahga to'g'ri keldi?

— Albatta, bular salbiy hissiyotlarni qo'zg'atadi, uning fikrini tasdiqladi janob Kammings. — Lekin buning natijasida o'z hayotingizni o'zgartirish uchun hamma narsadan ustun keluvchi kuchli istak paydo bo'lsa, shuncha jafolarni yodlashga arziydi, to'g'rimasmi?

Yigit bosh irg'adi.

— Ha, lekin...

— O'z hisob to'lovlarimizni to'lash uchun bor kuchimizni sarflashga harakat qilib yoki qora kun uchun chetga olib qo'yadigan hech qanday mablag'ga imkon topolmay, o'zing, oilang va do'stlaring uchun eng zarur buyumlar sotib olishga qurbing yetmayotganiga tashvish va alamlarni chekayotganimiz, bularning barchasi o'z hayotimizni o'zgartirishga turtki bo'lishi mumkin, — tushuntirdi janob Kammings. — Agar hayotingizni o'zgartirishni istasangiz, uni o'zgartirish uchun kuchli va sobit istak paydo bo'lishi zarurligini unutmang.

Men so'zlab bergan uch qadam, — bu «qamchi», — siz duchor bo'lishni istamaydigan alamlar. To'rtinchi va so'nggi qadam — bu «shirin kulcha». Bu safar kelajakda Haqiqiy Boylik sizga nimalar keltirishi mumkinligi to'g'risida barcha yoqimli o'ylarni tasavvuringizda gavdalanitirishingiz zarur. Siz doimo orzu qilgan narsalarni — katta imorat, mashina sotib olayotgandagi rohat hissini, ta'tilda dam olish uchun sayohat, o'zingiz suygan kishilarga yordam berish imkoniyatidan quvonch yoki xayriya ishlari bilan shug'ullanishdan bahra olish kabi yoqimli o'ylarni surishingiz kerak.

Men «tasavvur eting» deganimda sizning ichki nigohingiz bilan bu voqealar qanday kechishini ko'z oldingizga aniq keltirishingiz, xayolingizda ularni his eta olishingizni nazarda tutmoqdaman. Ba'zi ishlarni amalga oshirishga imkoningiz yo'qligini aniq sezishingiz va agar o'zingizning barcha ehtiyoj va istaklaringizni qondirish uchun yetarli miqdorda mablag' to'play olganingizda o'zingizni qanday his etishingizni tasavvur eta olishingiz darkor.

— Shu tariqa, — davom etdi janob Kammings, — siz Haqiqiy Boylikka ega bo'lish uchun hamma narsadan ustunroq xohishni vujudga keltira olasiz.

Biror-bir narsani qo'lga kiritish uchun hamma narsadan ustunroq xohishning paydo bo'lishi hilaq bu istagingizga yetishish yo'lini tez orada Hayot o'zi ko'rsatadi.

— Siz chindan ham bunga ishonasizmi? - so'radi yigit.

— Agar siz haqiqatda nimanidir qattiq istasangiz, Hayot sizga bunga erishib yo'lini ko'rsatadimi?

— Albatta, — javob berdi janob Kammings.

— Bilasizmi, lotinchada «istik» so'zining o'zagi nimadan kelib chiqqan?

Yigit yo'q, deganday boshini chayqadi.

— «Desiro» — «yaratuvchi» ma'nosini bildiradi. Sizning qalbingizga tilaganingizni tanlash hamda shu tanlov bilan birgalikda o'z xohishlaringizni qondirish uchun imkoniyat ham beriladi. Boshqacha aytganda, sizda tilagingizni o'z hayotingizda ro'yobga chiqarish quvvati bo'lmasa, o'sha istakning ham paydo bo'lishi mumkin emas.

— Tushunaman, — dedi yigit.

— Nimagaki qattiq xohish bilan kirishsangiz unga yetishishga quvvatingiz yetadi, demoqchisiz-da.

— Mutlaqo to'g'ri. Mening umrim — buning isbotidir. Ishoning, agar yoshi 60 dan o'tgan mendek bir kimsa buni uddalagan ekan, bu har qanday kishining ham qo'lidan keladi.

Bugun kechasi uyquga yotishdan oldin yigit yozganlariga xulosa chiqardi:

Haqiqiy Boylikning ikkinchi siri — xohish quvvati.

♦ Agar siz o'z hayotingizda Haqiqiy Boylikka yetishmagan bo'lsangiz, bu qoidaga ko'ra, sizda hali hamma narsadan ulug' niyat uyg'onmaganini bildiradi. Modomiki hayotingizda erishmoqchi bo'lgan ulug' niyatingiz bo'lmasa, bunga arzigulik hech vaqoga yetisholmaysiz.

♦ Siz buning uchun barcha zarur bo'lganlarni bajarish va har qanday qurbonlarga (o'z qadr-qimrnatingiz, sog'lig'ingiz va o'zaro munosabatlaringiz bundan mustasno) rozi bo'lishni istaganingizdagina sizda hammadan kuchli xohish paydo bo'ladi.

♦ Siz uch Rojdestvo Sharpasi foydalangan quyidagi uch yo'l yordamida hammadan ustun bo'lgan niyatni yaratishingiz mumkin: pulsizlik oqibatida keltirilgan qiynoqlar haqida xouralar; pulsizlik oqibatida hozir kechirayotgan barcha qiynoqlar haqidagi o'ylar; agar bugungi moliyaviy ahvolingiz o'nglanmasa, kelgusida kechirishingiz mumkin bo'lgan qiynoqlar haqidagi o'ylar; agar siz cheksiz boylikka ega bo'lgan taqdirda kelajak sizga va'da qilgan barcha bahra olishlar to'g'risida tasavvurlar!

Uchinchi sir

NIYATNING ANIQLIGI QUVVATI

Yigit kelasi haftada xitoylik bergan ro'yxatda keltirilgan uchinchisi cheyve Markl Chepmen degan kishi bilan uchrashmoq uchun shahar markaziga y

xalqaro aloqa korporatsiyasi prezidenti edi. Bu odam baland bo'lyli va ozg'in, salobatli ko'rinishli, egniga yeng so'nggi rusumdagi mayda yo'lli to'q kulrang kostyum kiygan, toza paxta matosidan oq ko'ylagiga oddiyroq bo'yinbog' taqqan edi. U qirqlardan oshgan, jigarrang sochlari tekis qirtishlangan va ohuday yirik-yirik ko'zlari tufayli ancha yosh ko'rinardi. Yigit janob Chepmenga kekxa xitoylik bilan shuningdek, undan keyingi ikki uchrashuv to'g'risida so'zlab berganida, u barmoqlarini bir-birig, kirishtirgancha chuqur o'yga cho'mgandek o'tirga o'rindig'iga suyandi.

— O'zingiz haqingizda biroz so'zlab bersangiz,-dedi u yigitga qarata. — Hayotingizda nimalarga erishmoqchisiz?

— Kechirasiz, janob? — janob Chepmenning to'g'ridan-to'g'ri savolidan biroz esankiragancha yigit unga qaytadan savol nazari bilan qaradi.

— Hayotdan nimani tilaysiz? — takrorladi u.

— Ee... mening istagim, bu... baxtli bo'lish, salomat... va albatta, boy bo'lish, — javob berdi yigit Axir buni har qanday inson istaydi-ku?

— Ha. Xuddi shu bois juda kamchilik odamlar baxtli, sog'lom va boydirlar!

— Bu bilan nima demoqchisiz?

— Agar siz o'z hayotingizda nimani izlayotganingizni bilmasangiz, unda buni qanday topishingiz mumkin?

— Hozirgina aytdim-ku, sog'lom, baxtli va boy bo'lishni istayman, — ta'kidladi yigit.

— Lekin bularning barchasi juda umumi havoyi, noaniq gaplar. Bularning ortida nimalarni nazarda tutmoqdasiz?

— Kechirasiz, — dedi yigit so'zini bo'lib-bo'lib, — lekin men sizni unchalik anglayolmayapman.

— Yaxshi, unda «boy» tushunchasini ko'rib chiqaylik, axir aynan shuning uchun bu yerga kelgansiz-ku. O'zingizni boy deb hisoblashingiz uchun qancha mablag' topishingiz kerak?

— Ha... tushunarli, — dedi yigit undan nima istayotganlariga nihoyat aqli yetib. — O'zimni boy deb hisoblashim uchun jilla qursa hozirgidan ikki barobar ortiq pul topishni istar edim.

— Yaxshi, shundan boshlaymiz. Yana nima?

— Men hech qanday qarz-halovatsiz shaxsiy uyim, mashiham bo'lishini istardim...

— Qanday uy va qanday mashina? — janob Chepmen uning so'zini bo'lib so'radi.

— Bilmadim, — javob berdi yigit. — Buning ahamiyati yo'q.

— Rostdanmi, — qiziqdi janob Chepmen. — Shahar harobalari tomondagi atigi bir xonali uy ham bo'laveradimi?

— Yo'g'-e, albatta yo'q, — dedi yigit.

— Unda bu qanday uy bo'lishi kerak?

— Shaharning shimoliy chekkasida besh xonali uyim bo'lishini istardim.

— Mana, nihoyat, nimagadir kelib to'xtadik, — dedi janob Ch

— Siz ikki barobar ko'p maosh olsangiz, shunday uyni sotib olaman, deb o'ylaysizmi?

— Yo'q, — deya kulib yubordi yigit. — Buning uchun o'n barobar ko'p pul topishim zarur.

— Bo'lsa nima uchun hozirgina ikki barobar ko'p pul topsam, o'zimni boy deb hisoblardim, dedingiz.

— Men... men bu haqda jiddiyroq o'ylab ko'rmagan ekanman, — tan oldi yigit.

— So'zdagi qarama-qarshilikni ko'ryapsizmi? — so'radi janob Chepmen.

— Ko'pgina kishilar boy bo'lish istagini bildiradilar, lekin ulardan kamchiligi haqiqatda nimani va nima uchun istashlarini o'ylab ko'rishga fursat topmaydilar. Agar Haqiqiy Boylik yaratishni boshlash istagida bo'lsangiz, buning hammasini o'ylab olishingiz darkor. Nimani istashingiz va nima kerakligini eng mayda-chuydalarigacha aniq bilib olishingiz kerak. Masalan, yangi mashina olishni istayman, deyishning o'zi yetmaydi. Siz bu mashinaning rusumi, ko'rinishi va rangini aniq bilishingiz kerak, faqat o'shandagina aqlingiz nimadadir jamlanib bir fikrga keladi. Shu bilan birga, aniq maqsadingizga qo'shimcha sifatida nima uchun shuni istashingiz va bu maqsadga yetishish sizg qanday foyda keltirishi sabablarini bilishingiz kerak.

— Men yosh chog'imda, — davom etdi janq Chepmen, — mavjud tizimni yenga olaman, del o'ylardim. Menga hech qanday attestatlar kerak emas edi, ilm meni qiziqitmasdi. Vaqtimni chog' o'tkazish to'g'risidagina qayg'ulardim. Lekin ko'p o'tmay, hech qanday malakam bo'lmagani uchul tuzukroq ish topolmasligimga aqlim yetdi. Hozir o'tmishga nazar solganimda, bularning barchasi nihoyatda kulgili tuyuladi, lekin o'shanda maktabda o'qigan yillarimni ayblardim. Menga doimo o'qish va mutaxassislikni egallash naqadar muhimligini aytishsa-da, bu gaplarga quloq solmasdim.

O'z hayotimni qanday tashkil etishi zarurligini bilmas edim. Men g'oyat xafa, ezilgan ahvolda, alam og'ushida edim. Birovlarda yangi mashinalar, katta imoratlar bor, ular buyurtma berib kiyim tiktiradilar, jannatday joylarda hordiq chiqaradilar-u men esa nima uchun bunday qilolmayman. Boshqalar shularga ega bo'lish uchun o'z vaqti va harakatlarini sarfladilar shunga erishdilar, men esa yoshligimni behuda sovurib yubordim, degan xayollar meni tark etmasdi. Buning uchun o'z ota-ohamni, o'qituvchilarni, hatto hukumatni ham aybdor hisoblardim, ammo haqiqatda aybdor faqat bir kishi — mening o'zim edim.

Kunlardan bir kun keksa xolamdan meros oldim va ikki haftada hammasini sovurib, yaxshilab dam olib kelish uchun qanday joy tanlasam ekan, deya sayohatchilar byurosiga bordim. U yerdan sayohatlar loyihalarini olib, diqqat bilan o'rganib chiqish maqsadida boqqa yo'l oldim.

Yonimda kimdir borligini sezib qoldim. Bu keksa xitoylik edi. U mendan qayerga sayohat qilmoqchiligimni so'radi, men hozircha bilmayman, deb aytdim. Faqat bir necha hafta sayohat qilmoqchiligimni bilishimni aytdim. Nima uchun sayohatga ketmoqchi bo'layotganimni so'raganida, mening hech qanday ishim ham, kelajagim ham yo'qligini

bildirdim. U qayrilib, ko'zlarimga tikilib qarab: «U holda kelajagingni o'zing yaratishing kerak», — dedi.

— Kishi kelajagini o'zi qanday yaratishi mumkin, — uning gapini bo'ldi yigit.

— Men ham xuddi shuni so'ragandim, — dedi janob Chepmen, — chol: «Haqiqiy Boylik sirlari ko'magida deb javob berdi. Shundan so'ng uning aytishicha, menga tushuntirib bera oladigan kishilar ro'yxatini berdi.

Yigit o'zicha jilmayib qo'ydi.

— O'sha kishilar yordamida, — davom etdi janob Chepmen, — mening eng asosiy muammolarimdan biri — hech qanday jiddiy maqsadim, niyatimga erishish uchun aniq xatti-harakatim bo'lmagani sababli hayotda hech narsaga erisholmayotganimni bilib oldim. Men nimaiki istasam, o'shanga, hatto undan-da ortig'iga erishishim mumkinligini, lekin buning uchun nima xohlashimni aniq bilishim zarurligini angladim. Bu - niyatning aniqligi quvvatidir.

— Niyatning aniqligi, — takrorladi yigit, yo'l daftarchasiga qayd qilar ekan. — Boylik yaratish uchun oldimizga aniq maqsad qo'yishimiz kerak demoqchimisiz ?

— Ha, eng avvalo — maqsad, — ta'kidladi janob Chepmen. — Sizning aniq maqsadingiz bo'lishi kerak. Shunchaki «men boy bo'lishni istardim» deb aytishning o'zi yetmaydi. O'z kelajagingizni qurishingiz uchun nimaga ega bo'lish va aynan qachon shunga ega bo'lishga diqqatingizni jamlashingiz kerak. Sizning tanlaganingiz har doim ana shu maqsadlar bilan belgilanadi. Agar, masalan hafta tugaguniga qadar biror-bir yumushni tugallash maqsadida bo'lsangiz, siz bo'sh vaqtingizni televizor ko'rish o'rniga ana o'sha yumushni bajarishga sarflaysiz.

Eng yuqori natijalarga erishish uchun esa maqsadlaringiz shunday ifodalangan bo'lishi kerakki, ular sizning g'ayriixtiyoriy maqsadlaringiz bilan uyg'unlashsin, — qo'shimcha qildi janob Chepmen.

— Aniqrog'i? — so'radi yigit.

— Maqsadlar odatda qanday ifodalanadi. Masalan, kishilar yangi yil va'dalarini odatda qanday izhor etadilar? Ular: «Umid qilamanki,...». «Niyatim shuki...», «Urinib ko'raman...» deydilar. Bunday so'z birikmalari ishga yaroqsiz, shu bois ko'pchilik yangi yil va'dalarining bajarilishini uddalolmaydilar, - tushuntirdi janob Chepmen.

— Xo'sh, buning nimasi to'g'ri kelmaydi? - so'radi yigit.

— Masalan, kimdir chekishni tashlashga urnib ko'rmoqchi. U buning uddasidan chiqadi, deb o'ylaysizmi?

Yigit yelka qisdi.

— Garov bog'lashim mumkinki, u buning uddasidan chiqolmaydi, — dedi janob Chepmen. — chunki bu zararli odatdan qutulishga qat'iy jazm etgan har qanday kishi: «Endi chekmayman», — deydi.

Kishiga ta'sir o'tkazib, uxlatib qo'ya oladigan sehrgar bir kishining kallasi hamda tovonlari bilan o'rtasida hech qanday suyanchig'i bo'lmagan ikkita stulga yotqizgani haqida eshitganmisiz?

— Ha, eshitgandim, — javob berdi yigit.

— Tasavvur eting-a, basharti sehrgar o'sha kishiga: «Sizning gavgangiz taxtadek to'g'ri bo'lishi mumkin. Biz jismingizni po'latdek qattiq qilmoqchimiz», — desa, o'sha odam uxlatishga uhamay, joyiga borib o'tirardi. Buning o'rniga sehrgar: «Sizning gavgangiz taxtadek to'g'ri, po'latdek qattiq», — deydi. Hech qanday «harakat qilaman», «umid qilaman», «niyatdaman...» so'zlari yo'q. Sehrgar hozirgi zamonda ifodalangan ijobiy tasdiqlardan foydalanadi.

Maqsadlaringizni ifodalash yo'rig'i to'g'risida ham xuddi shunday deyish mumkin. Shu yil 31-dekabrgacha 100000 funt ishlab topishga «harakat qilaman» yoki «istar edim» yoki «umidim bor» deyish o'rniga, «Bugundan e'tiboran shu yilning 31- dekabrigacha 100000 funt ishlab topaman» deyish zarur. O'z maqsadlaringizni yozib borar ekansiz, doimo esda tuting: ularni hozirgi zamonda va bo'ladigan tasdiq ko'rinishida shakllantiring.

Agar siz maqsadingizni yozib qo'ysangiz, unga erishishning yarim yo'lga yetgan bo'lasiz. Maqsadlaringizni hozirgi zamonda va bo'lishi mumkin tarzda yozib borishning o'zida xos jodudek xususiyati bor — bu sizning hayotingizga ularni haqiqatan kiritadi. Ularning qog'oz varag'ida yozilgani va kunda uch bora — ertalab, tushda va kechda qaytalab o'qilishi shularga erishish jarayonining boshlanishidir.

— Nahotki shu rost bo'lsa? — so'radi yigitcha.

— Xo'sh, sizga maslahatim — sinab ko'ring, nima bo'lishini o'zingiz ko'rasiz, —javob berdi janoj Chepmen. — Maqsadlarni yozish — hayotingizda nimaga yetishishingizni aniqlovchi g'oyat kichik quvvat. Ularni yozib qo'yishingiz bilan, siz o'zingizi bu maqsadlarga erishayotgandek his qilasis.

— Hozircha bu bilan nima demoqchi bo'layotganingizni unchalik anglamayapman.

— Bu jarayon ijodiy ko'rinish deb nomlanadi Maqsadingiz qanday bo'lishidan qat'i nazar, o'zigizni unga erishgandek tarzda tasavvur qiling. Basharti, masalan, maqsadlaringizdan biri — mallaum bir uyda yashash bo'lsa, o'zingizni o'sha uyda yashayotgandek ko'rishga harakat qiling. Yoki basharti maqsadingiz — biron-bir ishni qo'lga kiritish bo'lsa, o'zingizni o'sha ishni bajarayotgn holda ko'rishingiz zarur.

— Lekin axir bu shunchaki istagimizni amaldagidek qabul qilish bo'lmaydimi? — e'tiroz bildirdi yigit.

— Bilasizmi, keksa donishmand kishi bir kufl menga: «Agar sen shuni xohlasang, bu endi orzu emas», degan edi. Siz o'zingizni maqsadin yetishgandek tasavvur etsangiz, maqsad yanada aniqlashuvi, yanada imkoni borday tuyuladi Bunday uslubiyat barcha buyuk sportchilar tomonidan qo'llanadi, chunki u shubhasiz, o'z oldingizga qo'ygan maqsadingizga yetishga qodirligingiz va shunga erishish zarurligiga ishonch hissini bildiradi.

— Yaxshi, — dedi yigitcha. — Demak, biz o'z maqsadlarimizni belgilab olib, ularni yozib qo'yishimiz va xayolda ularga erishgandek tasavvur qilishimiz kerak ekan-da.

— Ha, lekin maqsadga erishish jarayonini yanada ta'sirchan qiladigan yana bir narsa borki, bu — qo'yilgan maqsadga erishishingizni xohlaydigan yoki zarur bo'lgan sabablarni belgilashdir.

— Nima uchun? — so'radi yigitcha.

— Chunki sabab maqsadga niyatni qo'shadi. Masalan, ma'lum bir miqdordagi mablag'ni ishlab topish maqsadi sizning aniq uy sotib olish yoki ma'lum bir yerda dam olish uchun ketish va farzandingizni kollejga o'qish uchun yuborishga imkon topish kabilarga ma'lum bir miqdorda pul topishdek harakatlaringiz kuchli sabab bo'la olmaydi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, niyat bo'lishi zarur. Sizga nima ko'proq zaruriy sabab bo'ladi — 100000 funtni shunchaki ishlab topishmi yoki shuncha miqdordagi pulni shaxsiy uy sotib olish uchun yig'ish maqsadimi? Esingizda bo'lsin, boylik — shunchaki pul yig'ish yoki mablag'ga ega bo'lishning o'zigina emas, bu o'z niyatlaringizni ro'yobga oshirish uchun mana shu pullar beruvchi quvvatdir. *Sabablarni belgilash* niyatlaringizning ravshanlik quvvatini beradi.

Kechqurun yigitcha yozganlarini qayta o'qib ko'rdi:

Haqiqiy Boylikning uchinchi siri — niyatlar ravshanligi quvvuti.

◆ Siz nimani istashingizni va nima uchun shuni xohlashingizni aniq bilsangizgina bu hayotda barcha niyatlaringizga yetasiz.

◆ Siz o'z maqsadlaringiz sabablarini, bu maqsadlarga erishish nima uchun zarurligini va buni qachon bajarishingiz darkorligini aniq belgilashingiz kerak. (Masalan, siz boy bo'lishni istayman, deyishingizning o'zi kifoya etmaydi. Siz qancha miqdordagi mablag'ga ega bo'lish va nima qilmoqchiligingizni aniq belgilab olishingiz zarur)

◆ O'z maqsadlaringizni doimo hozirgi zamonda va bo'layotgandek tarzda ifodalang. (Masalan, "Bugundan e'tiboran va shungacha (bu mablag'ga qachon ega bo'lishga qaror qilgan sanani ko'rsating) men X 000 funt pul ishlab topaman.

◆ Maqsadlaringizni yozib qo'ying va ularni bil kunda uch bora — ertalab, kunduzi, kechqurun qayta-qaytalab o'qing.

◆ Xayolingizda o'zingizni bu maqsadlarga erishgandek tasavvur eting.

◆ Bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan Sabablarni belgilang. Boylik — shunchaki pul yig'ish yoki mablag'ga ega bo'lishning o'zigina emas, bu o'z niyatlaringizni ro'yobga chiqarish uchun mana shu pullar beruvchi quvvat ekanini yodda tuting.

To'rtinchi sir

HARAKATLARNING PUXTA O'YLANGAN REJASI QUVVATI

Demak, siz maqsadlaringizni yozib qo'yib ularni hozirgi zamonda va bo'ladigan tarzda ifodaladingiz; ushbu maqsadlarga erishish uchun istalgan muddatingizni belgiladingiz va ularga yetishishda muhim bo'lgan sabablarni aniqladingiz. Endi niyatingiz ravshan — siz nimani xohlashingiz, nima uchun xohlashingiz va qaysi muddatgacha uni xohlashingizni bilasiz — xo'sh, endi u yog'iga nima qilasiz?

Yigitcha o'z ro'yxatidagi to'rtinchi odam, katta xalqaro nashriyot kompaniyasining bosh muharriri Erika Xill ro'parasida o'tirar edi. Yigitcha missis Xillni ko'rganda uning nihoyatda yoshligidan hayratga tushdi. Bunday lavozimda yoshi ulug'roq kimsani uchratishni kutardi, lekin Xill xonim 39 yoshda bo'lishiga qaramasdan, yoshiga nisbatan o'n yoshga yoshroq ko'rinardi. Sariq sochlari uzun va kulrang ko'zlari chaqnoq bu maftunkor ayol uch farzandli esa-da, o'zining sarv qomatini saqlab qolgan edi.

— Rostini aytsam, — javob berdi yigitcha, — bilmayman. O'ylaymanki, siz haqsiz. Men o'z maqsadlarimni bilaman, lekin qachon bo'lmasin, ularga qanday erisha olishimni bilmayman.

— Ha, xuddi shunday, — dedi Xill xonim. — O'n ikki yil muqaddam men xuddi shunday vaziyatda edim. Men o'z xizmat sohamni erkin jurnalist sifatida boshlaganman, hatto homiladorlik chog'imda ham, shuningdek, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish vaqtida ham faoliyatimni davom ettirganman. O'sha kezlari meni qiziqtirgan mavzu — yosh onalar va oilalar haqida yozardim. Bu degani, oilamizda qanday voqea sodir bo'lmasin, odatda maqolalarimga material topa olardim. Ulardan ko'pchiligini men gazeta va jurnallarga sotardim, agar uch bolamning tarbiyasi bilan ham bandligimni hisobga olganda, umuman hayotim yo'lga yomon qo'yilmagandi. Lekin boshqa orzularim bor edi. Istagim — shaxsiy jurnal nashr etish edi. Buning uchun juda katta mablag' zarurligi bois bu orzuim hech amalga oshmasdek tuyulardi.

Kunlardan birida men intervyu olish uchun shimolga yo'l oldim va nogoh o'sha shaharga ketayotgan keksa xitoylikni ko'rib qoldim. U bag'oyat do'stona kayfiyatda edi va biz yo'l bo'yi gurunglashib ketdik. Qaysidir soniyada unga jurnalistligimni va o'z shaxsiy jurnalimni yaratishni orzu qilishimni, ammo buning uchun kattagina mablag' talab etilishi bois orzuim qachon bo'lmasin amalga oshishi gumonligini aytdim.

U men tomonga xiyol engashib, qo'limgan tutdi va: «Basharti siz buni astoydil istasangiz, bu orzu emas» dedi.

— Bu nima degani? — so'radi yigitcha.

— Men unga xuddi shu savolni berdim, — javol berdi Xill xonim, — keksa hitoylik: «Sizning aqligiz yetgan va ishona olgan barcha narsaga yetishish mumkin» dedi.

Yigitcha keksa xitoylik unga xuddi shunday deganini xotirladi va yon daftarchasiga yoza boshladi.

— Shundan so'ng chol Haqiqiy Boylik sirlari haqida to'xtaldi, — davom etdi Xill xonim. — U menga o'n kishining ism-familiyasi va telefol raqamlarini berdi va bu ayollar nimaligini o'sha kishillar anglatishi mumkinligini aytdi. Men u

ko'rishmoqchi bo'ldim, chunki bundan shunchaki yaxshi bir hikoya chiqishi mumkin edi, lekin tez orada chol va'da qilganini ular bajarayotganiga amin bo'ldim. Butun hayotimga ulkan ta'sir etgan sirlardan biri harakatlarning puxta o'ylangan rejasi quvvati edi.

— Buning zamirida aynan nimani nazarda tutyapsiz? — so'radi yigitcha.

— Siz nimani istashingiz va nima uchun istashingizni bilishingiz juda muhim va ba'zan hayotingizga maqsadlaringizni kiritish uchun shuning o'ziyoq kifoya etadi. Basharti ko'zlagan maqsadingizga erishish yo'lida biror-bir harakatni qo'llalamoqchi bo'lsangiz, sizni bu maqsadlarga yaqinlashtiruvchi xatti-harakatlar yo'riqlarini ishlab chiqishingiz kerak. Hamma ilg'or sportchilar o'z kelajagini rejalashtiradilar. Ular musobaqalar vaqtida yaxshi formada bo'lishga harakat qilishi va shu holatni o'zlariga ta'minlash uchun mashq qilish jadvalini tuzadilar. Musobaqadan avval va keyin ikki hafta — ularga to'g'ri kelmaydi. Agar ular eng yaxshi natijalarga erishmoqchi bo'lsalar, o'sha voqeaning aynan o'sha davrida ularning eng yaxshi holati zarur. Xuddi shuning kabi hayotda ham: o'z mulkini yaratishda avval harakatlar rejasini o'ylab olib, shu asosda amal qilmagan biron-bir millioner yo'q. Bundan bir necha yillar muqaddam juda badavlat va tadbirkor biznesmendan uning muvaffaqiyatlarining siri nimadalgini so'raganimda, u menga uch narsaga: tartibli bo'lish, tartibli bo'lish, tartibli bo'lish!.. qoidasiga amal qilgani tufayli hamma tilaklariga yetganini aytib berdi. Bu javobda chuqur ma'no bor. Siz arxitektor rejasiz imorat qurishni tasavvur eta olasizmi? Buning uchun qanday ashyo va uskunalar talab etiladi? Poydevor qayerga qo'yiladi? Bino qanday shaklda bo'ladi va necha qavatli quriladi? Agar rejangiz bo'lmasa, hatto ishni nimadan boshlashni ham bilmaysiz.

Yigitcha rozi bo'lganday bosh irg'adi.

— Nima qurish niyatida bo'lsangiz ham, bu uy, kema, avtomobil... yoki davlat bo'lsin, o'sha tamoyillar hamma narsalarga qo'llanadi. Barchasi uchun harakatlarning o'ylangan rejasi zarur.

Harakatlarning o'ylangan rejasini tuzib, hayotimizni shunchaki qurishga kirishish o'rniga o'zimiz istaganimizcha umr kechirmoq uchun hayotimizni rejalashtira olamiz. Bu hatto mayda masalalarda ham asosiy o'rindir: faraz qilaylik, televizoringiz ishdan chiqdi va sizga yangisi kerak. Siz sotib olmoqchi bo'lgan televizor rusumi va sotuvchi ham ma'lum. Keyingi savol: uni olish uchun nima qilish kerak?

— Siz o'sha do'konni topishingiz, u yerga borib, zarur molni xarid qilishingiz kerak, — dedi yigitcha.

— Yaxshi, bunday televizorlar sotiladigan, do'konni topdingiz. Lekin ular juda qimmat bo'lsa-chi?

— U holda uni xarid qilolmaysiz. Bu juda oddiy hol, — javob berdi yigit.

— Keksa xitoylik bilan suhbatlashganingizda muammolarni yechishning oltin qoidasini aytganmidi? — so'radi Xill xonim. U yon daftarchasini varaqlab, yigitga kerakli betni topdi. «*Sen barcha imkoniyatlarni sinab ko'rgandek tuyulgan taqdirda o'zidingni bunday emasligini yodingda tut*».

— To'g'ri! — xitob qildi Xill xonim. — Doim boshqa bir yo'l bor. Shunchaki uni topishingiz kera Demak, faraz qilaylik, televizor ikki yuz funt turadi, sizda esa faqat yuz funt bor. O'sha televizorni sotib olish uchun nima qilasiz?

— Kutishingiz mumkin. Yuz funtini to'lab, qolganini yig'ishingiz mumkin. Oyiga o'n funtda yig'lsa, o'n oy ichida televizor sizniki.

— Ha, shunday imkoniyat ham bor. Lekin unda o'n oy davomida umringizni televizorsiz o'tkazishingizga to'g'ri keladi. Yana nima qilishingiz mumkin?

— Menimcha, qarz ko'tarishim yoki uni kriditga olishim mumkin.

— Bu yana bir imkoniyat, lekin basharti tez muddatda qarzdan qutulolmasangiz, katta miqdorda foiz to'lashingizga to'g'ri keladi.

— O'ylab topishim mumkin bo'lganining hammasi shu, — dedi yigitcha.

— Yaxshi. Biroq, ular narxini tushirishga ko'nmasmikanlar? Ko'pchilik do'konlar mollariga yuqori baholarni qo'yadilar, lekin ular sag'al arzonroq bahoda ham sotishga tayyor ekanini hatto tasavvur ham qilolmaysiz. Yoki siz ulardan foizsiz kredit berishi mumkinligi to'g'risida so'rashingiz ham mumkin.

Ular hatto sizning eski televizoringizni to'lov qismi sifatida qabul etishlari ham mumkin. Ko'rib turganingizdek, doimo bir qancha variantlar mavjud. Birinchi qarashda hech qanday imkonsiz tuyulgan narsa, basharti o'tirib, harakatlarning o'ylangan rejasini tuzib olsangiz, aslida juda ko'p imkoniyatlar mavjudligini ko'rasiz.

Talab etilajak narsa, — bu bor yo'g'i o'nta banddan iborat amal etish rejasini tuzmoq, — imkoni mavjud bo'lgan o'nta yechimni yozishdir.

— Siz biron-bir misol keltira olasizmi? — so'radi yigitcha.

— Albatta. Masalan, menga taalluqli masala yuzasidan, shaxsiy jurnal chiqarishim uchun yuz ming funt zarur edi. Natijada men o'nta imkoni mavjud yechimni yozdim:

1. Yuz ming funt mablag' kirita oladigan odam yoki kompaniyani topish.
2. Har biri ellik ming funtdan mablag' kirita oladigan ikkita investorni topish.
3. Har biri yigirma ming funtdan mablag' kirita oladigan beshta investorni topish.
4. Har biri o'n ming funtdan mablag' kirita oladigan o'nta investorni topish.
5. Har biri besh ming funtdan mablag' kirita oladigan yigirmata investorni topish.
6. Har biri ikki ming funtdan mablag' kirita oladigan ellikta investorni topish.
7. Har biri ming funtdan mablag' kirita oladigan yuzta investorni topish.
8. Har biri besh yuz funtdan mablag' kirita oladigan ikki yuzta investorni topish.
9. Qaysidir miqdordagi mablag'ni bankdan qarzga olish.

10. Men bilan hamkorlikda jurnal chiqaradigan biron-bir davlat nashriyot kompaniyasiga g'oyamni sotish.

Endi butun loyiham avval boshdagidek unchalik ehtimoldan uzoqday bo'lib ko'rinmay qoldi. Men imkoni mavjud yechimlar ro'yxatini tuzdim. Endi ketiga tushgan har qanday maqsadim loyahasini amalga oshirish uchun o'n banddan iborat reja tuzib olaman.

— Tushunarli. Bu har qanday vaziyatda qo'l keladimi? — so

— Albatta, chunki bu o'z maqsadingizga yetishish yo'lida avval hatto o'ylamagan turli-tuman yo'larni tadqiq qilishga majbur etadi. Bir kun boshqa bir shaharda yangi cherkov ochmoqchi bo'lgan amerikalik ruhoniyo to'g'risida hikoya o'qib qoldim. Cherkov qurish uchun mablag'i bo'lmaganidan u o'nta banddan iborat reja tuzibdi. quyidagilarni yozgan:

1. Maktab binosini ijaraga olish.
2. Masonlar joyini ijaraga olish.
3. Ovchilar uyini ijaraga olish.
4. Janoza o'qiladigan masjid binosini ijaraga olish.
5. Bo'sh ombor o'rnini ijaraga olish.
6. Jamoat klubi joyini ijaraga olish.
7. Yettinchi kun adventistlari cherkovini ijaraga olish.
8. Yahudiylar ibodat qiladigan joyni ijaraga olish.
9. Avtomobilchilar teatrini ijaraga olish.
10. Hali qurilmagan yer uchastkasi, tent va yig'ma o'rindiqlarni ijaraga olish.

Kutilmaganda unda o'nta imkoniyat paydo bo'ldi va u ishini avtomobilchilar teatrida o'z cherkovini joylashtirishdan boshladi. Bir necha yillardan so'ng doktor Robert Shullerning butun mamlakatga ko'rinarli darajada baland qo'ng'iroqxonali kafedral sobor qurish orzusi tug'ildi.

Bu sobor "umid minorasi" deb atalib, nafaqat toat-ibodat qilish va o'qitish dargohi, yoinki jamoatchilik markazi, balki butun mamlakat uchun umid va ilhom manbai bo'lishi lozim edi. Ammo buning o'ziga yarasha muammosi bor edi: bu ishga bir million dollar zarur edi. Doktor Shullyerga bu amalga oshmaydigan fikr deb uqtirishlariga qaramay, u yana o'n banddan iborat rejadan foydalandi:

1. Bir million dollar beradigan odamni topish.
2. Besh yuz ming dollardan beradigan ikki kishini topish.
3. Har biri ikki yuz ellik ming dollardan beradigan to'rt kishini topish.
4. Yuz ming dollardan beradigan o'n kishini topish.
5. Ellik ming dollardan beradigan yigirma kishini topish.
6. Yigirma besh ming dollardan beradigan qirq kishini topish.
7. Yigirma ming dollardan beradigan ellik kishini topish.
8. O'n ming dollardan beradigan yuz kishini topish.
9. Besh ming dollardan beradigan ikki yuz kishini topish.
10. Ming dollardan beradigan ming kishini topish.

Pul topish ancha vaqt talab etdi, lekin u bulling uddasidan chiqdi! Shunga o'xshash o'n banddan iborat rejani har qanday maqsadga erishishda qo'llash mumkin.

— Ha, biznes masalalarida shunday reja yordam berishi mumkinligini tushunaman, — dedi yigitcha. — Lekin shaxsiy masalalarda-chi? Mening maqsadlarimdan biri shahar tashqarisida ikki akr yen mayjud besh xonali imoratinga ega b

maoshim bilan unga yetishning hech qanday imkoni yo'q. Nihoyati bir xonali kvartira olishga qurbim yetadi xolos!

— Shuning o'zi sizga hech narsadan darak bermaydimi? Agar lotoreya yutug'ini hisobga olmasangiz, daromadingizni ko'paytirish yo'llarini topishingiz mumkin. Siz o'z kompaniyangizda xizmat pillapoyalarida ko'tarilish yoki kelajagi yaxshiroq boshqa ish izlash maqsadini oldingizga ko'ndalang qo'yishingiz mumkin. Hatto boshqa bir ishning boshini tutish haqida ham o'ylab ko'rish mumkin. Hech bo'lmaganda endi maqsadingizga erishishni ta'minlash uchun qandaydir o'zgarish, yangilanish tomon borishingiz zarurligini bilasiz.

Tushunaman, boshida allaqanday qiziq tuyulsa-da, o'n banddan iborat reja tuzishga urinib ko'ring. Keling, avval yillik daromadingizni qay tarzda oshirish to'g'risida o'ylab ko'raylik. Hozir qancha maosh olasiz?

— O'n besh ming funt, — javob berdi yigitcha.

— Tushunarli. Demak, basharti daromadingizni har yili ikki barobar oshirib borsangiz, besh yildan so'ng u 480000 funtga yetadi. Bu istaganingizday uy sotib olish uchun bemalol yetadi.

— Ha, lekin daromadimni qanday qilib ikki barobar oshiraman? — qat'iy davom etdi yigitcha.

— O'n banddan iborat reja yordamida. Miyangizga bu borada qanday fikrlaru g'oyalar kelsa, hammasini shunchaki yozib qo'ying.

— Xo'p, — dedi yigit.

— Men juda ko'p mehnat qilib, direktor darajasiga yetishim mumkin.

Bu holda yiliga 300000 funt topishim mumkin, deb o'ylayman.

— Ehtimol eng uzoq bo'lsa-da, bu ham imkoniyatlardan biri. Kompaniya direktori lavozimiga yetish uchun. odatda besh yildan ancha ko'proq muddat talab etiladi.

— Qo'limdan keladigan yana bir yagona yo'l shuki, bu men sotgan narsalardan tushadigan tushumga bog'liq maoshli ish topishdir.

— Ha, lekin bu juda yaxshi tushumli ish bo'lishi darkor, — dedi Xill xonim. — Siz balandroq malakani egallash to'g'risida nima deya olasiz? Bu sizga ko'proq maosh to'laydigan ish topish imkoniyatini berar edi.

— Lekin xarajatim shunday ham yetarli. Menga daromad zarur, — e'tiroz bildirdi yigitcha.

— Fikringizga qo'shilaman, lekin siz kechki o'quv dargohiga borishingiz mumkin.

— To'g'ri, — javob berdi yigit. — Bu haqda o'ylamabman.

— O'z shaxsiy biznesingizni boshlashga nima deysiz, — qiziqdi Xill xonim.

— Bu muammolarni hal etishning yaxshi imkoniyati, — dedi yigitcha.

— Lekin u qanday biznes bo'lishi mumkin?

— Bu borada yana puxta o'ylangan reja sizga asqotishi mumkin. Ko'pchilik odamlar hatto qaysi ish ularga zavq bag'ishlashi yoki ularning kuchli va kucl

mutlaqo o'ylamay kasb tanlaydilar. Ular kelgusida qanday mavqega erishishlariga taalluqli hech qanday fikrga ham ega bo'lmaydilar. Bunday yo'lga kirgan inson uchun ish hayoliy ehtiyoji uchun pul topishdan bo'lak yo'riq emas. U bajarayotgan ishiga qiziqmaydi, undan zavqlanmaydi, shu yumushga nisbatan ko'tarinki ruh hissini sezmaydi. Oqibatda bunday kishilar o'z ishida hech nimaga erishmaydilar va butun umr sudralib yuraveradilar.

Yigitcha chuqur xo'rsinib qo'ydi. Xill xonimning gaplari uning holatiga aniq to'g'ri kelardi. U o'z ishiga nisbatan hech qanday ishtiyoq sezmasdi. Bu ish shunchaki uning hisoblarini to'lash uchun imkon beruvchi vosita edi xolos. U hech qachon o'tirib, qanday kasbning boshini tutsa, undan bahra olishini, qanday ish bajarishini xohlashini tanasiga o'ylab ko'rmagandi.

— Basharti siz nimanidir yaxshi bajarishni istasangiz, — dedi Xill xonim, — bunday masalalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Siz bajarayotgan ishingizdan zavq olmasangiz, shu ishning ustasiga aylanmasangiz, qilayotgan ishingiz yaxshi chiqishi gumon. Modomiki ishingiz yaxshi bajarilmasa, unga yaxshi haq olishingiz mumkinmi?

Bir ma'noli ibora bor: suygan ishingni qil, pulning o'zi keladi. Basharti nimagadir mehr bersangiz, shu ishning mohir ustasi bo'lishingiz uchun bor kuchingizni sarflashni istaysiz. Ko'pchilik insonlarda shuning teskarisi bo'ladi. Bu toifadagi kishilar ularga zavq bag'ishlovchi boshqa ishlarni bajarishga imkon beradigan pul topish maqsadida ishlaydilar. Natijada haftasiga besh kun mobaynida ularni kam qiziqtirgan mashg'ulot bilan shug'ullanishga vaqt sarflaydilar-da, oxir-oqibatda hech nimaga erishmaganlaridan hayratlanadilar.

Xill xonim yana yigitcha boshidan kechirayotgan holatni ta'riflardi.

- Lekin, sizningcha ko'pchilik ishidan zavq oladimi?

- Juda kam kishi-javob berdi Xill xonim, - lekin ko'pchilik boymi?

- Fikringizni uqdim-dedi yigitcha. - Aytmoqchisizki, kasb tanllash yoki biznes boshlashda quyidagilar haqida jiddiy mulohaza yuritmoq darkor: bunday ish sizga zavq beradimi; sizning qobiliyatlaringizga mos keladimi; siz tanlagan soha mavqega erishish hamda moliyaviy maqsadlarga sizni yaqinlashtiradimi?

- Hammasi to'g'ri,- jilmaydi Xill xonim.

- Xo'sh, o'ylaymanki, bunda mano bor - dedi yigitcha. - Qani edi bundan bir necha yillar muqaddam kollejda o'qib yurgan kezda bu haqda o'ylagan bo'lsam.

- Endi o'tmishni o'zgartirolmaysiz, - dedi Xill xonim. - Lekin o'z kelajagingizni yarata olasiz. Hamma gap buning uchun nimalar qilmoqchi ekaningizda.

- Bilmayman, — jayob berdi yigitcha - Aynan shuning uchun huzuringizdaman Nazarimda, o'z biznesimni boshlash niyatidaman shekilli.

- Juda soz. Birinchi qiladigan ishingiz?.. — so'radi Xill xonim.

- Haraktlarning o'ylangan rejasini tuzishmi? -savolga savol bilan javob berdi yigitcha.

- To'ppa-to'g'ri, - xitob qildi ayol. - Har qanday biznes uchun ana shu biznes asosi harakatlarning o'ylangan rejasi zarur Basharti, biznesingizni tashki

sababga ko'ra pul qarz olish zarur bo'lib qolsa, sizga mablag' ajratayotgan investor birinchi navbatda so'raydigan narsa — bu nazarda tutilayotgan biznesingizning batafsil rejasidir.

U hammasini puxta o'ylab chiqqaningizga ishonch hosil qilishni istaydi, axir u o'z tajribasidan biladiki, o'ylangan reja asosida harakat qilmasangiz, biznesda muvaffaqiyatga erishish amrimaholdir.

Shunday qilib, agar o'z shaxsiy biznesingizni tashkil etib, Haqiqiy Boylik yaratmoqchi bo'lsangiz, oldingizga qo'ygan masalalar to'g'risida mulohaza yuritib, keyin endi nima qilmoqchi bo'layotganingiz va buni qachon bajarish niyatidaligingizni rejalashtirishingiz darkor bo'ladi.

Yigitcha kechqurun yozganlarini o'qib chiqdi:

Haqiqiy Boylikning to'rtinchi siri — harakalaming o'ylangan rejasi quvvalidir.

♦ Agar maqsadlaringizga erishishga komil ishonchingiz bo'lishini istasangiz, yo'1-yo'riqni ishlab chiqishingiz va harakatlarning o'ylangan rejasini tuzishingiz kerak.

♦ Har qanday muammoning yechimidagi oltin qoidani yodda tilting — barcha imkoniyatlardan to'la foydalangandek tuyulgan bo'lsa... bilingki, unday emas.

♦ Gar nimagadir erishmoqchi bo'lsangiz, uch narsaga amal qilishingiz kerak: tartibli bo'lish, tartibli bo'lish .. va tartibli bo'lish.

♦ Oldingizga qo'ygan har qanday maqsadga erishishning o'nta imkoni mavjud yo'llarini sanab, o'n banddan iborat reja tuzing.

♦ Bfron-bir ishga unnashdan avval o'zingizga uchta savol bering:

1. Bu xildagi ish menga zavq beradimi?

2. Qobiliyatlarimga bu ish mos keladimi?

3. U baland mavqega erishishm va molyaviy maqsadlrimga yetishuvimni yaqinlashtiradimi?

Beshinchi sir

MAXSUS BTMMLAR QUVVATI

Gloriya Braunning boshidan kechirgan voqeasi, garchi u haqqoniy bo'lsa-da, ajablanarli tuyuladi. U uncha katta bo'lmagan savdo tarmog'i kompaniyasining idora xizmatchisi bo'lib, iqtisodiy inqiroz oqibatida ko'chada qolishgacha o'zining kompyuteri oldida o'tirardi. Kelajakda ish topishga aniq mo'ljal bo'lmasada, u nafaqat tirik qolish yo'ini topdi, balki shaxsiy biznesini tashkily etishga, asoslanganining birinchi yilidayoq u ofisida ishlab topganidan besh baravar ortiq mablag' topishga muvaffaq bo'ldi.

Braun xonim ko'rinishdan 55 — 60 yoshlardagi kichikroq jussali ayol edi. Egnidagi shotlanka matodan tikilgan kostumi yelkasigacha tushgan sarg'ish sochlari va ko'zlariga mos tushgandi. Lekin yigitchaning nazari birinchi navbatda ayolning chehrasiga yarashgan samimiy va issiq tabassumiga tushdi.

Yigitcha Braun xonimning halokatli vaziyatda qolgan chog'ida qay tarzda bunday muvaffaqiyatga erishganini bilishga shoshardi.

— Modomiki siz real boylikka ega bo'lmog'chi bo'lsangiz, — tushuntirdi u, — har qanday voqeadan foydali tomonini yuzaga chiqarishga o'rganmog'ingiz darkor.

Yigitcha kekxa xitoylikning: «Har qanday omadsizlik ortida o'shanga yarashiq yoxud undan-da ortiqroq omad urug'i bor», degan so'zlarini xotirladi. Nahotki haqiqatda ham shunday? — o'zicha o'ylardi u.

— Ishsiz qolganimga bir necha oy davomida hech bir ijobiy tomon topmadim, — so'zida davom etdi jilmayib Braun xonim. — Men tushib qolgan vaziyatdan bag'oyat tushkunlikda edim, chunki istiqbolda hech nimani ko'rmasdim. Keyin kekxa xitoylikni uchratib qoldim. Uyimga muzlatgich buzilib qolganda ta'mirlash xizmatini chaqirdim. Pastroq bo'yi xitoylik keldi. U muzlatgichni ko'rayotganida kofe tayyorladim va suhbatlashib qoldik. Cholga ishdan bo'shaganimga haqida so'zlab berdim, u ko'zlarimga tikilib: «Agar hayot sizga bir eshikni yopsa, boshqasini ochishingiz kerak», — dedi.

Keyin u Haqiqiy Boylik sirlari to'g'risida so'z boshladi. Tabiiyki, uning gaplariga uncha ishonqiramay, lekin qiziqsindim. O'sha kezda hech qanday mablag'siz, yaqin kelajakda biron bir yorug'lik chiqishidan umidsiz, buning ustiga ustak yana muzlatgichsiz qolgandim. Uning gaplarini o'ylab ko'rish kferak edi. Shu bois cholning aytishicha, o'sha sirlarni anglata oluvchi o'n kishidan iborat ro'yxatni qo'limga tutganida, ular bilan uchrashib, bu haqda ko'proq bilib olishga ahd qildim.

Omading kelgani shu-da! Ular hayotimga men uchun eng muhim dars berdilar, unga ko'ra, o'z taqdirim uchun o'zim mas'uliyatli ekanimga angladim. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, yo'limga qanday vaziyatlar ko'ndalangligiga qaramay, istiqbolim uchun javobgarman va o'zim istagancha kelajakni yaratish quvvatiga egaman.

Braun xonimning kuchli hissiyot va ishonch ufurib turgan hikoyasi yigitchaning ruhini ko'tardi — uning so'zlarida samimiy ishonch borligiga hech shubha yo'q edi.

— Menda, ayniqsa, kuchli taassurot qoldirgan sir — bu maxsus bilimlar siri, — dedi u.

— Chol haqiqatni so'zlagan, — dedi yigitcha. Bilim — bu kuch.

—Yo'q! — javob berdi Braun xonim, — bilim — bu yashirin kuch. Ular tartiblashtirilib va harakatlarning o'ylangan rejasi yordamida aniq vazifani aql bilan bajarilgan taqdirdagina kuchga aylanadi.

Yigitcha yon daftarchasiga yozib qo'ydi. Braun xonim esa so'zida davom etardi:

— Boylik to'plash uchun umumiy bilimlar hech qanday qimmatga ega emas, — tushuntirdi u.

— Qulog'ingizga chalingan minglarcha mayda-chuydalarni bilishingiz mumkin, lekin ular sizdagi yashirin imkoniyatlarga hech bir ta'sir ko'rsatmadi yoki sizni biroz bo'lsa-da boyitmadi.

Boshqa tomondan, maxsus bilimlar doimo daromad keltirishga qodir. Qaysi biznesga qo'l urmang, agar o'sha biznes haqida maxsus bilimlarga ega bo'lmasangiz, muvaffaqiyatga erishish g'oyatda mushkul bo'ladi. Bu tushunarlidir: masalan, agar do'stingiz sizga yangi

tashkil etayotgan biznesga — aytaylik, antikvariat bilan savdo qilish uchun pul qo'yishni istamaysizmi, deb so'rasa, unga ilk savolingiz qanday bo'lardi?

— Men undan antikvariat va u bilan savdo qilish to'g'risida nimalar bilishini so'rayman, — deb javob berdi yigitcha.

— Albatta, — rozi bo'ldi Braun xonim, — axir do'stingiz sotib olayotgan va sotayotgan narsalar hamda ularni sotish mumkin bo'lgan bozor to'g'risida hech nima bilmasa, biznesi rivojlanmasligini bilasiz.

Lekin shunday savollarni o'zimizga tez-tez beramizmi? Pul va unga xarid qilish mumkin bo'lgan narsalarga egalik qilishni istaymiz, lekin o'sha pul haqida nimalar bilish zarurligini o'ylab ko'ramizmi? Agar, masalan, soliq to'lash huquqi to'g'risida hech nima bilmasangiz, to'lash zarur bo'lgan miqdordan ko'ra ko'proq soliq to'layotganingizni bexos bilib qolishingiz mumkin. Faqat meni to'g'ri tushuning, sizning soliq to'lovlaridan qochishingizga mutlaqo undayotganim yo'q. Men aytnoqchimanki, modomiki siz amaldagi soliq haqidagi qonunlardan boxabar bo'lsangiz — bu maxsus bilimlarni o'zlashtirsangiz — zarur bo'lgandan ortiqroq darajada katta summalar to'lamasligingizga imoningiz komil bo'lsin.

Yigitcha yana yon daitarchasiga yozishga engashdi. U soliq huquqi va investitsiya dasturlari to'g'risida mutlaqo hech nima bilmas edi. Agar unga biron-bir narsani aniqlashtirishga to'g'ri kelsa-da, xotirjamlikni saqlash uchungina edi. Kim biladi, balki u ham to'layotgan soliqlari miqdorini qonuniy yo'llarini topa olar.

— Basharti, maxsus bilimlarga ega bo'lsangiz, har qanday majburiyatlar bo'yicha to'lanadigan hisoblarni kamaytirish imkonini topa olishingiz mumkin, — dedi Braun xonim.

— Qay tarzda? — so'radi yigit.

— Kredit kartochkasi bilan to'lov yaxshi misollardan biri hisoblanadi, — tushuntirdi Braun xonim. — Ko'pchilik qarzlarni kredit kartochkalari ko'magida to'laydi va natijada bu kartochkalarni chiqarayotgan kompaniyalarga juda baland foiz to'laydi. Ular qarzni to'lash uchun zarur mablag'ni bankdan olib, to'lov foizlarini kamaytirishlari mumkin. Banklar odatda anchagina pastroq foiz belgilaydilar. Shu tarzda har oylik to'lovlarni ancha kamaytirish mumkin.

— Rostdanmi? — xitob qildi yigitcha.

— Aytnoqchisizki, kredit kartochkalari foizlari ko'rinishida har oyda to'layotgan pul miqdorini kamaytirishim mumkinmi?

— Albatta, — tasdiqladi Braun xonim.

— Bo'lishi mumkinmas. Shu paytgacha naqadar go'l bo'lgan ekanman, — o'zicha ming'irladi u.

— O'zingizdan bunchalik o'pkalamang, — dedi Braun xonim.

—Endi maxsus bilimlar nima sababdan naqadar muhim ekanini anglay boshlayapsizmi?

— Anglaganda qandoq! — dedi yigitcha.

— Agar baland maosh to'lanadigan ish topishni istasangiz maxsus bilimlar yanada ahamiyatlidir, — davom etdi Braun xonim.

— Basharti, yuqori maosh olishni istasangiz, uni qaysi ishda olishingiz zarurligi va buning uchun qanday maxsus bilimlar talab etilishini aniqlashingiz lozim. U yerda qanday malaka talab etilishi va shunday malakaga qay tarzda ega bo'lishingizni ham bilish kerak.

Xuddi shuningdek, agar o'z shaxsiy biznesingizni ochish niyatida bo'lsangiz, avvalo o'sha biznes haqida zarur bo'lgan hamma narsani bilishingizga ishonchingiz komil bo'lishi lozim.

— Bularning barchasi tushunarli, — dedi yigitcha, — lekin hamma narsani bila olmaysiz-ku.

— Gapingizda jon bor, — javob berdi Braun xonim. — Umuman, shaxsan sizda hamma savollarga javob bo'lishini nazarda tutayotganim yo'q. Biroq shu javoblarga yo'l bo'lishi zarur. Agar soliqlar haqida ma'lumotga o'zingiz ega bo'lmasangiz, ular haqida yaxshi biladigan ishonchli hisobchini ishga olishingiz kerak; agar biznesingiz shug'ullanayotgan mahsulot yoki xizmat haqida maxsus bilimlardan bexabar bo'lsangiz, bundan yaxshi xabardor odam bilan ishlashingiz darkor va biznesning biron-bir tomoni — aytaylik, marketing haqida bilmasangiz, sotuvchi chiqarayotgan mahsulot yoki xizmat turining marketingi piri hisoblangan kishini ishlatishingiz zarur.

Hech qanday, hatto eng zo'r huquqshunos ham barcha qonunlarni batamom bilishi mahol. Inson barchasini kallasiga sig'dira olishi mumkin bo'lmagan juda ko'p qaror va sud qoidalari mavjud. Bundan tashqari, qonunlar doimo o'zgarib turadi. Lekin yaxshi huquqshunos bu qonunlar haqida nima bilish zarur bo'lsa, hammasini qayerdan topishni biladi.

— Siz boylik yaratish uchun nima qildingiz? — so'radi yigitcha.

— Daromad keltiruvchi boshqa manba topishim zarurligini angladim, lekin hamma gap men nima ish bajara olishimda edi. Yoki nima haqda maxsus bilimlarga egaligimda edi. Bu savolga javob shuki, juda kam bilar ekanman. O'sha kam bilimim ham kompyuterlar haiqidadir. Hech qanday haqiqiy malakam yoki biror maxsus bilimlarim ham yo'q edi. Lekin boylik yaratmoqchi ekanman, mazkur ahvolni tuzatishim kerakligini bilardim.

Men kechki maktabga borib kompyuter texnologiyasini o'rganishga qaror qildim. Kompyuterlar har qanday biznesning hayotiy muhim qismiga aylanayotgani bois kompyuter texnologiyasi deyarli har qanday biznesda qo'llaniladi, degan xulosaga keldim.

Hammasini yaxshilab o'ylab ko'rdim. Kichikroq kompyuter, printer va telefon ko'magida uyda o'tirib maslahat berishday kichikroq biznesdan ish boshlashim mumkin edi. Men qator tashkilotlarga qo'ng'iroq qilib, ular o'z ofislarida kompyuterlardan foydalanishadimi, agar foydalanishsa, nimalarda ishlatishlari va bunda qanday muammolarga duch kelishlarini surishtirib aniqladim.

Yigitcha tabassum qildi.

— Tushunarli... bo'lg'uvsi mijozlar va ularning hojatlari haqida maxsus bilimlar, — dedi u.

— Xuddi shunday. Shu tariqa qaysi sohada xizmat ko'rsatishim mumkinligi haqida ma'lumotlarni belgilab oldim. Balki bu sizga to'g'ri keluvchi maxsus bilimlarning eng muhim qismidir, bu bilim — kelgusidagi mijozlar ehtiyojlari haqida maxsus bilimlar. Agar siz odamlar nimani xohlashlari va nimaga talabgorliklarini bilsangiz, har qanday ishda muvaffaqiyatga erisha olasiz. Ko'pgina kishilar biznesga kirishganida nima sotishga diqqatini qaratadilar, lekin xaridor nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'zlariga: «Xaridor nima sotib olmoqchi va nimaga ehtiyojmand?» deya savol berib. so'ng uning ehtiyojini qondirishga harakat qilganlargina muvaffaqiyatga erishadilar.

Bo'lajak mijozlarim ehtiyojlarini aniqlab olganimdan so'ng xizmatlarim ular ishining samarasini oshirish va pulini qay tarzda iqtisod qilishini ta'kidlagan takliflarimni shakllantirishga muvaffaq bo'ldim. Texnik jihozlash va ularning aniq talablarini qondiruvchi maxsus dasturiy ta'minot tayyorlash, shuningdek, ularga kompyuterlaridan avvalgidan ko'ra yaxshiroq foydalanishlari mumkinligini ko'rsatish qo'limdan kelardi. Hammasining nihoyasida boshqarish xarajatlarini bir yil mobaynida iqtisod qilish natijasida menga to'lagan ish haqining o'rnini to'ldirishlari mumkinligini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ldim. Shunday qilib hamma xursand edi. Ilk mijozim kim bo'lganini bilasizmi?

Yigit yo'q deganday boshini chayqadi.

— Meni ishdan bo'shatgan kompaniya. Ular iqtisodiy tanazzul oqibatida aziyat chekkanidan xabardor edim, shu bois qo'limdagi raqamlar bilan maxsus dasturlardan samarali foydalanish hisobiga ular boshqaruv xarajatlarini kamida 25 foyizga kamaytirish mumkinligini ko'rsatdim. Mazkur kompaniyaning qanday ishlashi to'g'risida bilganlarim asqotgani uchun olti oydan so'ng yangi kompyuterlar o'rnatilgani va ularni dasturiy ta'minlanilgani tufayli kompaniya o'zining 35 foiz xarajatlarini kamaytirdi. Bu shu darajada qo'l keldiki, ular har yili o'z ma'muriy faoliyatlarida kompyuterlardan qanday foydalanayotganliklarini nazorat yetib turishim uchun menga doimiy ravishda maosh to'lashni taklif qildilar.

Bir yil davomida 25 ta bitim tuzdim va ofisdagi lavozimda oladigan maoshimdan besh barobar ortiq pul topdim. Kelasi yili biznesim shu qadar rivojlandiki, endi odamlar yo'llab ishlatishga majbur bo'ldim va uch yil mobaynida daromadim bir million funtdan oshib ketdi.

Ko'rib turganingizdek, keksa xitoylikning har qanday omadsizlik ortida xuddi shu miqdorda yoki undan-da kattaroq omad ildizi bor, degan so'zlari haq ekan. Axir o'shanda ko'chada qolmaganimda, kompyuter texnologiyasini o'rganmagan bo'lardim va bugun o'tirgan joyimda hech qachon bo'lmasdim.

— Bularning barchasi maxsus bilimlar natijasidir, — dedi yigitcha.

— Maxsus bilimlarning o'ziyoq muvaffaqiyatga kifoya qilmaydi, — dedi Braun xonim. — Esingizda bo'lsin, Haqiqiy Boylikning o'nta sirining har biri birdek muhimdir.

Lekin katta sarmoya to'plashga erishgan biron-bir shaxs o'z biznesi sohasi soliq huquqi, investitsiya va omonatlar dasturlari haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lmay turib buning uddasidan chiqmaydi.

— Aytinchi, — so'radi yigitcha, Braun xonim bilan xayrlashishdan oldin, — keksa xitoylik ishlaydigan kompaniyaning nomi qanday ataladi?

— Nima qilasiz? Siz chol bilan uchrashmoqchimisiz?

— Ha.

— Afsuski, men urinib ko'ldim. U bilan uchrashganimdan uch oy o'tgach, cholni qayerdan topishim mumkinligini bilish uchun bosh ofisga qo'ng'iroq qildim.

— Xo'sh, ular nima deb javob qilishdi?

— Javob ajabtovur qiziq bo'ldi, — dedi Braun xonim. — Kompaniyada qachon bo'lsa-da biron-bir xitoylik ishlagani to'g'risida umuman ma'lumot yo'q ekan!

Kechqurun yigitcha yozuvlarini qaytalab o'qib chiqdi.

Haqiqiy Boylikning, beshinchi siri — maxsus bilimlar kuchi.

♦ Qachon bo'lmasin katta boylik to'plashga muvaffaq bo'lgan biron-bir shaxs o'z biznes sohasining soliq huquqi, investitsiya va omonatlar dasturlari, shuningdek, xaridorlarining istak va talablari haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lmay turib buning uddasidan chiqmaydi.

♦ Bilimlar harakatlarning amaliy rejasi asosida aniq maqsadga erishish uchun to'g'ri tashkil etilgan va aql bilan ishlatilgan taqdirdagina kuch bo'lib hisoblanadi.

♦ Siz o'zingiz hamma narsani bilishingiz shart emas, lekin kerakli ma'lumotni qayerdan va qanday topishni bilishingiz kerak.

Oltinchi sir QAT'IYAT QUVVATI

Yigitcha ro'yxatdagi oltinchi kishi bilan dam olish kuni uchrashdi. Styuart Ijli taniqli aktyor edi. U mamlakatning narigi burchagida ishlardi, lekin bo'sh vaqtida Londonga uchib keldi va yigitchadan xabar topganidan so'ng shanba kuni ertalab shahar markazidagi qahvaxonada uchrashishga rozilik bildirdi.

Taniqli inson bilan ko'rishmoq yigitni ich-ichidan biroz qaltiroqqa solsa-da, tayinlangan joyga kelgach u anchayin odmi, jozibador ko'rinishli odamni uchratdi. Janob Ijli yigitcha bilan eski tanishiday so'rashdi.

Janob Ijuning yoshi qirqlarga borib qolgan bo'lsa-da, u ancha yoshroq ko'rinardi. Yaltiroq qora sochli bu kishining bolanikiday yirik va beg'ubor ko'zlarini chetiga zarhal yuritilgan ko'zoynaklari yashirardi. Egniga jigarrang kamzul va ko'k shim kiygandi.

— Demak, o'tgan haftada siz keksa xitoylikni uchratdingizmi? — so'radi u yigitchadan.

— Ha, — javob berdi u va uchrashuv tafsilotini so'zlay ketdi

— Men uni o'n ikki yil avval uchratgandim, — dedi janob Ijli. — Xuddi mana shu qahvaxonada. O'sha birgina uchrashuv mavqeim va hayotimni o'zgartirdi.

— Qanday qilib? — so'radi yigitcha. O'shanda boshimdan ancha mushkul ahvolni kechirardim. Doimiy ishim yo'q edi, bir amallab kun ko'rish umidida shu yerda taom tashuvchi sifatida pul topardim. Kunlarning birida kichikkina jussali xitoylik kirib, xuddi biz o'tirgan stolga kelib o'tirdi. Bu kun peshindan so'ng, tinch-osoyishta vaqt edi. Chol bilan salomlashdim va tezda oramizda suhbat qizib ketdi.

Men ishsiz aktyorligimni aytib, kasbimiz muammolari bo'lmish moliyalashtirilishi yetarli bo'lmagan darajadagi eng kam sonli rollar uchun haddan ziyod odamlar talashayotgani to'g'risida so'zlab berdim. To'qson foizdan ziyod aktyorlar istagan vaqtda yoki ishsiz, yoki hayot kechirish uchun boshqa ish bilan mashg'uldirlar. Shunda chol dedi:

— Sen to'g'ri keladigan sharoitlarni kutib o'tirolmaysan. Ularni yaratishni boshlashing kerak.

O'zimni himoya qilish uchun ko'pgina tanlovlarda ishtirok etsam-da hech qanday rol ololmaganimni tan oldim. Chol nigohini kosadan uzib menga qaradi va:

— U holda toshkesar singari harakat qilmog'ing darkor, — dedi.

Men bu bilan nima demoqchi bo'lganini so'radim. U javob berdi:

— Toshkesar toshni uraversa unda hatto darz ham paydo bo'lmaydi. Lekin qat'iyat bilan o'z ishini davom ettirsa, tosh yoriladigan muddat keladi. Toshni yorish uchun birgina zarb yetarli emas. Buning uchun bir necha zarblar yig'indisi zarur. Agar siz toshni tarashlab, muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsangiz, tosh yorilguniga qadar uni sabot bilan uraverishingiz zamm.

«Men to'rol olmaganimcha tanlovlarda ishtirok etaverishim kerak deb hisoblaysizmi?» — so'radim. «Albatta», — tasdiqladi u.

— Maqsadiga yeta oladigan va buning uddasidan chiqolmaydigan kishilar o'rtasidagi farq qobiliyatda bo'lishi shart emas, bu — sobitlikda!

Boshqalar yengilgan yerda qat'iyatli kishilar muvaffaqiyatga erishadilar».

Keyin u o'z mavqelariga yetisha boshlagan chog'da rad etilgan Silvestr Stallone, Klint Istvud, Sin Konneri kabi ayrim kino yulduzlarining ism-shariflarini keltirdi. Silvestr Stallone to'g'risida uncha yaxshi gaplar bo'lmaganini, hatto vakolatini taqdim etuvchi vakilni ham topish unga qiyin kyechgani, nihoyat, o'zi bosh rolni o'ynashi kerak bo'lgan shaxsiy ssenariyni yozishga qaror qilganini aytib berdi. Qo'lyozmasini yuborgan kinoprodynsserlar birin-ketin qaytarib bersa-da, u sabot bilan yangi va yangi manzillarni topib, axiyri bir kompaniya filmni suvratga olishga rozi bo'lguniga qadar tinchimadi. Muallif filmdagi bosh rolni boshqa birov o'ylamasligi zarur, degan shartni qo'ydi. O'sha kezlarda Stallone pulga nihoyatda muhtoj bo'lsada, o'z tamoyillaridan chekinmadi va fikrida qat'iyat bilan turdi, natijada kompaniya «Roki» filmidagi bosh rolni unga berishga rozilik bildirdi. Ko'p kompaniyalar yuz o'g'irgan film eng yaxshi asar sifatida yolg'iz Oskar

mukofotiga sazovor bo'ldi. Ko'rib turganingizday, Silvestr Stallone o'z muvaffaqiyatiga nafaqat noyob qobiliyati, balki qat'iyati tufayli erishdi.

Keksa kishining hikoyasi meni ilhomlantirdi. Qat'iyatning muhimligini uncha anglamagandim va eng zo'r yulduzlar ham rad etilishi munimligini hatto tasavvur ham qilolmasdim. Keyinchalik esa ular nafaqat rad etishga to'g'ri kelishi, balki ayrimlari bundan tez-tez aziyat chekishlarini bilib oldim. So'ngra chol menga Haqiqiy Boylik sirlari hoqida so'zlab berdi.

— Xo'sh, siz bu haqda nima deb o'yiaysiz — so'radi yigitcha

— Avvaliga eshitganlarimga ishonqiramay qaradim, — dedi janob Ijli.

— Ular haqida ko'proq bilish va bundan hech nima yo'qotmasligim bois, menga qanday yordam berishlarini ko'rishga qaror qildim. Ayni shu ondan boshlab hayotimda katta o'zgarishlar yuz berdi. Yonimda bir mirisiz holda qahvaxonadagi xo'randalarga xizmat qilardim, bir yil o'tmay, birinchi rolimni olishga va chorak million dollar miqdorida bitim tuzishga muvaffaq bo'ldim.

— Hazillashayapsizmi? — xitob qildi yigitcha. — Hayotingiz shu qadar keskin o'zgardimi?

Janob Ijli bosh irg'adi.

— Bu sirlarning quvvatida. Keksa xitoylikni uchratgan chog'da o'zimning artistlik mavqeimga ishonchni yo'qotishga ulgurgandim. Buni yorib o'tishning iloji yo'qday tuyulardi. Mening o'z ishonchli vakilim ham, biron-bir rolim ham yo'q edi. O'ttizdan ortiq vakillar tomonidan rad etilgandim, ulardan ayrimlari hatto boshqa ish topishni maslahat berardi. Ular talabga javob bermasligimni uqtirardilar. Mana, endi qariyani uchratganimdan keyin Haqiqiy Boylik sirlaridan boxabar bo'ldim.

Har qaysi vaziyatda barcha sirlar menga yordam berdi, ammo hozir orqaga nazar tashlab, eng ahamiyatlisi — qat'iyat kuchini o'rganishdiligini ko'rayapman.

Yigitcha yozishmalarini qayd etish uchun tayyor yon daftarchasi va qalamni oldi.

— Sabot — bu shunday xususiyatki, inson erishayotgan yutuqlarda uni doim ham to'g'ri baholamaydi, — davom etdi janob Ijli. — Amerika Qo'shma Shtatlarining to'rtinchi Prezidenti Kelvin Kulij shunday yozgandi:

«Olamda qat'iyatni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Uning o'rnini iste'dod bosolmaydi — iste'dodli omadsiz kabi hech kimni bot-bot uchratolmaysiz. Uning o'rnini daholik ham bosmaydi — tan olinmagan daholar maqollarga kiritilgan. Birgina ma'lumot ham yetarli emas — dunyo nazaidan qolgan ma'lumotli kishilarga to'la. Faqat sabot va qat'iyatlilik hammasidan kuchlidir».

Boylikka yoki o'z sohasida biron-bir yetakchi mavqega bo'lmasin, muvaffaqiyatga erishgan kishining omadsiz insondan muhim farqlaridan biri shuki, ilg'orlar doimo qat'iyat ko'rsatadilar, ular hech qachon osonlikcha jon bermaydilar. Hatto to'siqlar yoki qarshiliklarga duchor bo'lsalar-da, ular aslo chekinmaydilar. Ular nimeni istashlarini aniq biladilar va niyatlariga yetmaguncha maqsad sari intilaveradilar.

Mohiyatan insoniyatning butun tarixi mobaynida eng ko'p muvaffaqiyatga erishganlardan ko'pchiligi sabotli bo'lmaganlarida buning uddasidan chiqolmasdilar.

Siz o'zingizni mahsulot yaratishga urinayotgandek tasavvur qiling. Maqsadga yetishdim deb hisoblashingiz uchun qancha urinishlar talab etila-di? Yuzmi? Mingmi? Ikki mingmi? Balki besh mingdir?

Yigitcha yelkasini qisdi.

— Hamma zamonlarning eng omadli kashfiyotchilaridan biri bo'lmish Tomas Edison, — davom etdi janob Ijli, — jahonda birinchi elektr lampochkani kashf etishdan avval o'n mingdan ziyod alohida urinishlar qilishiga to'g'ri kelgan. Basharti u shunchalik qat'iyat ko'rsatmaganda, balki biz hozirgacha elektr yoritishga ega bo'lmasmidik. Yoki o'zingizni rok-guruh a'zosi deb tasavvur etib ko'ring. Siz o'z urinishlaringiz behuda ekanini tan olishdan avval ovoz yozish kompaniyasidan necha marotaba rad javobini olishingiz kerak? Beshmi? O'nmi? Balki yigirmami?

— O'ylaymanki, yigirmanchi martadan keyin chekinardim, — jilmaydi yigitcha.

— Shundaymi, lekin bitta guruh aslo chekinmadi. Agar ular shunday qilganida eng zo'r rok-guruhlardan biri bo'lolmasdilar. Chunki *Bitiz* guruhi nihoyat yozuv uchun o'zlarining ilk bitimlarini tuzmagunga qadar ellikta har xil kompaniyalardan rad javobini olgandilar!

Sizga so'nggi misolni keltirishga ijozat etgaysiz. Buyuk davlat arbobi bo'lmoqni orzu qiluvchi yigitni tasavvur qiling. Barcha zo'r harakatlariga qaramay, o'ttiz ikki yoshida to'la bankrotlikka duchor bo'ladi. O'ttiz beshga yetganida yoshlikda ko'ngil bergan ayol vafot etadi, oradan bir yil o'tgach, u asab buzilishi dardiga duchor bo'ladi. Keyingi yillarda u birin-ketin bir necha saylovlarda mag'lubiyatni boshidan kechirdi. U o'z urinishlaridan qachon voz kechishi kerak, deb o'ylaysiz?

— Bilmadim, lekin bu kishi hech qachon davlat arbobi bo'lmaydiganga o'xshaydi. Janob Ijli jilmaydi.

— Men hikoya qilgan kishi — Avraam Linkolndir.

Yigitcha yon daftarchasiga nimalarnidir yozib qo'ydi.

— Hayotda shunchalik ko'p narsalarga yetishgan insonlar qachonlardir mag'lubiyat alamlariga chidagan yoki rad etilganliklaridan hatto, bexabar edim, — dedi u.

— Albatta. Aslida ilg'or kishilar o'z muvaffaqiyatlariga erishishlarining sababi ham mag'lubiyatlarga shuncha bor duchor bo'lganliklarida.

Yon daftarchasiga navbatdagi yozuvni bitgan yigitcha jilmaydi.

— Tushunmayapman, — dedi u boshini ko'tarib, — agar biz urinishlarni qayta-qayta davom ettiraversak, oxir-oqibatda muvaffaqiyatga erishamiz, demoqchimisiz?

— Ha. Ko'pincha shunday, — javob berdi janob Ijli, — shart shuki, biz xatolarimiz orqali o'rganamiz. O'z lampochkasini yaratish uchun Tomas Edison birgina tajribani o'n ming marta takrorlagan, har safar u qandaydir yangilikdan xabar topib, kerakli o'zgarishlarni kiritavergan.

— Qat'iyat — bu hammamizning bolalik chog'imizdagi sifatidir, — davom etdi janob Ijli. — Masalan, qachon bo'lmasin uzoq vaqt kurash va har kuni yiqilaverishdan so'ng nihoyat yurishni o'rganib olgan bolani ko'rganmisiz?

— Nima uchun biz o'sha sifatni yo'qotib boramiz? — so'radi yigitcha.

— Ba'zan omadsizlik va inkorlardan qo'rqamiz. Gohida o'zimizga ishonchni yo'qotamiz. Lekin eng asosiysi: omadsizlik va inkor — muvaffaqiyatning eng muhim tomoni ekanligini unutamiz. Amalda qancha ko'p omadsizlik va inkorni boshdan kechirsangiz, shuncha katta yutuqqa erisha olasiz.

— Anglayolmayapman, — dedi yigitcha. — Bu qay tarzda bo'lishi mumkin?

— Chunki omadsizlik va inkorlar — muvaffaqiyat sari yetaklovchi zinapoyaning zaruriy bosqichlaridir. O'z xatolarimiz orqali o'rganamiz va natijada maqsadga yaqinlashamiz. Jorj Bernard Shou aynan shunday yo'l tutgan. U: «Men yoshligimda o'nta ishimdan to'qqiztasi omadsiz bo'lganini sezardim. Omadsiz bo'lishni istamaganim uchun o'n baravar ko'p ish bajarar edim», — degandi.

Tanlagan yo'lida katta yutuqqa erishgan har qanday kishini olishingiz mumkin, — tushuntirdi janob Ijli, — ular muvaffaqiyatga erishishdan avval albatta, qator omadsizlik va inkorlardan o'tganliklarini bilib olasiz.

Men o'zimga ilk bor qat'iyatning muhimligini kashf etganimda mashhur aktyor bo'lish u yoqda tursin, biron-ta rol olish umidini ham yo'qotib qo'ygandim. Lekin basharti muvaffaqiyatga erishmuqchi bo'lsam, o'z urinishlarimni tinmay davom ettirishim zarurligini angladim. O'zimga va qobiliyatimga ishonardim. Aniq maqsadim bor edi, o'zimga o'ylangan harakatlar rejasini tuzib oldim va nihoyat, to'qqiz oydan keyin rol olmaganimcha ish izlashni davom ettirdim.

— Biroq, siz doim omadsizlikka uchrab, hech qanday natijalarga erishmasangiz, qat'iyatli bo'lish ancha qiyin kechadi, — dedi yigitcha.

— Buni hech kim oson deyayotgani yo'q, — dedi janob Ijli. — Basharti bu oson bo'lganida har kimning qo'lidan kelardi. Lekin muvaffaqiyatga erishuvchi kishining omadsiz insondan farqi shundaki, yutuqqa yetisha oluvchi odamga omadsizlik degan gap yo'q — bu shunchaki o'rganishi darkor bo'lgan tajriba.

— Boshqacha aytganda-chi?

— Agar kutilgan natijaga erishmasangiz, bundan tegishli xulosa chiqarasiz va takror urinasiz. Aslida biron-bir muvaffaqiyatga erishishda xatolar qilib, ulardan saboq olib va ilgarilashda davom etishdan bo'lak yo'l yo'q. Teodor Ruzvelt bu fikrni shunday ifodalagan:

«Na g'alaba, na yengilishlar bo'lmaydigan g'ira-shirada yashovchi, na katta g'alabalardan, na katta aziyatlardan bexabar bu bechora kishilar bilan tenglashgandan ko'ra, katta yo'qotishlar ehtimoli mavjud gardkamlikka borish, garchi ba'zan yengilishlar bilan almasha-da, shuhratli g'alabalarni qo'lga kiritish yaxshiroqdir».

Shunchalik kam kishilar muvaffaqiyatga erishishining sabablaridan biri shuki, ular omadsizlik va inkor etishlardan o'tishni istamaydilar.

Lekin omadsizliklarga qaramay, qat'iyatni kuchaytirishga yordamlashuvchi bir narsa bor.

— Xo'sh bu nima ekan? — so'radi yigitcha.

— *Har bir urinishning tahlili.* Men odamlar yengilganidan keyin, odatda qaysi o'rinda noto'g'ri ish tutganlariga e'tibor berishga harakat qilishlarini nazarda tutayapman. Bu esa ularning o'zlarining qadr-qimmatlari pasayishiga, o'ziga nisbatan ishonchsizlikka olib keladi va yana qayta sinab ko'rishga ularni hech qanday kuch majbur qilolmaydi. Muvaffaqiyatga erishganlar o'z diqqatlarini to'g'ri bajarilgan ishlarga jamlaydilar.

Shunday qilib, agar ular hatto istagan natijaga erisholmasalar-da, o'zlariga «Qaysi lahzagacha to'g'ri harakat qildim?» degan savolni beradilar.

— Fikringizni unchalik anglayolmadim, — dedi yigitcha.

— Aytaylik, kompyuter sotuvchisi xaridor bo'lmoqchi bo'lgan kishiga qo'ng'iroq qiladi. U o'zini tanishtirganidan so'ng undan yangi kompyuter sotib olish istagi bor yoki yo'qligini so'raydi. Undan «yo'q» degan javobni eshitadi. Bo'ldi, gap shunda to'xtadi. Uning harakatlari davom etar ekan, kelgusida unga asqotishi mumkin bo'lgan qaysi ishi to'g'ri? U telefonda bo'lajak xaridor bilan bog'lanib, o'z molini tavsiya etdi. Avvalgi safar olgan saboqlari bilan u ikkinchi bora urinib ko'radi, lekin bu safar boshqacha savol beradi. Keyingi xaridor bo'lishi mumkin bo'lgan kishidan y, biznesi uchun eng yangi kompyuter texnologiyasi haqidagi ma'lumotlar qiziqtiradimi, deya so'raydi.

Bu gal u kishi bu ma'lumotlar qiziqarli ekani, ammo ular bilan tanishishga vaqti yetishmasligini aytadi. Sotuvchining qaysi harakatlari to'g'ri edi? U boshqacha savol berib, xaridor bo'lishi mumkin bo'lgan kishi yangi kompyuterlar to'g'risida o'ylash uchun nihoyatda bandligini aniqlaydi. Sotuvchi yana bir bor urinib ko'rmoq uchun boshqa bir xaridorlikka nomzod bilan telefonda bog'lanadi: «Ofisingizni boshqarish uchun sarflayotgan xarajatlaringiz va vaqtingizni kamida ellik foizga qanday qisqartirishingiz mumkinligini ko'rsatib berishim uchun besh daqiqa vaqt ajrata olasizmi?» degan yangi bir savolni beradi.

Bu xaridorlikka nomzod ham o'ta band, ammo o'z xarajatlarini kamaytirishni bilishga qiziqadi. Ish vaqti nihoyasida besh daqiqa vaqtini ketkazishdan o'zga hech nima yo'qotmagani bois u uchrashuvga rozilik bildiradi. Sotuvchi uchrashuvga erishdi. O'z molini sotish imkoniyati paydo bo'ldi.

Barcha buyuk kashfiyotchilar aynan shunday fikrlaydilar. Ular o'zlariga: «Ishimni davom ettirish uchun imkon beruvchi nima ish qildim?» deya savol beradilar. Agar yangi boshlangan har qanday faoliyat, — xoh u biror-bir mahsulot sotuvi yoki boylik yaratish bo'lsin — qat'iyatni namoyon etmoqchi bo'lsak, aynan o'sha savolni berishimiz zarur.

Yigitcha qandaydir yozuvlarni tezgina yozdi, janob Ijli esa gapida davom etardi:

— Hayotimizni taqdir bitgan deb o'ylashga o'rganganman. — dedi u. — Yulduzlar bizga yo nimanidir belgilaganlar, yoxud yo'q. Lekin endi ishonchim kamillik barchamiz o'z taqdirimizni o'zimiz yaratish quvvatiga egamiz.

Tasavvur etayotganlarimiz qachon bo'lmasin, boshimizdan kechirish mumkin bo'lgandan anchagina ziyodroqligini anglash kabi hech nima kishini shu darajada ilhomlantirmaydi. Qanday bo'lmasin, busharti toshkesar singari zarb urishni davom ettiraversak, muvaffaqiyatga erishamiz.

Janob Ijli cho'ntagidan buklab taxlangan qog'oz oldi.

— Buni qat'iyat quvvati to'g'risida eslatma sifatida doimo yonimda olib yuraman, — dedi yigitchaga qog'ozni uzatarkan.

Yigitcha buklangan xatni ochib, o'qidi:

Orqaga chekinmangiz!

*Ba'zan yuz beradigan hamma ishlar yomon kechsa,
Siz sudralib ketayotgandek tuyulgan yo'l doim tog'tomonga yo'nalgan,
Pulingiz kam, qarzingiz esa ko'p bo'lganda,
Siz jilmayishni istasangiz-da, xo'rsinmoqqa majbur bo'lsangiz,
Tashvishlar sizni ezib yuborganda,
Basharti ehtiyojingiz bo'lsa, damingizni oling,
Lekin aslo chekinmangiz!*

Ba'zan hayot bizni qanday burilishlar va o'zgarishlarga duchor etishini hammamiz bilamiz,

Basharti, biz oxirigacha chidam ko'rsatsak, ko'pgina mag'lubiyatlar g'alabaga aylanadi.

Olg'a siljish sekinlik bilan bo'layotgandek tuyulgani tufayli chekinmang. Keyingi zarba sizga g'alaba keltirishi mumkin.

*Omad — omadsizlikning aks tomoni, Ikkilanish bulutlarida kumushsimon chaqmoq —
Va siz maqsadga naqadar yaqinligingizni hech qachon bilmaysiz,
Uzoqday tuyulgandan ko'ra balki ancha yaqinroqdir,
Sizga qiyin bo'lgan sari, kurashga yanada chuqurroq kirishing.
Ishlaringiz qanchalik yomon ketayotgan bo'lmasin — chekinmangiz!*

Edgar A.Gest

Shu kuni kechqurun yigitcha hayoti haqida ro'y-rost uzoq o'yladi. Ko'p yillar ortga nazar tashlab, shunga amin bo'ldiki, qaysarlik va chidam sifatlarini rivojlantirishga mutlaqo harakat qilmabdi. uning yo'lida biron qiyinchilik yoki to'siq uchrashi bilan hech ikkilanmay ortga chekinar va undan osonroq nimadir izlay boshlar ekan.

Endi, janob Ijli bilan uchrashganidan so'ng, modomiki biron-bir narsada muvaffaqiyatga erishishni xohlasa, u o'zgarish uchun qat'iy qaror qilishi va toshyo'nar singari yo'l tutishi zarur ekanligini angladi.

Uning yo'lida qanday to'siqlar duch kelsa, to muvaffaqiyatga erishmagunicha qat'iyat bilan olg'a ilgarilashi zarur.

Yigit yon daftarchasini oldi-da, janob Ijli bilan suhbatlashayotgan chog'da yozganlarini yana bir bor qayta o'qib chiqdi:

**Haqiqiy Boylikning oltinchi siri —
qat'iyatlilik kuchi.**

♦ Muvaffaqiyat odatda birgina zo'r berish natijasida yuzaga kelmaydi, u ko'pgina zo'riqishlar mahsulidir.

♦ Muvaffaqiyatga erishgan va bunga yetisholmagan kishilar orasidagi farq odatda ular iste'dodida emas, balki qat'iyatda!

♦ Istagan natijaga erisholmagan har qanday harakatdan so'ng o'zingizga doim: «Qaysi lahzaga qadar to'g'ri harakat qildim?» degan savolni bering. Bu sizni kelgusi harakatga doimo ilhomlantiradi.

Agar siz toshyo'nar singari harakat qilsangiz va doim qat'iyat ko'rsatsangiz, har bir harakatingiz tajribasidan xulosa chiqarib, o'rgansangiz, sa'yharakatlaringiz har doim muvaffaqiyatli bo'ladi.

**Yettinchi sir
SARF-XARAJATLARNI
NAZORAT QILISH QUVVATI**

Yigitchaning ro'yxatida navbatdagisi Judi Ormen ismli ayol edi. Yigit unga ertalab qo'ng'iroq qilib, tushdan so'ng uchrashishni kelishib oldi.

Ormen xonim o'z biznesini boshqarayotgan ofis shaharning janubiy chekkasida edi. Bu salobatli, ko'rkam, ancha jozibali, o'rta bo'yli, chuqur jigarrang ko'zli, uzun sochlari o'rilgan habash ayolning egnidagi keng qizil sviter va qora legging qomatiga yarashimli edi.

Ormen xonimning ofisi uyining orqa qismida edi. Bu yorug', keng xona edi. Yigitning nazari uy ichkarisidagi burchakda qadimiy uslubda bezatilgan yog'och stol, o'shanga mos suyanchig'i baland kresloga tushdi. Xona stolning o'ng tarafida avtomatlashtirilgan ishchi o'rindagi kompyuter, ikkita telefon hamda anchagina zamonaviy ofis jihozlaridan iborat edi.

Stolning chap tomonidagi ayvon eshigidan boqqa qaragan ochiq ravonga chiqish mumkin edi. Bog' yaqinida zumrad o't bosgan yalanglikda serbarg majnuntol bo'y cho'zgan va undan bir necha qadam narida bir qavatli yog'och uycha turardi.

Bu ajib manzaraga bog' tegrasida oqqan suv o'ziga xos joziba bag'ishlardir.

— Naqadar go'zal manzara, — dedi yigitcha. — Ishdan uzilib derazadan boqish juda maroqli bo'lsa kerak.

— Rahmat, — jilmaydi Ormen xonim. — Ayni haqiqatni aytdingiz. Men uyda ishlash va daryoni tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'lishni doimo orzu qilardim. Bu tariqa ishlashning eng yaxshi tomoni, albatta, tiqilinch transport yoki poyezdda har kuni behuda vaqt sarflangandan ko'ra oilam bilan ko'proq birga bo'lishimdir. Har kuni ishga borib kelish uchun uch soatga yaqin vaqti ketadigan kishilarni taniyman. Tasavvur qilib ko'ring: o'n bir haftada o'n besh soat yoki butun boshli ikki ish kuni demakdir!

Vaqt — olamda eng qimmatbaho ne'matdir, hatto oltindan-da qimmatli, axir u behuda ketsa, ortga sira qaytarib bo'lmaydi.

Ormen xonim imlab yigitni o'tirishga taklif etdi, o'zi ham yoniga cho'kdi.

— Xo'sh, Haqiqiy Boylik sirlaridan xabardormisiz? — so'radi u.

— Ha, — javob berdi yigitcha. — Ular haqida ilk bor qanday bilgansiz?

— Hozir aytib beraman. Bu haqda ilk bor o'n yil avval eshitgandim. O'shanda yashash sharoiti hozirgiday emasdi: birinchi erim bilan ajrashgan chog'im edi, qulog'imgacha qarzga botgandim To'lov kartochkalarim bo'yicha minglab funt qarzim borligi bois qarz bergan kompaniyalar meni tinimsiz ta'qib etishar va uning evaziga yashab turgan uyimni olib qo'yishmoqchi edi. Sud qaraz beruvchilar bilan ishlarni jo'nashtirishim uchun bir oy muhlat berdi, undan keyin barcha mulkimdan ajrardim.

— Voy, xudoyim-ey, — hayratlandi yigitcha. — Bu ahvoldan qanday chiqib ketdingiz?

— O'sha kunni juda yaxshi eslayman, — davom etdi Ormen xonim. — Sud zali ostonasida bu vaziyatdan qanday chiqishdan yo'l topmoqdan butkul umid uzib, yig'lab o'tirardim. Bexos yelkamga kimningdir qo'li tekkanini sezdim va o'girilib qarab, yonimda o'tirgan kichik jussali kekxa xitoylikni ko'rdim. Uning salobatli kiyinganidan avvaliga sud amaldori deb o'yladim. U mendan biror-bir yordami tegishi mumkinligini so'radi. Uning hamdardligi uchun minnatdorchilik bildirdim-da, yo'q, deya javob berdim. Lekin u ketmadi va oramizda suhbat ulanib ketdi. Uning gaplarining ko'pi yodimda qolmagan-u, bitta gapi bir umrga esimda qoldi — buni u barcha muammolarni hal etmoqning oltin qoidasi deb atadi. «Sizga hamma imkoniyatlardan foydalanib bo'lgandek tuyulsa-da, shuni unutmangki... bu undaymas!»

Yigitcha kekxa xitoylikning unga bergan xuddi shunday maslahatini xotirlab, o'zicha kulimsirab qo'ydi.

— Chol «Haqiqiy Boylik sirlari» to'g'risida so'zlay ketdi. Albatta, avvallari bu haqda hech eshitmagandim, ammo uning gaplari meni qiziqitirib qoldi. Kimdir biz o'z taqdirimizni boshqara olishimiz mumkindek hisoblashini ilk bor eshitardim. Butun umrim davomida hayot menga nisbatan mehrli yoki qahrli bo'lishi mumkinligini, biz nimagadir ega bo'lishimiz yoxud yo'qotishimiz... barchasi taqdir yoki omadga bog'liqligini uqtirib kelishgan. Vaholanki, qarshimdagi otaxon taqdirimiz uchun o'zimiz mas'ulligimiz va barchamiz boylik yaratish quvvatiga egaligimizni so'zlayapti.

Ketayotib, cholning aytishiga qaraganda, muammolarimni yechishga ko'maklashuvchi bir varaq qog'oz tashlab ketdi. Unga ko'z yugurtirarkanman, hayronu lol qoldim, chunki o'n kishining ism-sharifi va telefon raqamlari qayd etilgan ro'yxat bor edi, xolos.

— Men ham xuddi shunday hissiyotlarni kechirgandim, — dedi yigitcha jilmaygancha.

— Tan olishim kerakki, unchalik umidvor bo'lmadim, — so'zida davom etdi Ormen xonim, — lekin ro'yxatda keltirilgan kishilarning hammasi bilan

gaplarini eshitdim. Ularning barchasi cholning haqligini ajoyib ravishda isbotlardi. Garchi Haqiqiy Boylikning sirlari menga yordami tegishiga unchalik ishonmayotgan bo'lsam-da, eshitganlarimni qo'llashga harakat qildim va hayotim sekin-asta o'zgara bordi.

Yigitcha yon daftarchasi va qalamini olib, yoza boshladi. So'ng Ormen xonimga qarab:

— Hayotingiz qay tarzda o'zgardi? — deya so'radi.

— Avvaliga o'zimni shunchaki baxtiyorroq his eta boshladim, chunki hayotimga ta'siri yanada kuchliroq bo'lishini anglagandim. Lekin ajablanarlisi shundaki, uch yilda qarzlardan qutulib, uncha katta bo'lmagan xususiy biznesimni yo'lga qo'yishga yetarli mablag' ham orttirdim.

— O'zgarishlarga eng samarali ta'sir etgan sir qay biri ekan? — so'radi yigit Ormen xonimning boshidan kechirgan voqealarga qiziqsinib.

— Ularning barchasi menga yordam berdi, — javob berdi Ormen xonim, — lekin, endi ortga nazar tashlarkanman, o'sha chog'da hayotimga eng chuqur ta'sir ko'rsatgani xarajatlarni nazoratga olish quvvati bo'lganini ko'rmoqdaman.

— Xarajatlar nazorati? — takrorladi yigitcha. — Siz xarajatlarni rejalashtirishni nazarda tutayapsizmi?

— Ha, shunaqa desa ham bo'ladi, —javob berdi ayol.

— Biroq xarajatlarni rejalashtirish boylik yaratmoqqa qanday yordam berishi mumkin? — so'radi yosh yigit.

— Avvalo shuni esda tutingki, boylik sizning qancha pul topayotganingiz bilan emas, balki topgan pulingiz evaziga qanday yaxshi yashashingiz bilan belgilanadi, — davom etdi Ormen xonim.

— Nima farqi bor? — dedi yigit. — Axir qancha ko'p miqdorda pul topgan sari shunchalik ko'p sarflash hamda tuzukroq hayot kechirishingiz mumkinligi aniq-ku.

— Shart emas, — javob berdi Ormen xonim. — Haqiqatda siz qancha ko'p pul topsangiz, shuncha ko'p sarflashingiz va o'zingizga shuncha miqdorda jabr qilishingizga to'g'ri keladi. Masalan, maoshingiz qanchalik baland bo'lsa, ishingizda shunchalik ko'p soat sarflab, band bo'lasiz, demak, oilangizga ham shuncha kam vaqt qolishi mumkin. Basharti siz katta maosh olsangiz-da, farzandlaringiz bilan birga bo'lishga haftasiga bir necha soatdan mo'ltroq vaqt ajratolmasangiz, o'zingizni badavlatroq hisoblaysizmi?

Yigitcha engagini qashladi.

— Nimani nazarda tutayotganingizni angladim, — dedi u.

— Boylik topayotgan maoshingiz miqdoridan ko'ra kechirayotgan hayotingiz sifatiga ko'proq taalluqli bo'ladi, — tushuntirdi Ormen xonim. — Haqiqiy Boylik mohiyatini anglashingiz uchun aslo multimillioner bo'lishingiz shart emas. Faqat hayotda istaganingizcha yashashga yetarli miqdorda pulingiz bo'lsa bas! Shunday ekan, basharti boy bo'lishni istasangiz, — davom etdi Ormen xonim, — birinchidan mavjud imkoniyatingiz darajasida yashashga o'rganishingiz zarur, bu esa xarajatlarni nazorat qilishni bildiradi. Agar ming funt maosh olib, to'qqiz yuzini sarfla

yetkazadi. Modomiki, xuddi o'sha maosh bilan ming bir yuz funt sarflasangiz, bu qashshoqlikka olib boradi. Basharti xarajatingiz daromadingizdan ortiqroq bo'lsa, sizni noxushliklar kutadi.

— O'z mablag'larini rejalashtirish qarzlarni yig'ilib qolishining oldini olishga ko'maklashuvini tushunaman, — dedi yigitcha, — lekin u daromadlarni orttirishga qanday yordam beradi?

— Haqiqatda yordam bera oladi! Xarajatlaringizni nazorat etish nafaqat boringizga qanoat qilib baxtli umr kechirishingiz uchun zarur, — dedi Ormen xonim, — balki katta daromadni ta'minlashning mutlaqo zarur bo'lagidir.

— Rostdanmi? — so'radi yigit.

— Lekin qay yo'sinda?

— Hech kim doimiy daromadga ega bo'lmay va ularni yig'may turib o'zida boylikni yaratolmaydi ham, orttirolmaydi ham. Fikringa qo'shilasizmi?

Yigit boshini irg'adi.

— Qanchalik katta mablag'ga ega bo'lmang, — davom etdi Ormen xonim, — agar uning o'rnini to'ldiradigan hech qanday daromadingiz bo'lmasa va faqat sarflayversangiz, u vaqti kelib tugaydi.

Doimiy daromadingizni ta'minlashning yagona yo'li — bu yo ko'proq pul topish yoki topilgan pulning bir qismini siz uchun ishlatishdir.

— Pulni iqtisod qilishni nazarda tutayapsizmi yoxud biror ishga kiritishnimi? — so'radi yigit.

— Ha. Basharti doimiy ravishda qay bir miqdordagi mablag'ni iqtisod qilib, aql-farosat bilan ishlashiga jalb etsangiz, mablag'ingiz foyiz keltirib, miqdori ortib boraveradi.

— Lekin iqtisod qilish va omonatga qo'yish uchun, avvalambor, o'sha miqdordagi pulga ega bo'lish kerak, — dedi yigitcha. — Aytmoqchimanki, hozir hisob-kitoblarim uchun to'layotgan pul miqdori nafaqat orttirishga, balki uchma-uch kun kechirishimga bazo'r yetadi.

— Ishoning, buning uddasidan chiqish mumkin, — dedi Ormen xonim, — lekin, buning uchun albatta, zimmangizga ma'lum majburiyatlarni olishingizga to'g'ri keladi. Avvalambor o'zingizga. «Daromadimning bir qismini o'zim uchun qoldirishimga haqqim bor» deyishingiz lozim.

— Lekin butun daromadimni o'zimga qoldirishga haqqim bor, — dedi yigitcha.

— Ammo, hozirgina o'zingiz topganim uchma-uch kun kechirishga bazo'r yetadi dedingiz, demak, mohiyatan hozir sizga hech nima qolmayapti. Daromadingiz, asosan to'lovlarga ketmoqda.

— Him... ha... lekin... — chaynaldi yigitcha.

— Ko'pchilik odamlar, — shu jumladan, kamina ham shulardan biri edi — uchma-uch kun kechirish uchun kurash olib boradilar va ular faqat to'lovlar uchun ishlayotganday bo'lib tuyuladi, — davom etdi Ormen xonim.

— Lekin ko'pincha bu daromadlaridan o'zlari uchun hech qanday bo'lak qoldirmaganlari tufayli sodir bo'ladi.

Agar Haqiqiy Boylik yaratishni boshlashni istasangiz, daromadingizdan bir qismini o'zingiz uchun to'lashingiz va bu bo'lakni pul yig'ishga jalb qilib, doimiy daromadingizni ta'minlashingiz zarur.

— Ancha iqtisod qila olishimga mutlaqo ko'zim yetmaydi, hatto umuman biron-bir umid ham yo'q, — e'tiroz qildi yigitcha.

— Demak, sarf-xarajatlaringizni yetarli darajada donolik bilan nazorat etmas ekansiz, — dedi Ormen xonim. — Menga ishoning, siz iqtisod qilib va omonatga qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmasligingiz mumkin emas.

— Ehtimol, lekin buni bajarishdan ko'ra aytish osonroqdir.

— Unday bo'lsa, shuni aytishim mumkinki, bu mening foydamga ishlayotganini payqadim. Avvaliga olayotgan maoshingizning o'n foyizini ajratib yig'ing. Qancha pul topishingizdan qat'i nazar, xarajatlarni shunday nazoratga olingki, maoshingizning o'ndan to'qqiz qismini to'lovlaringizga yetkazing. Bunga o'rganish va odatlanish kerak. Buning uchun ma'lum bir qisqa vaqt davomida ayrim rohat-farog'atlardan voz kechishga to'g'ri keladi, ammo natijasi shunga arzigulik bo'ladi. Birgina misol keltirishimga ruxsat bering, — dedi Ormen xonim. — Keling, faraz qilaylik, siz haftasiga 20 funtdan ajrata olasiz, ya'ni, bir yilda 1000 funt yig'iladi, bu pullarni omonat dasturiga qo'ysangiz, sakkiz foizlik yillik daromadga ega bo'lasiz. Yigirma besh yil davomida 25000 funt yig'sangiz, foizlar hisobidan mablag'ingiz 78950 funtga yetadi.

— Rostdanmi? — hayratlandi yigitcha. — Lekin buning iloji bormi?

— Murakkab foyizlar! — javob berdi Ormen xonim. — Birinchi yili 1000 funtdan sakkiz foyiz tug'adi, lekin ikkinchi yil 2080 funtdan sakkiz foyiz ko'payadi. Endi o'zingizning birinchi foyizingizdan foyiz olasiz. Murakkab foyizlar hisoblanayotganda omonatdagi pullaringiz qanchalik tez o'sayotgani shunchalik ajablanishga loyiq. Masalan, o'ttiz besh yil davomida har yili 1000 funtdan pul qo'yib, sakkiz foizlik yillik foyda olib tursangiz, 35000 funt mablag' qo'yganingizda hisobingizda 186000 funtdan ortiq pulga ega bo'lasiz!

— Pulning qadrsizlanishi-chi? — so'radi yigit. — Agar narx-navo sakkiz foyizga oshib turganda omonatingiz sakkiz foyiz foyda keltirsa, boshlayotgan chog'ingizdan tuzukroq ahvolda bo'lmaysiz-ku.

— Adolat tanbeh, — tan oldi Ormen xonim. — Mutlaqo haqsiz. Mablag'ingizning o'sishining real sur'ati pulning qadrsizlanishi tezligidan ko'ra tuzukroq bo'ladi. Xarajatlaringizni nazorat etib va pullaringizning bir qismini doimiy ravishda omonatga

qo'yib, mablag'ingizni qay tarzda ko'paytira olishingizni namoyish etish uchungina sakkiz foyizlik misol sifatida keltirdim xolos.

Albatta, pulni tejab-tergab yana omonatga qo'yish uchun ayrim maxsus bilimlarga ega bo'lish yoki shu soha bilimdoni bilan, masalan, moliya maslahatchisi yoki hisobchi bilan kengashish zarur. Maqsadlaringizga ko'proq muvofiq keluvchi omonat dasturi va investisiyalar jadvalini to'g'ri tanlaganingizga imoningiz komil bo'lishi lozim. Bu daromadlaringiz, oilaviy sharoitingiz, soliqqa aloqadorligingiz va pullaringizdan qaysidir davrdagi muddat ichida foydalanishdan o'zingizni tiya olish yoki shunga rag'batigingiz mavjudligiga bog'liqdir.

Siz doimo qo'yishga pul ajrata olishingiz va shu tariqa mablag'ingizni foydangizga ishlata olish va kelgusida ular daromad keltirishi uchun sarf-xarajatlaringizni nazorat etish tamoyili juda muhim jihat hisoblanadi. Xarajatlaringizni nazorat etishni qanchalik tez boshlasangiz, ishingiz xayrli rivoj topishi ham shunday ravshan. O'n yillik muddat ham anchagina katta farqni keltiradi. Shu bois pul qo'yishni yoshlikdan boshlash shunchalar muhimdir.

— Pul yig'ishni yigirma yoshdan boshlash o'rniga o'ttiz yoshdan boshlash unchalik katta farq bo'lishi dargumon, — dedi yigitcha.

— Xo'sh, o'zingiz hal eting, — javob berdi Ormen xonim, — kim oltmish besh yoshini yaxshiroq natija bilan kutib oladi: 29 yoshidan boshlab yiliga 1000 funtdan ajratib keksaygunicha davom ettirgan kishimi, yo o'shancha mablag'ni 19 yoshidan boshlab 29 yoshda to'xtatganimi? Agar ular bir xil sharoitda, yiliga sakkiz foyizlik kirim bilan omonatga qo'yg'an bo'lsalar, qaysi biri oltmish beshida ko'proq pulga ega bo'ladi?

— Albatta, 29 yoshidan boshlab yiqqan kishi-da. Garchi u pul yig'ishni kechroq boshlagan bo'lsa-da, o'ttiz olti yil davomida boshqasiga nisbatan to'rt barobar ortiq pul qo'yg'an.

Ormen Xonim kinoyali jilmaydi.

— Siz aytgan kishi 36000 funt pul qo'yib, 65 yoshida bu ko'rsakich 202070 funtga yetadi. Lekin 19 yoshida pul yig'ishni boshlagan kishi, garchi faqat o'n yil pul qo'ysa-da, 10000 funt ajratgan esa-da, bu davrga kelib uning mablag'i 249901,57 funtga yetadi.

— Jiddiy aytayapsizmi? — hayrat bilan so'radi yigit. — O'n yil shunday katta farqni beradimi?

— Raqamlarning o'zi aytib turibdi, shundaymasmi? — javob berdi Ormen xonim. Yigitcha imkon boricha tezroq pul qo'yishni boshlash kerakligini anglab, og'ir xo'rsindi. Lekin u hali ham buni qay tarzda amalga oshirishni tasavvur qilolmasdi.

— Sarf-xarajatlarni nazorat etish va doimiy ravishda omonatga qo'yish — nazariyada yoqimli jaranglaydi, — dedi u, — lekin amalda qanday bajariladi? Siz bunga qanday erishdingiz?

— Sarf-xarajatlarni nazorat etishning muhimligi to'g'risida ilk bor eshitganimda kattagina pul miqdorida qarzlarimni qistayotgan sudxo'rlarim ko'p

bahonalarim bor edi. Lekin bu ish yo'lga tushib keta olsa, kelajagimni ta'minlash va qarzlardan qutulish uchun daromadimning o'n foyizini omonatga qo'yishim zarurligini bilardim.

— Qanday qilib omonatga pul ajratib va shuning barobarida qarzlarni to'lay oldingiz?
— so'radi yigitcha.

— Men men qarz berganlarning har biriga murojaat etib, moliyaviy qiyinchliklarimni tushuntirdim. Keyin ularga har oyda o'z daromadimdan ma'lum bir qismini to'lab turishni taklif qildilar Ular hammasini bir yo'la to'lash imkonim yo'qligi, pulni bo'lak-bo'lak qilib bo'lsa-da, axiyr olishlariga ko'zi yetdi.

Shundan keyin daromad va xarajatlar rejasini tuzdim. Olayotgan maoshimning yigirma foyizini qarzimni to'lash uchun o'n foyizini o'zim uchun ajratish va yetmish foyiziga umr kechirishim zarur bo'ladi. Qarzlardan qutulib va shu vaqtning o'zida shaxsiy boylik yarata boshlashimni idrok etib, darhol yengil tin oldim. Albatta, bu oson emasdi. Ayrim qulayliklardan voz kechishga to'g'ri keldi — masalan, o'zimga nonushtaga biron narsa sotib olish o'rniga uyda tayyorlangan buterbrodlarni ishxohamga olib borishimga to'g'ri keldi. Tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini kamroq sotib olib, oqshomlari uydin tashqarida kam vaqt o'tkazadigan bo'ldim, kiyim-kechakni esa eng arzon narxda sotib oldim. Lekin mazkur rejani tuzayotib, ishlashga ishtiyoqim ko'proq ortayotganini sezdim va bir necha yil davomida nafaqat barcha qarzlardan xalos bo'ldim, balki kichikroq xususiy biznesim uchun yetarli miqdorda pul yig'ishga ham erishdim. Aynan xarajatlarni nazorat qilish amalda xususiy biznesimni ochishga ilhomlantirdi.

— Qay tarzda? — so'radi yigitcha.

— Tasavvur etib ko'ring-a, g'oyat chegaralangan moliyaviy sharoitda yashashga majburligim bois mollarni kim ochdi savdosida sotib olishim mumkinligini payqab qoldim. Kunlarning birida shunday xaridlarimdan birini dugonamga ko'rsatayotib, miyamga ajoyib bir fikr keldi. Dugonam navbatdagi kim ochdi savdosi qachon o'tkazilishini qanday bilish mumkinligini so'radi va men nogoh butun mamlakatda kim ochdi savdosida ishtirok etishga qiziquvchi juda ko'p odamlar bo'lishi mumkinligini o'ylab qoldim.

— Butun mamlakat bo'ylab o'tkaziladigan barcha kim ochdi savdolari to'g'risida barcha tafsilotlar keltirilgan axborot ma'lumotnomaga asos soldim. Mahalliy gazetada yillik obuna uchun kichikroq mukofot tayinlab, uncha katta bo'lmagan e'lon berdim — natija men o'ylamagan tarzda zo'r bo'ldi!

Ozgina fikrlab, bunday xizmatni butun mamlakat bo'ylab tarqatish mumkin, degan xulosaga keldim. Boshqa viloyatlardagi gazetalarda ham e'lon berdim natijada obuna uchun buyurtmalar haddan ziyod yog'ilib ketdi.

— Yo'g'-e, bo'lishi mumkinmas! — xitob qildi yigit.

— Ha. Fikrlaringizni uqib turibman. Bularning barchasi xarajatlarni nazorat etish quvvati tufaylidir. Kundalik xarajatlarimni nazorat qilib bo'lmaganida cheksiz biznesimni boshlash uchun yetarli miqdorda pul yig'olmasdim. Boshlovchi b.

foyizidan ortig'i dast-abki o'n ikki oy ichida omadsizlikka uchrashini bilasizmi? Chunki ular kompaniyaning toza aktivlaridan ortiqroq miqdordagi pulga aksiya chiqarib, imkonlaridan ko'proq darajada pul sarflaydilar.

Yigitcha inkor qilgandek boshini chayqatdi.

— Lekin yanada muhimrog'i, — davom etdi Ormenxonim, — xarajatlarimni nazorat etish tufayli shaxsiy ishimni yo'lga qo'yishdan tashqari, pulni o'zim uchun ishlatib, bo'lgusi boyligimni yaratishga muvaffaq bo'ldim.

— Buning shunchalik muhimligiga haqiqatda ishonchingiz komilmi? — so'radi yigit.

— Mutlaqo komil, — tasdiqladi Ormenxonim. — Aslo darveshlarcha hayot kechirishingiz va kelgusidagi boylik qasdida barcha narsalardan voz kechishirigiz kerak, demoqchimasman. Lekin basharti boy bo'lishni istasangiz, ayrim qulayliklardan tiyilishingizga to'g'ri keladi. Mablag'laringiz doirasidan chiqmaydigan xarajalar qilishingiz va hech qachon o'zingiz to'lay olmaydigan qarz olmasligingiz va qarzga botmasligingiz kerakligini nazarda tutmoqdaman.

Bir kuni xotini va to'rt bolasi bilan mebellar bilan jihozlangan xonada yashayotgan bo'yoqchini uchratib qoldim.

U biznesi uchun 6000 funt qarz olib, oilasi bilan Floridadagi Disneyvordda dam olgan va olti hafta davomida pulni sarflab qo'ygan. Uyiga qaytganida hatto bolalariga yangi poyafzal sotib olishga ham qurbi yetmay qoldi. U endi oilasini shundoq ham ta'minlay olmay, keksayganida hoynahoy davlat nafaqasiga zor bo'ladi, chunki u xarajatlarni nazorat etish muhimligini anglay olmadi.

Ko'pchilik hayotlarini taqdir, omad yoki sharoitlar belgilaydi, degan ishonchga sodiq. Lekin haqiqat shundaki, biz tushib qolgan ahvolga o'zimizdan boshqa hech kimni ayblashning hojati yo'q. O'z taqdirimizni yaratish o'rniga tirik qolish uchun kurash olib boramiz. Bu men o'rgangan eng muhim dars, deb o'ylayman. Ayrimlar hisoblagandek, taqdiringizni yulduzlar belgilamaydi. Taqdiringizni, hayotingizning har bir kunini o'zingiz belgilaysiz.

Kishilar o'z muammolarida ko'pincha iqtisodiyotning ahvolini, hukumatni, ota-onalarini va hatto ob-havoni ayblaydilar.

Lekin haqiqat shundaki, taqdiringiz uchun mas'ul bo'lgan yagona inson — bu sizning o'zingiz, faqat o'zingizgina uni o'zgartirish quvvatiga egasiz. Hayotimizda tanlaydigan yo'l fikr va amallarimiz bilan belgilanadi, Haqiqiy Boylik sirlari ham foydaliroq bo'lgan yo'lni qay tariqa tanlash va siz orzu qilgan taqdirni yaratishni ko'rsatadi.

Ormen xonim so'zlayotganida yozib o'tirgan yigitcha daftarchasini yopdi va suhbatdoshiga qaradi.

— Demak, agar sizni to'g'ri anglagan bo'lsam, xarajatlarni nazorat etish bir kechada boy qilib qo'ymaydi, lekin kelgusida Haqiqiy Boylik yaratishga imkon beradimi?

— Mutlaqo to'g'ri, — dedi Ormen xonim, — Buning foydasi aniq. Birinchidan, xarajatlarni nazorati keraksiz qarzlariga botmasligingiz uchun kafolat beradi. Ikkinchidan, pullaringizni o'zingiz uchun ishlatilishiga imkon beradi.

— Lekin bundan foyda ko'rish uchun bag'oyat uzoq kutishga to'g'ri keladi, — dedi yigitcha. — Xarajatlarni nazorat etish va pulni omonatga qo'yish keksaygan chog'da yordamlashishiga qo'shilaman, ammo bu hozir yoki yaqin kelajakda boylik yaratish uchun qanday ko'maklashishi mumkin?

— Basharti real boylikka ega bo'lishni istasangiz, uni yaratishingiz zarur, buning uchun esa kuchli asoslar talab etiladi. Xarajatlarning nazorati sizni bir kechada, hatto bir yilda ham boy qilmaydi, lekin u kelajagingizni qurishga yo'l qo'yadi. Bu oilangizga g'amxo'rlik qilishingizga imkon beradi, sizni qarzlardan asraydi va eng muhimi, shuning evaziga keksayganingizda moliyaviy mustaqillik bilan maqtana oladigan, o'n foyizni tashkil etuvchi kamdan-kam kishilardan biri bo'lasiz. Har haftada maoshingizdan o'n foyizini omonatga qo'yib, Haqiqiy Boylik yaratishga kiritadigan mablag'ni asta-sekin, lekin ishonch bilan yig'ib borasiz.

Lekin «qanday qilib tez boyish» dasturlaridan ehtiyot bo'ling, — ogohlantirdi Ormen xonim. — Haddan tashqari shubhali omonatlar xavfli bo'lishi mumkin. Katta pushaymondan ko'ra kichik ehtiyotkorlik afzalroq! Kezi kelganda shunday bo'ladiki, tavakkalchilikka borishga to'g'ri keladi, ammo yaxshilab o'ylangan, bexos avantyura bo'lmagan gardkam bo'lishi kerak.

— Endi, anchagina pul yig'ib olganingizda, — dedi yigitcha, — xarajatlaringizni nazorat etish sizga shart bo'lmasa kerak?

— Bilasizmi, kishi xarajallari har doim daromadlariga mutanosib ravishda o'sib boraveradi, — javob berdi Ormen xonim.

— Odamlar darhol katta imorat, yaxshiroq mashina uchun ko'proq pul sarflashni boshlaydilar, ular nihoyat xarajatlarini nazorat etishga qaror qilmagunlaricha qimmatbaho kurortlarga boradilar, qimmat modelyerlarga kiyim-bosh buyuradilar va eng qimmat restoranlarga boradilar.

Darhaqiqat, qancha pul sarflasalar ham bu haqda unchalik qayg'urmaydigan kishilar bor. Lekin bu toifadagi kishilar kam, ko'pchiligi nazorat etadi. Hatto millionerlar ham. Lotoreyag yutuq yutgan kishilardan ko'pchiligi oxir-oqibatda cho'ntaklarida sariq chaoqasiz qoladilar, bunga sabab shuki, ular xarajatlarini nazorat qilmaydilar.

Ular kelajak haqida o'ylamasdan pullarni sarflaydilar. Boylik haqida gapirganda doimiy daromad yaratish to'g'risida so'zlashimizni unutmang. Agar doimiy daromadingizni ta'minlaniasangiz, pulingiz oxir-oqibatda xuddi daryo suvi quyilmay, qurib bitayotgan ko'l misol tugaydi.

Shu bois xarajatlarni nazorat etish quvvatidan foydalanmasangiz Haqiqiy Boylikni yaratib va qo'llab-quvvatlay olmaysiz.

Yigitcha uyga kelgach, Ormen xonim bilan suhbat chogʻida yozganlarini diqqat bilan oʻqib chiqdi. U yerda quyidagi jumlar bor edi: Haqiqiy Boylikning yettinchi siri — xarajatlarni nazorat elish quvvatidir.

◆ Boylik qancha pul topayotganingiz bilan emas, topganingizga qanchalik yaxshi yashay olishingiz bilan belgilanadi.

◆ Xarajatlarni nazorat qilish olayotgan daromadingiz hajmida baxtiyor hayot kechirishingizga va bu daromadni koʻpaytirishga yordam beradi.

◆ Mablagʻi cheklangan har qanday kishi doimiy daromadini taʼminlash uchun oʻz xarajatlarini nazorat qilishi zarur.

◆ Daromadingizning bir qismini asrashingiz lozim. Bu kelgusida boylik yaratishga asos boʻladi.

◆ Siz har doim pul topish uchun ishlaganingizdan koʻra pullaringiz siz uchun ishlagani maʼqulroq.

Sakkizinchi sir **HALOLLIK QUVVATI**

Shaharda Halol Genri haqida eshitmagan kishini topish mushkul edi. Eng yuqori sifatli maishiy mollarni maqbul narxlarda sotishda shuhrat qozongan doʻkonlar zanjiri mavjud. Hammasi juda oddiy: basharti yaxshi sifatli mol olish niyatida boʻlsangiz-u bunday mollar savdosi toʻgʻrisida xabaringiz boʻlmasa, Halol Genriga murojaat qilishingiz mumkin. U yerda sizni hech qanday aldam-qaldamlar bilan laqillatmaydilar: oʻrainlar arzon, xaridorlar mabodo molni qaytarmoqchi boʻlsalar-da, pulingiz har qanday sharoitda egasiga qaytariladi. Mazkur doʻkonlar asoschisi va egasi — Genri Bruksdir. Yigitning roʻyxatida sakkizinchi boʻlib aynan uning ismi turardi.

Yigitcha uning ishxonasiga kirganida janob Bruks darhol oʻrnidan turib, qoʻlini qattiq siqqancha kutib oldi.

Bu ellik toʻrt yoshdagi oʻrta boʻyli, qora koʻzoynak taqqan dumaloq yuzli kishi edi.

Yigitcha unga keksa xitoylik bilan uchrashuvi toʻgʻrisida qisqagina soʻzlab berdi.

— Qoyilmaqom! — xitob qildi janob Bruks. — Demak, boy boʻlmoqchi ekansiz-da?

— Ha, — tan oldi yigitcha.

— Xoʻsh, Haqiqiy Boylik haqida qanday fikrdasiz?

— Albatta, bu gʻoyatda qiziqarli, — javob berdi yigitcha. — Sizchi, ular haqida nimalarni bilasiz?

— Keling, oʻttiz yil burungi voqealarga qaytsak, — dedi janob Bruks. — Oʻshanda men endigina yigirmaga toʻlgandim va pul topishni, koʻp pul topishni juda istardim. Bunga qanday erishish yoʻllari meni aslo qiziqitirmasdi, oʻz oldimga qirq yoshimda millioner boʻlish maqsadini qoʻydim. Aynan shu mening eng katta muammoim edi.

— Nimaga endi? — soʻradi yigitcha. — Maqsadning aniqligi Haqiqiy Boylik yaratishda eng muhim jihat deb oʻylardim.

— To'g'ri, darhaqiqat, shunday, — javob berdi janob Bruks. — Lekin millioner bo'lish maqsadim haqida aytayotganim yo'q, — bu bag'oyat ajoyib maqsad edi, — mendagi muammo shundan iborat ediki, bunga qanday erishishim multaqa tashvishlantirmasdi. Millioner bo'lish orzusiga shunchalik berilib ketganimdan Haqiqiy Boylikning muhim sirlaridan biri... halollik quvvatini e'tibordan chetda qoldirdim.

Injildagi: inson butun olamni egallasa-da, lekin o'z qalbini yo'qotsa, unga qanday foyda bo'ladi, degan so'zlarni eslaysizmi? Bundan to'g'riroq so'zlar hech qachon aytilmaganiga imonim komil. Halollik va o'z izzatini bilish fazilatlariga ega bo'lmagan odamning obro'si bir puldir. Har qancha pulingiz bo'lmasin, o'zingiz hech qachon badavlat hisoblay olmaysiz. -Agar halol bo'lmasangiz, to'plagan har qanday boyligingiz muvaqqat bo'ladi. Yo'lg'onchilik va qalloblik bilan boylik yaratish qum ustida imorat qurish demakdir. U qumda uzoq turmaydi.

Yodimda, ilk mashg'ulotlarimdan biri oyna qo'yadigan kompaniyada ishlash edi. Mohiyatan bu haqiqiy firibgarlik edi: biz uyma-uy yurib, odamlarga derazalarining oynalari qay ahvoldaligini bepul ko'rib berishni taklif qilardik. Odatda ularga yangi oyna qo'ydirishni maslahat berib, keyin uylarini bizning materialimiz reklamasi uchun foydalanishga rozilik bildirsalar, oddiy oyna qo'yishdan ko'ra yarim bahosiga arzonroq yangi oyna qo'yib berishni taklif qilardik. Ishning o'rtacha narxi 6000 funt bo'lib, agar uylarini oyna qo'yilishidan avval va qo'yilganidan so'ng suratga olishga rozi bo'lsalar, ularni 3000 funt pulni iqtisod qilishlari mumkinligiga ishontirar edik.

Hammasi juda oddiy edi. Men odamni ishontirish, har qanday hujjatga imzo qo'ydirish qobiliyatiga egaligimni bilib qoldim. Har bitimdan yigirma olti foyiz ulush hamda mukofotlar olardim va bundan to'la mamnunligimni tassavur qihshingiz mumkin. Haftasiga 2000 funtdan ortiqroq pul topishim mumkin edi.

Lekin kunlardan bir kun hammasi o'zgardi. Men birovning eshigini qoqqandim, kekxa xitoylik ochdi. U meni ichkariga taklif qildi va valdirashlarimni diqqat bilan tingladi. Gapimni tugatganimdan so'ng:

«Yangi oyna qo'ydirsam, kimga foyda bo'ladi: mengami, sizgami?», deb so'radi. «Ikkimizga deb umid qilaman», — javob berdim men.

Shunda u ko'zlarimga tikilib dedi:

«Haqiqatan ham menga oynalaringiz kerak deb hisoblaysizmi? Kasbingiz nuqtai nazaridan qaraganda hozirgi deraza oynalari yaroqsizmi?».

Bu qariyada hozir nimaligini ishonch bilan aytolmayman-u, meni noqulay ahvolga solishga majbur qilgan allanima bor edi. Unga yo'lg'on gapirolmadim va bu ishni bajarayotganim davomida ilk bor to'g'risini aytdim. Chol o'rnidan turib, qo'limni siqdi va rostgo'yligim uchun minnatdorchilik bildirdi. U hayotda tezroq nufuzga erishish ishtiyoqida shoshayotganimni ko'rib turganini aytdi va hayotimni qurishning yaxshiroq usulini bilish istagimni so'radi.

Tabiiyki, uning nima deyishi meni qiziqtirardi. Men pul topishning qandaydir g'aroyib usulini bilib olish to'g'risida o'ylagandim, lekin buning o'rniga u Haqiqiy Boylik sirlari to'g'risida so'zlay boshladi. Chol qo'limga bu sirlar haqida batafsil so'zlab beruvchi kishilar ro'yxatini berdi, keyin bu sirlar haqida imkon qadar ko'proq bilib olish uchun ularning hammasi bilan uchrashdim.

Mazkur sirlar hayotga munosabatimni butkul o'zgartirib yubordilar. Ikki yil ichida daromadim to'rt barobar o'sgani ham bunda katta rol o'ynadi.

— Bunga qanday erishdingiz? — so'radi yigitcha.

— Men shahar bozorida chodir tagida maishiy mollar sota boshladim. Ikki yildan so'ng shaxsiy do'konimga ega bo'ldim. Uch yil o'tib, o'ttizta do'kondan iborat majmuaga ega bo'ldim, yana ikki yildan keyin ularning soni yetmish beshtaga yetdi va yillik daromadim bir necha million funtni tashkil etdi.

— Barcha muvaffaqiyatlaringiz Haqiqiy Boylik sirlariga taalluqli deb hisoblaysizmi? — so'radi yigitcha.

— Hech shubhasiz, — dedi janob Bruks. — Hayotimga ko'proq ta'sir ko'rsatgan sir — bu halollik quvvati edi.

— Halollik? — ishonqiramay takror so'radi yigitcha.

— Ha. Biznesga halol, to'g'ri munosabat,

— Rostdanmi? — dedi yigitcha. — Halollik muvaffaqiyatga yordam beradimi?

— Albatta. Agar hayotda hamma narsaga ulgurib, o'zingiz Haqiqiy Boylik yaratmoqchi bo'lsangiz, halollik va samimiylik nima uchun muhim o'rin tutishini hozir tushuntirib beraman. Birinchidan, ozgina bo'lsa ham iymoni bor odam agar o'z ishlarida halol bo'lmasa, o'zi haqida yaxshi fikrda bo'lolmaydi. Basharti o'zingiz va bajarayotgan ishingiz to'g'risida yaxshi fikrda bo'lmasangiz, kelgusida ravnaqni saqlash qiyin.

Ikkinchidan, hayotingizda nimaiki qilsangiz, o'zingizga qaytadi. «Nima eksang, shuni o'rasan» maqolini eshitganmisiz?

— Albatta.

— Bu haqiqat. Hayotning asosiy qonuni bu, hamma dinlar bir xil fikrda: hindular buni Karma deyдилar, Injilda Xudoning jazosi — nima eksang, shuni o'rasan, — buni qanday atamasinlar, hech birimiz qochib qutilolmaydigan qonun bu. Bajarayotgan ishlarimiz, so'zlarimiz, hatto fikrlarimiz qaytar zamon singari o'zimizga qaytadi.

— Demoqchisizki, agar odamlarni aldasangiz, sizni ham albatta aldaydilar, shundaymi? — dedi yigitcha.

— Mutlaqo to'g'ri. Sizni aynan o'sha siz laqillatgan kishi aldamasa-da, bu aldamchilik bir kun o'zingizga qaytadi.

Yigit o'z ishi to'g'risida o'ylanib qoldi. U ba'zan nohalol holatlarni ham boshidan kechirganini esladi, — hammadan aniqroq xotirasida qolgani— sog' bo'lsa-da, ish beruvchisiga o'zini bemor deya bahona qilgan edi.

U nojo'ya ish qilayotganini anglab tursa-da, hamma shunday qiladi, nima uchun u bunday qilmasligi kerak, deya o'zini oqlagandi.

— Xo'sh, agar boshqalar aldama-qaldam bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, qanday yo'l tutish kerak? — so'radi yigitcha.

— Boshqalar nima ish qilsa, — javob berdi janob Bruks. — bu ularning ishi. Ular baribir xudoning jazosidan qutulolmaydilar, shu bois o'z xulg'ingni o'zgalar qilig'iga chog'ishtirib oqlashing ahmoqlik.

Undan tashqari, har qanday yolg'on va firibgarlik ertami-kechmi oshkor bo'ladi. Oxir-oqibatda ularning ajri bizga yetadi. O'shanda siz bunyod etganlarning barchasi qarsillab o'z boshingizga qulaydi.

— Lekin haqiqatga tik qaraylik, — dedi yigitcha, — badavlat kishilarning ko'pchiligi u yoki bu holatda nohaloldirlar, shunday emasmi?

— Har doim ham emas. Hamma boylar nohalol deya xulosa chiqarish hamma qashshoqlar ham o'zlarini avliyolar singari tutadilar, degan taxminlar kabi bema'ni gap.

Haqiqatda qayda kambag'allik va qashshoqlik bilan ro'baro' bo'lmang, hamisha jinoyatga duch kelasiz. Eng yuqori jinoyatchilik ayni eng qashshoq hududlardadir.

— Nima sababdan shunday ekan? — so'radi yigitcha.

— Chunki ko'pincha jinoyatni oqlash sifatida kambag'allik va qashshoqlikni bahona qiladi Haqiqiy Boylik faqat halol yo'l bilan yaratilishi mumkin.

— Ammo, biznes bilan shug'ullanuvchi yolg'on-chi va birovlarini aldaydigan kishilarni ko'p uchratganman.

— Demak, siz yomon odamlar bilan ko'proq munosabatda bo'lganga o'xshaysiz, — dedi janob Bruks.

— Yaxshi va yomon odamlar orasidagi tafovutni qanday belgilash mumkin, ayniqsa, hamma g'anim hamkasblaringiz nohalol bo'lsalar? — so'radi yigitcha.

— Buning eng oddiy yo'li shuki, har qanday ishga kirishishdan avval o'zingizga qator savollar berishingiz mumkin. Birinchi savol: «Bu ish qonuniymi?». Agar bu faoliyat noqonuniy bo'lsa, sizni albatta ko'ngilsizliklar kutadi. Ikkinchi savol: «Bu axloqiy me'yorlarga qay darajada to'g'ri keladi?»

— Bu xususda tashvishlanishning hojati bormikan? — so'radi yigitcha. — Basharti bu qonunga zid bo'lsa, amalda hech qanday ko'ngilsizliklar to'g'risida gap ham bo'lishi mumkinmas.

— Politsiya haqida so'z borarkan, bu hammasi xuddi shundayku-ya, lekin esingizda bo'lsin: salomga yarasha alik qaytadi. Agar yashashingiz uchun pul topishga yordam berayotgan soha axloqsiz bo'lsa, oxir-oqibatda buning hammasi oshkor bo'ladi va nima bilan shug'ullanayo-ganingizdan har bir kishi boxabar bo'lganda qay ahvolga tushasiz? Gazetani varaqlasangiz bas, biznes yoki shaxsiy hayotda bo'lsin, axloqsiz harakatlar shaxsning sinishiga olib kelishini ko'rasiz.

Yigitcha ma'qullagandek boshini irg'adi.

— Bu yerdan uchinchi savol kelib chiqadi: «Natijada o'z-o'zimdanda faxrlana olamanmi?». Agar ajarayotgan ishingiz faxr tuyg'usini uyg'otmas ekan, demak, siz yomon ish qilyapsiz. To'rtinchi savol: «Bu haqda yaqinlarim bilishini xohlaymanmi?». Onangiz ishingizdan boxabar bo'lsa, siz bilan faxrlanadimi? Siz bajarayotgan faoliyat oilangiz a'zolarini faxrlanishga majbur etish o'rniga ularni xijolatga solayotgandek tuyulsa, bu ishni darhol to'xtatish kerakligiga ochiq ishoradir. Va nihoyat, so'nggi savol: «Bundan keyin o'zimni o'zim hurmat qila olamanmi?».- Basharti gap sizning tamoyillaringizga qarshi biron narsa to'g'risida borayotgan bo'lsa, demak qadringizni yerga urayotgan bo'lasiz. Seni hurmat qilmaydigan inson bilan yashash nihoyatda murakkab... ayniqsa, bu kishi o'zing bo'lsang.

Asosiy tamoyil — biror kimsa sizga nimaiki qilmasin yoxud gapirmasin, o'zingiz istamagan ishni qilmasangiz va so'zlamasangiz, bas.

— Demoqchisizki, shu savollarning istalganiga yo'q degan javob bo'lsa, qanchalik foydali biznes tuyulishiga qaramay, unga qo'l urmaslik kerakmi? — so'radi yigitcha yozuvlaridan nigohini uzib.

— Aynan shunday. Odamlar pul qilish va boylik orttirishga tirishib, o'z tamoyillariga qaramasdan yoki axloqiy jihatdan nima yaxshi va nima yomonligini shunchaki anglamasdan ko'pincha xatoga yo'l qo'yadilar. Ular so'nggi yakuniy maqsad pul deb hisoblaydilar, lekin bu unday emas, pul — boshqa maqsadlarga erishish uchun vosita xolos. Va ko'pincha pul haqida qayg'urish o'rniga ana shu boshqa maqsadlarga diqqat-e'tiborni qaratib, ularga erishish yo'llari ancha osonroq bo'lishi mumkinligini anglaymiz.

— Suhbatingizdan bahramand etganinuiz uchun minnatdorchilik bildiraman, — dedi yigitcha ketishga chog'lanib. — Faqat birgina savolim bor edi: ayting-chi, keksa xitoylik hali ham o'sha manzilida yashaydimi?

— U qachon bo'lsa-da o'sha yerda yashaganiga umuman ishonmayman, — dedi janob Bruks.

— Bu bilan nima demoqchisiz?

— Chol bilan uchrashgandan so'ng bir necha oydan keyin o'sha uyga kirdim.

Shunchaki unina yordami uchun minnatdorchilik bildirib, uchrashuvimiz butun hayotimni naqadar o'zgartirib yuborganimni aytmoqchi edim. Lekin bu safar u yerda yoshi o'tinqiragan eru xotinni uchratdim, ularning aytishiga qaraganda, yigirma besh yildan buyon shu uyda yashab, hech qanday xitoylik to'g'risida eshitmagan ekanlar. Qo'ni-qo'shnilardan ham surishtirib ko'rdim, ammo u haqda hech kim, hatto, eshitmagan ham ekan

Kechqurun uyquga yotish oldidan yigit yozuvlarini qayta o'qib chiqdi:

Haqiqiy Boylikning sakkizinchi siri — halullik quvvali.

◆ Kishi butun olamni zabt etsa-yu, lekin shu bilan birga o'z qalbini yo'qotsa, buning qanday foydasi bor?

◆ Bajarayotgan ishimiz, so'zlayotgan so'zimiz va hatto fikrlarimiz ham bir bilan o'zimizga qaytadi, qaytar dunyo bu.

◆ Boylikni aldam-qaldamlik va qalloblik bilan yaratmoq — qumda imorat qurmoq bilan teng. U yerda uzoq turmaydi.

◆ Shaxsiy hayotingiz yoki biznesda harak usullarini tanlashdan avval o'ylang:

Bu qonunga xilof emasmi? Bu axloq me'yorlariga to'g'ri keladimi? Natijada o'zimdanda faxrlana olamanmi? Yaqinlarim bu haqda bilishini istaymanmi? Bundan keyin o'z-o'zimga nisbatan hurmatim yo'qolmaydimi?

To'qqizinchi sir **ETIQOD QUVVATI**

Kelasi kun yigitcha odatdagidan ertaroq uyg'ondi. U bilan uchrashgan kishilarga Haqiqiy Boylik sirlari xizmat qilgani, ammo ular yigitchaga ham yordam bera olarmikan, mana, masala qayerda, degan fikrlar unga sira tinchlik bermasdi. Bunga javob — uning o'zida ishoch hissini tuymasligida edi. Unda shaxsiy biznesini qaror toptirish fikrlari ham ham bor edi-yu, lekin basharti muvaffaqiyatsizlikka uchrasa-chi, unda nima bo'ladi. Agar buning oqibatida hozirgidan ham kamroq pul topsa-chi?

Tuni bilan shu muammoni hal etishga urinsa-da, tongda kechagidan ortiqroq hech nima deyo'lmadi. U hamisha muhim qarorlarni qabul qilishda qiynalardi. Noto'g'ri qabul qilingan qaror halokatli bo'lishi hamda uning keyingi hayotiga ta'sir etishi mumkin edi. Ro'yxatidagi navbatdagi kishi unga bu borada yordam berishiga umid qilardi.

Boshi kal va oltmishdan oshgan bo'lishiga qaramasdan Saymon Levisni yigitlik g'ayrati tark etmagandi. U doimiy ravishda badantarbiya bilan shug'ullanar va bog'da ishlab huzurlanardi, uning gapiga qaraganda, bular o'zini yosh hisoblashga ko'maklashardi. U boshdan oyoq ishbilarmon-biznesmen degan nomga arzirli edi: egnidagi to'q kulrang buyurtmaga tikilgan va taxtakachdek dazmollangan kostumi qizil bo'yinbog'i yon cho'ntagidagi shunga mos dastro'moliga g'oyat mutanosib edi.

Janob Levis shahar chekkasidagi o'zida qarashli katta majmuada joylashgan hayotni sug'urtalash bo'yicha shaxsiy agentligida xizmat qilardi. Uning kompaniyasi mazkur sohada yetakchi bo'lib, uning umumiy yillik aylanma mablag'i boshqalarnikidan kamida o'n barobar ortiq edi. Janob Levisning qarshisida o'tirgan yigitga tez orada ayon bo'lishi-cha, u har doim ham badavlat, ishbilarmon biznesmen bo'lmagan ekan. Aslida u butun umri mobaynida, aniqrog'i, oltmish yoshiga qadar moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan ekan. Atigi besh yil muqaddam u shahar tashqarisidagi eng yomon joylardan birida bir xonali torgina uyda yashab, ofisi uchun tuzukroq joyi ham bo'lmaganidan eskib vayronaga aylangan ma'muriy binoning to'rtinchi qavatida joylashgan oshxonada o'z biznesini yuritishga majbur edi.

Levin bugun yigitcha qarshisida hayotni sug'urta qilish bo'yicha butun mamlakatda eng ilg'or kompaniyalardan birining asoschisi o'tirardi. Yigit shu qisqa muddat ichida uning hayotini bir yuz sakson darajaga nima o'zgartirganini tezroq bilib olish ishtiyoqida edi.

— Hammasi besh yil avval boshlandi, — deya hikoya qila ketdi Janob Levis. — Men ish joyim bo'lmish oshxonada ahvolimni yaxshilash uchun nima qila

o'ygacha cho'mib o'tirardim. Oltmish yoshimni hech bir jamg'armasiz, qarzlarga bo'lgancha qarshilayotganim, endi keksaligimni tuzukroq ta'minlash to'g'risidagi o'ylar xayolimni band etgandi. «Time» jurnalida sakkiz foyizdan kamroq erkaklar va ikki foyizdan kamroq ayollar oltmish besh yoshga yetganda moliyaviy jihatdan mustaqilliklari bilan maqtana olishlari to'g'risida berilgan maqolaga ko'zim tushib qoldi. Maqolada aytilishicha, aholining atigi bir foizdan kamroq qismini badavlat yoki o'ziga bahuzur deb ataluvchi kishilar tashkil etar ekan, Bu meni anchayin g'amgin o'ylar girdobiga tortdi. Hozirgi nochorlikdan qutulish ancha mushkuldek tuyuldi va bu ahvoldan chiqishga ko'maklashadigan biron voqea ro'y berishini so'rab, Yaratganga iltijo qila boshladim.

«Xavotirlanma, hech qachon bunday bo'lmasligi mumkin!», degan ovoz bexos qulog'imga kirdi. Ko'zimni ochsam, tabassum bilan boqib turgan sharq kishisini ko'rdim. U nima sababdan oshxonaga mo'ljallangan joyda ishlayotganimni so'radi. Unga davrimiz shiddatli ekanligini tushuntirdim, u anglagandek bosh irg'adi. «Shiddatli zamonlar hech qachon tugamaydi, — dedi u, — ammo shiddatli kishilar doim harakatlardir!».

O'rtada o'zaro suhbat boshlandi va chol Haqiqiy Boylik sirlari to'g'risida so'z ochdi. Ilgari bu haqda sira eshitmagandim, lekin uning hamma gaplari ma'nili edi. Xonadan chiqib ketayotib, u o'n nafar kishi ismi va telefon raqamlari yozilgan ro'yxatni uzatdi hamda basharti hayotimni o'zgartirmoqchi va Haqiqiy Boylik yaratmoqchi bo'lsam, shu kishilar bilan uchrashmog'im zarurligini aytdi. Cholning ro'yxatidagilarning barchasi bilan uchrashganimni so'zlashning hojati yo'q, lekin ajoyibot ro'y berdi — hayotim hatto tasavvur etmagan darajada keskin o'zgarib ketdi. Bularning hammasi Haqiqiy Boylik sirlari tufayli ro'y berdi.

— Sizga ular qanday ko'maklashdi? — so'radi yigitcha.

— Ular hayotda tutgan o'rnim uchun o'zim javobgarligimni va ahvolimni o'zgartirish uchun quvvatim mavjudligini ko'rsatdilar. Nazarimda kelajakka umid va ishonchimni yo'qota boshlagan o'sha davrda, menga, ayniqsa yordam bergani e'tiqod quvvati edi.

— E'tiqod? — takror so'radi yigitcha. — Lekin boylikka e'tiqodning qanday aloqasi bor?

— Eng uzviy aloqasi bor, — javob berdi janob Levis. — Hayotda hammasi e'tiqoddan boshlanadi. Bajarishga urinayotgan ishimizga to'g'ra ishonch hosil qilmaguncha, biznesimizni tashkil etolmaymiz, pul yig'olmaymiz yoki uni kelajak uchun tejammaymiz, orzularimizni amalga oshirolmaymiz. Ikkilanishlar girdobiga tushib, ko'pincha urinishlarimizni to'xtatamiz va yengilamiz.

Keksa xitoylikni uchratganimda o'z ishlarimni qay tarzda yaxshilash yo'llarini izlab topishga urinardim. Kallamga kelgan yagona fikr, davletga qarashli. moliyaviy gazetada aniq reklama kompaniyasini o'tkazish edi. Bu ish katta mablag'siz kiritishni talab etgani bois hamda mo'ljallangan natijalarga erishishga hech qanday kafolat yo'qligi sababli ancha xatarlilik muammo bo'lib turardi. Lekin agar ishlab ketsa, yuqori natijaga yetish ham mumkin edi.

— Xo'sh, qanday yo'l tutdingiz? — so'radi yigitcha.

— Hech qanday, — javob berdi janob Levis. — Sira o'ylashdan to'xtamasdim: «Mabodo ishlab ketmasa-chi?». Bu meni butkul xonavayron qilardi Reklama kompaniyasini moliyalashtirish uchun bankdan yirik mablag'ni qarzga olishim zarur edi, agar bu ish yopishmay qolsa, qarzni besh yil davomida to'lashga to'g'ri kelardi!

Boshlagan ishim muvaffaqiyat qozonadi, deb hisoblash uchun qanday asosim bor edi? O'tmishda muvaffaqiyatga kam erishganman, endi maqsadimga yetishimga qanday ishonishim mumkin edi.

Keyin cholning ro'yxatida ko'rsatilganlardan biri ikkilanish va taraddud chog'i o'zingga: «Basharti yengilishni ko'tarolmasligingni bilganingda qanday yo'l tutarding?» degan yagona savol berish kerakligini aytdi. Albatta, yengilishni ko'tarolmasligimga ishonchim komil bo'lsa, qarz olardim va reklama kompaniyasini boshlashimni bilardim. O'shanda bu odam: «Mana sizga javob. Muvaffaqiyatsizlikka uchramasligingizga ko'zingiz yetgan taqdirda qanday yo'l tutish kerak bo'lsa, o'shandan qolmang». Shundan so'ng u qog'ozga nimalardir yozib, varaqni menga tutdi. O'qib ko'rdim: «Dovyurak bo'l, shunda baquvvat kuchlar senda yordamga keladi».

«Dovyurak bo'l!». Ilgari hech qachon dovyurak bo'lmaganman. Cho'chish va ikkilanishlarim doimo harakatlarimga xalaqit berardi. Endi o'tgan kunlarga nazar tashlab, avvallari biznesim hech rivojlanmaganining sabablaridan biri ham shu ekanini angladim. Qo'rquv va ikkilanishlarim tufayli hech qachon hal qiluvchi harakatlarga qobil emasdim.

Janob Levisning gaplari yigitchaga yaxshi tanish edi. Muhim qarorga kelish zarur bo'lgan chog'dagi o'zining sustkashlik odatini bilardi, garchi bu odati ishda muvaffaqiyat qozonishga to'sqinlik etsa-da, qo'lidan nima ham kelardi?

— Bilasizmi, — davom etdi janob Levis, — butun umrim davomida hech nimaga qo'l urmagandan ko'ra, biror narsani sinab ko'rish va muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lish yaxshiroqligini eshitganman.

Lekin tajribam shuni ko'rsatdiki, aslida ko'pgina kishilar qalbini ich-ichida yaxshisi sinab ko'rish kerak, modomikr sinab ko'rilar, albatta muvaffaqiyat qozonishga erishish zarur, deb hisoblarkanlar.

Ko'pchilik omadsizlikka duchor bo'lish va ishni buzib qo'yishdan cho'chiydilar, lekin haqiqat shundaki, muvaffaqiyatsizlikka rostakamiga uchrashning yagona yo'li — hech qanday ishga qo'l urmaslikdir.

Agar nimadir qilmoqchi bo'lsangiz, hech qachon to'la muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechirmaysiz — jilla qurisa, bu sizni nimagadir o'rgatadi.

Juda ko'p kishilar boylik yaratishga hatto, urinmaydilar ham, chunki omadsizlik oldidagi qo'rquv ularni to'xtatib turadi va ular hech qachon tavakkalchilikka bormaydilar. Lekin hayotning o'zi — tavakkal. Ijzatingiz bilan bir nima ko'rsataman, — dedi janob Levis she'r yozilgan bir varaqni berarkan.

Tavakkal

*Kulmoq — o'z tentakligini ko'rsatish xatarini keltirmoqdir,
Yig'lamoq — bechorahol ko'rinish xatolarni keltirmoqdir,
O'zgaga intilish — birovga berilib ketgandek ko'rinish xataridir,
O'z hissiyotlarning namoyishi — usl o'zligingni ko'rsatish xataridir,
Kimki o'z fikrlari va orzularini olamon hukmiga chiqarsa — ularni yo'qotish xatari bor,*

Kimki sevsa — suyuqli kishisining muhabbatidan hech qachon boxabar bo'lmasligi xatari mavjud,

Hayot o'zi bilan o'lim xavfini olib keladi.

Umidlanish — hafsalasi pir bo'lish xataridir.

Lekin biz tavakkalchilikka borishimiz kerak, chunki eng katta xavf — hech nimadan xatar kutmaslikdir.

Hech nimaga tavakkal qilmagan hech ish bilan shug'ullanmaydi, hech vaqoga ega bo'lmaydi va o'zi ham hech kimmas.

U aziyat va g'amdand nari bo'la olishi mumkin, lekin u o'rganish, his etish, o'zgarish, o'sish, sevishga qodir emas, u yashashga layoqatsiz.

U o'z e'tiqodlari zanjiriga kishanlangan, erkidan ajratilgan qul.

Tavakkal qilib, nimanidir garovga qo'ygangina ozoddir.

— Tavakkalchilikka borishga ham e'tiqod zarurmi? — so'radi yigitcha.

— Albatta, — javob berdi janob Levis. — Aslo bor bud-shudingizni olib, qimor o'yiniga boring, demoqchimasman. Bu tariqa tavakkalchilik ahmoqlik va bu xildagi gardkamlik hech qachon tagi mustahkam boylik keltirmaydi. Aytayotganim — maqsadlaringizga erishish va omadsizlig-u mag'lubiyatlar haqidagi fikrlarga yo'l qo'ymasdan o'ylangan harakatlar rejasining ishonchli loyihalariga bog'liq yaxshi hisobga olingan tavakkalchilikdir.

Hayotingizga o'zgarish kiritganingizdagina u o'zgaradi, buni amalga oshirishga qobiliyatli ekanligingizga o'zingiz amin bo'lishingiz kerak. Har qanday o'zgarish o'zida mavhumlikning unsurini mujassamlashtiradi, demak, bu ham tavakkal, lekin bir pog'onani bosib o'tmay turib, keyingisiga qadam qo'yo'lmaysiz.

— To'g'riku-ya, biroq aynan to'g'ri qarorga kelganingizga qanday amin bo'lasiz?

— Basharti ikkilansangiz, hatto harakatlaringiz mantiqqa muvofiq kelmaydigan va noto'g'ri tuyulsa-da, ichki sezgingiz va ko'nglingizga qarab ish tuting. Orzularingiz sari ichki tuyg'ularingiz hammadan ko'proq yetaklaydi. Aynan shu bois ishonch shunday katta ahamiyatga ega. Agar e'tiqodingiz bo'lsa va hayotingizda unga suyanib yashasangiz, ajoyibotlar ro'y bera boshlashini ko'rasiz.

— Lekin e'tiqod qaydan bo'lsin? — so'radi yigitcha. — Hech qanday diqqatga molik diniy tarbiya olgan emasman, hatto nimadan boshlashni ham bilmayman.

— E'tiqodga ega bo'lish uchun ma'lum dinga mansub bo'lish shart emas. Davi dinga ixlos qilishingizdan qat'i nazar, qalbingiz ochiq ekan, nimani tilasa:

E'tiqodga o'rganish va uni yaratish mumkin. E'tiqodga taalluqli eng yaxshi maslahatlardan biri — «shunday amal tutginki, go'yo!...» iborasidir.

Shunday amal tutish kerakki, go'yo o'z niyatingizga albatta erishishga qodirsiz, shunday amal tutish kerakki, go'yo qaysi ishga qo'l urmasangiz, u to'g'ri bo'ladi. Shunday amal tutish kerakki, go'yo sa'y-harakatlaringiz shunchaki muvarfaqiyatga yetmay qolishi mumkin emas, shundagina o'z oldingizga qo'ygan maqsadlarga erishish yo'lida sizni hech nima to'xtatib qololmaydi.

— *Shunday yo'l tutish kerakki, go'yo...* — takrorladi yigit yon daftarchasi uzra boshini egib.

— E'tiqodni yaratish uchun o'z-o'ziga ta'sir o'tkazishdan ham foydalanish mumkin, chunki bu ongimiz ostidagi ishonchimizga ham hukm o'tkazadi. Nimaniki bot-bot takrorlayversangiz, u ongingizning bir bo'lagiga aylanadi. Masalan, «Barcha ehtiyoj va istaklarimni qondirayotgan Xudo bergan boylik umrimni to'ldirib turibdi», «hayotimdagi Haqiqiy Boylik taqdimotlarini hech nima to'xtatolmaydi va hech nima to'sqinlik qilolmaydi», «Barcha ro'y berayotgan voqealar maqsad va sababchisi — hayotimni boy qilishdir», «Hayotdan nimaiki tilasam, o'z vaqt soati bilan zarur joyda olaman», degan ayrim qoidalardan foydalanaman.

Bu qoidalarni har kuni takrorlayman. Hatto ularni boshqa yana ba'zilar bilan birgalikda o'z oldimga qo'ygan maqsadlarimni yozib boradigan kartochkalar orqasiga yozib, kun davomida qaytalab o'qishga imkon topishim uchun hamyonimda olib yuraman. Hayotdan olgan eng muhim xulosalardan biri: e'tiqodga ega bo'lsangiz, barcha narsaga erishasiz, deganini yana bir bor ta'kidlashni joiz deb bilaman. Mutlaqo hammasiga.

— Fikrlaringiz bilan bo'lishganingiz uchun sizga rahmat, — dedi yigit o'rnidan tularkan. — Haqiqatda ko'p narsani oydinlashtirishga yordam berdingiz.

— Ko'maklashganimdan xursandman, — javob berdi janob Levis. — Mana, — dedi u yigitga kartochkasini uzatayotib, — balki bu sizga asqotib qolar.

Kartochkada qisqa she'riy satrlar bor edi:

«Jar yoqasiga boring», — dedi u.

Ular: «Biz qo'rqamiz», — deb javob berdilar.

«Jar yoqasiga boring», — dedi a.

Ular bordilar.

U ularni itarib yubordi...

Va ular parvoz etdilar.

Giyom Apolliner

Kechqurun yigitcha yozuvlarini qaytalab o'qidi:

**Haqiqiy Boylikning to'qqizinchi siri —
e'tiqod kuchidir.**

◆ Siz ishonch hosil etgan har qanday loyihani ko'rib chiqayotib, o'ylangan harakatlar rejasini yozing va uni amalga oshirish mumkinligiga amin bo'ling. Endi o'zingizga shunday savol bering: «Modomiki omadsizlikka uchramasligimni bilganimda qanday yo'l tutardim?».

◆ Jasur bo'l va zabardast kuchlar senda ko'maklashishga keladilar!

◆ Doimo «shunday yo'l tutginki, go'yo...» qabilida ish yuritsang, albatta muvaffaqiyatga erishasan.

◆ Ichki sezgingga ishon — ko'nglingga qarab ish tut.

◆ E'tiqodni tarkib toptirishida doimiy ravishda o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish yordam beradi. Nimaniki bot-bot takrorlasangiz, u ongingizning bir bo'lagiga aylanadi.

Yon daftarchasini yashirishdan avval u yozuvlarini yana bir bor o'qib chiqdi, keyin deraza yoniga keldi. Endi u nima qilishni bilardi. U jasur bo'lishi, ishonishi va harakat qilishi zarur.

O'ninchi sir

XAYRIYA QUVVATI

Yitcha Haqiqiy Boylik sirlari haqida bilib olganlaridan g'oyat hayajonda edi. Hayotida ilk bor boylik yaratish haqiqatda mumkinligini his etdi. U har kuni boylikka jalb etishga ko'maklashuvchi ongida ishonch hosil qilish uchun o'z-o'zida ta'sir etish qoidalarini diniy oyat kabi takrorlar edi. U hayotdan moliyaviy, ijtimoiy, kasbiy va hissiy jihatdan nima istashi to'g'risida chuqur mushoxada qilar ekan, uzoq o'ylab, maqsadlarini yozib oldi va shu orzulariga erishuvini tasavvur qilish uchun ijodiy, ravishda ko'z o'ngiga keltira boshladi.

Uning eng buyuk orzusi yozuvchi bo'lish edi. Lekin u oddiy yozuvchilikni emas, balki yozgan kitoblarini o'qigan kishilar o'zgarishlarini havas qilardi.

Albatta, uning boshqa orzulari ham bisyor edi — boqqa boraverishda yo'l yoqasidagilarga o'xshash o'z yerida qad rostlagan hashamatli imorati, shuningdek, oilasi hamda o'zini harcha qulayliklar bilan ta'minlashga yetarli mablag'i bo'lishini istardi.

Keyin u o'z niyatlariga erishish uchun nimalar qilishi mumkinligini o'ylab harakatlar rejasini tuzib chiqdi, chiqimlarni nazorat etish maqsadida u barcha kreditorlari bilan korishib, ulami moliyaviy ahvoli bilan tanishtirdi.

Garchi u barcha qarzlardan uzilish imkoniga ega bo'lmasa-da, har oylik to'lovlar ko'magida hisoblashishni taklif etdi. Bu qarzlarni to'lash uchun u daromadining yigirma foyizini har oyda ajratishi zarur edi. Kreditorlar uning shartlarini qabul qildilar, yigitchaning boshqa ko'pchilik kishilar singari qarz to'lashdan bo'yin tovlamay, ochiq va halol muomalaga intilayotgani ularga ma'qul tushdi. Shuningdek, u ishlab topganining o'n foizini investisiyalarga ajratishga qat'iy qaror qildi. To'g'risi, uncha zarurati bo'lmagan ayrim narsalar xarajatini kamaytirishga to'g'ri keldi, lekin endi bu qarzlardan qutulish va bo'lguvsii boylik yaratishni boshlash haqidagi fikrlarni anglash oldida arzimas baho edi.

U Haqiqiy Boylik yaratishni istasa, nimaiki qilmasin barchasi halol bo'lmasii kerakligini axiyri a'nglab yetdi. U janob Bruksning quyidagi

qolgandi: «Bu hayotni qaytar dunyo, deb qo'yibdi, qilgan barcha amallaring qachon bo'lmasin, o'zingga qaytadi».

Nimagaki qo'l urmasin, barchasiga maxsus bilimlar talab etilishini anglagan yigit kechki adabiy kurslarga, shuningdek, biznesni boshqarish maktabiga yozildi. Endi keksa xitoylikning ro'yxatidagi ko'pchilik kishilar bilan uchrashib, so'zlashganidan keyin u Haqiqiy Boylik sirlari ularga qanday xizmat qilgan bo'lsa, uning uchun ham asqotishiga astoydil ishonardi. O'ylagan va amin bo'lgan barcha niyatlariga qachonlardir albatta erishajagiga imoni komil edi.

Ro'yxatda birgina odam qolgandi va yigitcha u bilan uchrashmoqdan g'oyat hayajonlanardi.

Haqiqiy Boylikning eng so'nggi sirini bilish bag'oyat qiziqarli edi.

Jerri Liver shaharning badavlat zodagonlar yashaydigan qismida to'rt qavatli hashamatli uyda yashardi. Bu yerdagi keng ko'chalarda diplomatlar, millionerlar va turli mashhur kishilarga tegishli ulug'vor binolar qad rostlagan edi. O'tgan haftada yigitcha anchayin ko'rkam koshonalarda bo'lgandi, ammo janob Liverning qarorgohi u ko'rgan uylarning barchasidan o'tib tushdi. O'n sakkizinchi asrga mansub qadimiy mebellar bilan jihozlanib, mahoratli bezakchi-dekoratorlar tomonidan nafis tartiblangan zalning ichki ko'rinishi bag'oyat go'zal edi.

Kiraverishda kutib olgan eshik og'asi yigitni uch tomon devorlari poldan to shipga qadar kitoblarga to'la javonlar bilan qoplanib, to'rtinchi tomonda joy olgan katta marmar kamin ichida chirsillab o'tin yonayotgan mehmonxonaga kuzatib qo'ydi. Kamin yuqorisida osig'liq — mayib barmoqlar ibodat qilayotgan kabi ko'kka yo'naltirilgan ikki qo'l tasviri yigitda zo'r taassurot qoldirgandi.

Shu tobda eshik ochilib, xonaga oppoq sochli, chaqmoq moviy ko'zli, keksaroq kishi kirib keldi. Erkaklar qo'l siqib ko'rishishgach, kamin ro'ba-ro'siga joylashdilar.

— Bu rasm sizni ta'sirlantirgan ko'rinadi, — dedi janob Liver, devordagi tasvirga ishora qilib.

— Ha, — dedi yigitcha, — san'atni unchalik yaxshi tushunmasam-da, nazarimda ushbu rasmda nimadir borgan o'xshaydi...

— Uning ortida ajoyib tarixiy voqea bor, — dedi janob Liver. — Germaniyaning Nyurnberg degan loyi yaqinidagi kichik qishloqda bundan besh yuz yil muqaddam bo'lib o'tgan voqea bu. U yerda sakkiz bolasi bor oila yashardi. Albrext Dyurer ismli zargarlik kasbining ustasi oilasini boqish uchun sutkasiga o'n sakkiz soat ishlashga majbur edi.

Uning ikki o'g'lida san'atga qobiliyat ko'rindi va ikkalasi ham rassom bo'lishni orzulardi, biroq otasi ularni Nyurnberg badiiy Akademiyasiga yuborishga qurbi yetmasligini har ikkisi ham bilardi. Ikkala o'g'il qur'a tashlashga shartlashishdi. Qaysi biriga uyda qolish cheki tushsa, shu yerdagi konda ishlab, ikkinchi birovining Akademiyada o'qishiga pul topadi. To'rt yildan so'ng Akademiyada o'qishi bitgan o'g'il bilan bu yerdagisi

o'rin almashadilar, ya'ni ma'lumot olib kelgani san'ati yordamida yoki zarur bo'lsa, konda ishlab, ikkinchisining o'qishiga sharoit yaratadi.

Qur'a tashlanadi. Uka Albrect Dyurer o'qishga jo'naydigan, kattasi Albert esa konda ishlaydigan bo'ldi. Albrectning qobiliyati tez orada tan olindi va to'rt yildan so'ng, Akademiyani tugatish chog'ida o'z menhatiga yaxshigina haq oladigan bo'ldi. U qadrdon qishlog'iga qaytgach, bayram dasturxoni atrofida erishgan yutuqlari uchun sevimli akasi Albertga minnatdorchilik bildirib, qadah ko'taradi. Endi Nyurnbergga borish navbati akasiga yetgani, uning orzusi amdlga oshishiga ukasi yordam berajagini aytadi.

Butun oila Albertning Akademiyaga borishini ma'qullaydi, lekin u yig'lay boshlaydi. «Yo'q... yo'q... yo'q...» deya takrorlardi u va ko'zidan shashqator yosh oqardi. Xona sukunatga cho'ngandi. Albert ko'z yoshlarini artarkan, shivirladi: «Men uchun endi juda kech bo'ldi. Men Nyurnbergga borolmayman. Qaranglar! — U kondagi to'rt yillik og'ir mehnat oqibatida suyaklari qiyshayib, barmoqlari mayib qo'llarini ko'tardi. — Men og'riqdan hatto qadahni ushlolmayapman, endi hech qachon mo'yqalam tutolmayman. Men uchun endi kech bo'ldi.

Albrect Dyurer jo'nab ketdi va mashhur rassom bo'lib yetishdi. Bugun uning asarlari jahonning ko'pgina ko'rgazmalaridan joy olgan. Lekin u o'z muvaifaqiyati akasi tomonidan ko'rsatilgan saxovat tufayli ekanini hech qachon unutmagan. Akasiga so'nggi qarzini uzish maqsadida shu tasvirni yarat-di. Boshqa hech qaysi tasviriy san'at asarida shundan ko'ra ko'proq mehr, og'riq va ko'z yoshlarini topolmaysiz. Unda rassom akasining qo'llaridagi har bir tirtiqlik, har bir yara izini ifodalagan. Unsizgina ibodat tarzida ko'kka tomon cho'zilgan aka qo'llari shukronalik bildirayotgan va... kechirim so'rayotgan kabi ifodalanishi rassomning o'z aybini sezishi va minnatdorlik hissini aks ettirardi.

Qaysi sohada bo'lmasin, o'zgalar ko'magisiz to'kislikka kamdan kam erishiladi, degan hayot taqdim etgan eng muhim saboqni yodga solib turgani uchun ham ushbu suratni bu yerga osib qo'ydim. Agar inson shu haqiqatni tan olishdan bosh tortsa, uning bankdagi puli miqdori qanchalik ko'p bo'lmasin, qanchalik ulov va hashamatli uylarga ega bo'lmasin, Haqiqiy Boylikning o'ninchi va so'nggi siri — saxovatpeshalik quvvatini bilib olmas ekan, u o'zini asl badavlat deb sezmaydi.

— Saxovatpeshalik? — ishonqiramay qayta so'radi yigit.

— Ha, — javob berdi janob Liver. — Saxovatpeshalik — Haqiqiy Boylikning jon tomiri. Albatta, sizni faqat o'zingiz va oilangiz uchun boylik to'plashgina qiziqтира, hech bir yordam qo'lini cho'zmay ham maqsadingizga yetasiz. Lekin bu holda Haqiqiy Boylik nimaligini hech qachon bilolmaysiz. Yodingizda tuting, boylik pul mablag'ingiz yoki egalik qilayotgan mulkingiz miqdori bilan emas, balki hayotingiz sifati bilan aniqlanadi.

— Lekin saxovatpeshalikning hayotimiz sifatiga qanday aloqasi bor? — so'radi yigitcha.

— Birovga biron yashirin maqsadda beg'araz yordam berishingizga to'g'ri kelganmi? Shunchaki qo'lingizdan kelgani uchun ko'maklashganmisiz? Bu juç

mumkin. Masalan, kishiga katta yo'ldan o'tishida yordamlashish yoki notanish yo'lovchiga to'g'ri yo'l ko'rsatish kabi.

Yigit boshini qimirlatdi.

— O'sha kezda nimani tuydingiz? — so'radi janob Liver. — Bu sizga huzur bag'ishladimi, unga ko'maklashganingiz sizga yoqdimi?

— Ha.

— Agar o'zgalar ahvoliga e'tibor bermay, beparvo o'tib ketib ko'maklasholmaganingizda qanday kechinmalarini sezardingiz?

— Ehtimol o'zimni aybdorday sezardim, — tan oldi yigit.

— To'g'ri. Ko'rib turganingizdek, muhtojga xayrixohlik ko'rsatib, o'zingiz haqingizda yaxshi fikrlashni boshlaysiz. Jamiyat uchun qandaydir foyda keltirishga o'zingizni loyiq sezasiz.

Demak, bundan-da ko'proq ehtiromga munosibligingizga ich-ichingizdan ishonasiz.

— Bu o'zingiz haqingizda yaxshi fikrlashga yordam berishi mumkin, — dedi yigitcha. — Lekin boylik yaratishda sizga yordam bermaydi.

— Siz "O'ndan birini ajratish" deb atalgan tamoyil haqida hech eshitganmisiz? — so'radi janob Liver.

— Eshitganman. Bunda xudojo'y kishilar daromadlarining bir qismini cherkovga beradilar.

— To'g'ri. Lekin bu tamoyil Injil yaratilgan davrdayoq yuzaga kelgan, o'shandayoq odamlar ishlab topganlarining (o'n foyizini) muhtojlarga berishgan. Endi juda qashshoq va gadoylardan boshqa, hamma shunday qiladi.

Dinshunoslar o'ndan bir ulush haqidagi tamoyilning vujudga kelish sabablari haqida bahslashadilar. Ayrimlar bu soliqning oddiy ko'rinishi deb biladilar, boshqalar esa jamiyat o'z a'zolariga ko'proq g'amxo'rlik qilishi uchun bu tamoyil kiritilgan, deydi. Lekin ko'pincha bu tamoyilga amal qilganlar ular bergan pullaridan ortiqroq darajadagi yutuqqa ega bo'layotganlarini unutadilar.

— Ular o'zlari haqida yaxshi fikrlash imkoniga ega bo'ladilar, demoqchimisiz? — taxminladi yigitcha.

— Ha, lekin yutuqning mohiyati shundaki, o'zgalarga berayotib, haqiqatda o'zimiz olamiz. Chunki nimaiki qilmaylik, o'zimizga qaytadi. «Yaxshilik qil, suvga tashla: baliq biladi, baliq bilmasa, Xoliq biladi». Nimaiki bersangiz, sizga shuning ajri bor, o'zingizga ko'payib qaytadi. Byergan odamingizdan qaytishi shart emas, lekin baribir kimdandir qaytadi.-

Ko'p yillar muqaddam men yashash uchun kurash olib borardim. Uzoq vaqtimni sarflasam-da, biznesim hech rivoj topmadi. Kunlardan birida bir qariyani uchratmagunimcha...

— Keksa xitoylikni, — gapni bo'ldi yigitcha.

— Bo'lmamchi! — kulib yubordi janob Liver. — Undan Haqiqiy Boylik sirlarini, shuningdek, saxovatpeshalik quvvati to'g'risida bilib oldim. Hozirgi ahvolimda saxovatpeshalik bilan shug'ullanishga imkonim yo'qligi, pul berolmasligim haqida e'tiroz bildirdim. Lekin chol xayriya bilan shug'ullanmaslikka imkonim yo'qligiga meni qat'iy ishontirardi.

Tabiiyki, bu holga shubhalanibgina munosabatda bo'ldim, ammo daromadining o'n foizini berganidan so'ng moliyaviy ahvoli yaxshilanganiga ishontirolgan odamni uchratib qoldim.

Shunday qilib, nihoyat, saxovatga jur'at qildim va qarorim natijasidan ajablandim. O'zim haqimda fikrim yaxshilandi, qiziqishim kuchaydi va... daromadim o'sa boshladi. Bundan tashqari, hayotimdagi keskin o'zgarish, aynan saxovatpeshalik quvvati tufayli bo'lganini ta'kidlash o'rinlidir.

Bugun juda katta davlatim bor mana shu uy, Barbadosda villa, Shveysariyada chang'i majmuasi ham menga qarashli. Qadimiy roils-roys ulovi xizmatimda, sof daromadim esa 10 million funtga yetadi.

— Kishilarga xayriya qilish tamoyili yordam berdi, deb hisoblaysizmi? — so'radi yigitcha.

— Bunga butunlay imonim komil. Albatta, faqat u emas. Haqiqiy Boylikning barcha sirlari o'z rolini o'ynadi. Lekin daromadimning o'ndan bir qismini muhtojlarga berishni boshlaganimdan so'nggina o'zimni badavlat deb hisoblay boshladim va ko'p o'tmay daromadim ko'paya bordi. Imkoniyatlar va bitimlar birin-ketin yog'ilib ketdi.

Bularning barchasi shunchaki muvofiq kelib qolgan, deyishingiz mumkin, Lekin bu kabi voqealarni so'zlab bera oluvchi ko'plab insonlar mavjud.

Yigitcha yon daftarchasiga bir qancha yozuvlar bitdi, janob Liver so'zida davom etardi:

— Boylik — o'zida xos changlagich: atrofga oz-moz sepilsa — u ko'payishga ko'maklashadi. Lekin uni teginmay bir joyga to'plab qo'yilsa, badbo'y hidi taralib, zararli mikroba va zambumg'lar manbaiga aylanadi.

Mabodo davlatingizning bir qismini berib, muhtojlarga ko'maklashsangiz, pulingiz baxt manbaiga aylanadi va ularni ko'paytirishga erishasiz.

— Lekin o'zgalarga yordam beradigan darajadagi ahvolga avval o'zingiz kelishingiz zarur. Sahovat ko'rsatishni boshlash uchun avval o'zingiz boy bo'lishingiz kerak, — fikrini uqtirmoqchi bo'ldi yigit.

— Ko'pchilik siz kabi fikrlaydi, — dedi janob Liver.

— Lekin hayot boshqacha yaralgan. Nima, siz yuz ming funt daromadi bor odamning o'n ming funt berishi o'n ming funt topayotgan va ming funt bergan odamga nisbatan osonroq deb o'ylaysizmi?

— Yo'q, unday o'ylamayman, — bir daqiqa tin olib turgandan so'ng tan oldi yigit.

— Agar muhtojlarga daromadingizning o'n foizini ajratishga doimiy ravishda odatlansangiz, ongingizda to'kinchilik hissi muhrlanadi, imkoniyatingizdan ortiqroq farovonlikka erishganingiz natijasida haqiqiy boylik oqib kelaveradi.

Hammasi ana shu rasmga kelib taqalyapti, — dedi janob Liver kamin yuqorisidagi devorni ko'rsatib, — hech kim yo'lg'iz o'zi hech nimaga erishmaydi. Kimligingiz va qayerdanligingiz ahamiyatsiz, atrofingizda muvaffaqiyat yoki boylikka erishishga ko'maklashuvchilar bo'lishi kerak.

Shu sababli ham saxovatpeshalikni davom ettirish bag'oyat muhim.

Yigit uyiga qaytgach, yozuvlariga quyidagi xulosa qildi:

Haqiqiy Boylikning o'ninchi siri — saxovatpeshalik quvvati.

◆ O'zgalar yordamisiz yoki boshqalarga ko'maklashruay turib biron-bir sohada to'kinchi erishib bo'lmaydi. O'zgalariga yordamlasha turib, o'zimizga ko'maklashamiz.

◆ Daromadingizning o'n foizini muhtojlarga yordam berishga ko'mak bersangiz, o'zingizga ko'payib qaytadi.

◆ O'zgalariga ko'maklashgan chog'da ongingizda mo'l-ko'lchilik hissi muhrlanadi

XOTIMA

U hali uxlayotgan xotini va farzandlarini uyg'otib yubormaslik uchun ko'cha eshikni ohista yopdi. Mashq kiyimlarini kiyib, bog' tomon otlanganida ko'cha qorong'i, tong hali yorishmagandi. Sehrli xitoylik chol bilan uchrashgaradan so'ng bu uning doimiy odatiga aylangandi.

Yo'lka bo'ylab yurib borarkan, uning xayoli orqaga, o'sha ular uchrashgan tongga qaytdi, O'tgan besh yil mobaynida shunchalar ko'p voqea-lar ro'y berdiki, hayotidagi g'aroyib o'zgarishlarga hatto ishonib bo'lmardi.

Choi bilan uchrashuvidan so'nggi bir yil ichida yigit barcha qarzlardan qutulib, ishlab topgan mablag'idan o'n foyizini orttirishga ham muvaffaq bo'ldi.

Olti oydan keyin awalgi ishini tashlab, boshqa kichikroq xususiy biznesini tashkil etdi — uyda ishlovchilar uchun axborotlar ma'lumotnomasi nashr eta boshladi. Borgani sari uyda ishlashni xohlovchilar soni ortib borayotgan, kishilar uchun axborot-ning juda kamligini aniqlagan sababli u xususiy biznesi to'g'risida o'ylay boshlagan chog'i aynan shu masalaga diqqatini qaratgan edi. U kompyuter texnologiyasi, soliqlar, masalaning yuridik tomonlari, shuningdek, uydin turib boshqarishni istovchi odamlarga zarur bo'lgan mayjud xizmat ko'lami kabilarni o'rganishiga to'g'ri keldi.

Axborotlar malumotnomasi zo'r muvaffaqiyat qozondi, o'n sakkiz oydan so'ng esa u birinchi kitobini yakunladi, ketidan yana oltitasi tayyor bo'ldi. Bor-yo'g'i uch yil ichida ulardan beshtasi xalqaro miqyosda eng xaridorgir kiioblar sirasiga kirdi.

Bu davr ichida u ajoyib ayolni uchratdi va sevib qoldi, xotini unga jonidan aziz ikki nafar shirin farzand tuhfa etdi. Oilasi uning hayotidagi haqiqiy boyligi edi. Qolgan barchasi ikkinchi darajali ahamiyatga ega edi: harto o'sha ishlab topgan barcha mablag'i-yu uy-joyi va egaligidagi bosbqa mulklarisiz ham u o'zini badavlat deb hisoblardi.

U: «Oilam menga hag'ishlayotgan mehr, quvonch va baxtni o'lchash uchun nahotki baho bo'lsa?» — deya takrorlashni yoqtirardi.

Ba'zan unga qanday qilib shunday hayotga erishganini so'rab qolishardi. Ayniqsa, bir vaqtlar kunini zo'rg'a ko'rib, topganini uchma-uch yetkaz-gan davrdagi ahvolidan boxabar tanishiari bunga qiziqardilar. Baxtli voqeanii? Lotoreyaga yutuqmi? Yigit esa ularga keksa xitoylik bilan uchrashuvi va Haqiqiy Boylik sirlari to'g'risida so'zlab berardi. Uning hikoyalariga juda kam odam ishonardi, lekin uni diqqat bilan tinglab, Haqiqiy Boylik sirlaridan o'z hayotlarida foydaiangan insonlar ham bor edi. Ularning barchasi nafaqat o'z daromadlarini ko'paytirib oldilar, balki ahamiyatlisi, aytishlariga qaraganda, barcha pul va brilliantlardan qimmatii bo'lgan hayotga yangi munosabat kabi muhimroq va qadrliroq ne'matni qo'lga kiritdilar,

Ular *vaziyat qurboni* bolishdan to'xtab, o'z taqdiri yaratuvchilariga aylandilar. Yigitning o'zgalarga ko'makiashuvni anglashi qalbidagi eng ajoyib hissiyot edi. Har qanday inson o'zgalarga ko'maklashish quvonchini sezib boqqanida boy bo'lib ketadi.

Har tong bog'da sayr qiarikan, u keksa xitoylikni yana uchratishdan umidvor bo'lardi. U chol bilan uchrashgani va Haqiqiy Boylik sirlaridan voqif bo'lgani tufayli hayotida nimaiar ro'y berganidan keksa xitoylik ham boxabar bo'lishini istardi. Barcha yaxshiliklari uchun unga minnatdorchilik izhor etmoqchi edi. Lekin bu tong ham xuddi boshqalari kabi qariyadan darak bolmadi.

U uyga qaytganida quyosh charaqlab, moviy osmonni yoritardi. Yigit pochta qutisidan xat-xabarlarini olib, xotiniga choy tayyorlamoq uchun chovgunga choy qo'ydi. Nogoh jiringlagan telefon qo'ng'irog'i uni dik etib o'rnidan turg'izib yubordi. Ertalabki soat yetti har qanday qo'ug'iroqlar uchun ancha erta edi.

U go'shakni ko'tardi. «Assalomu alaykum, — dedi go'shakdagi ovoz, — siz meni tanimaysiz. Ismim Arnold Benks. Shunchalar erta bezovta qilganim uchun uzr so'rayman, lekin hozirgina keksa xitoylikni uchratdim. U telefon raqamingizni berib, aytdiki, so'zlab berishingiz mumkin bo'lgan ma'lumot...»

— Haqiqiy Boylik sirlari haqida, — uning gapini tugalladi yigit.

— Ha, — dedi go'shakdagi ovoz, — Haqiqiy Boylik sirlari haqida gapirib bersangiz.

— Albatta, — dedi yigit quvonchi ichiga sig'may. — Bajonidil.